

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

UDK:338:45:91:33(575:1)

ABDULLAYEV HABIBULLO ASADULLA O‘G‘LI

**“ MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI
RIVOJLANTIRISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA
XUSUSIYATLARI
(Xorazm viloyati misolida) ”**

08.00.12-“Mintaqaviy iqtisodiyot”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. B.B. Valiyev

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI..	13
1.1 Mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari.....	13
1.2 Mintaqani iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta’minlashda sanoat ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil etishning ahamiyati.....	22
1.3 Turli mintaqaviy sharoitlarda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning global misollari va ilg‘or xorijiy tajribalar.....	36
II-BOB. MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINING HOZIRGI HOLATI VA TAHLILI...	50
2.1 Mintaqa sanoatining birlamchi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali respublika sanoat ishlab chiqarish miqyosidagi mintaqaning tutgan o‘rnini baholash.....	50
2.2 Xorazm viloyati hududiy sanoatining tarmoq va hududiy tarkibi holatini o‘rganish.....	59
2.3 Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishining kapital qo‘yilmalarga ulushini tahlil qilish orqali hududdagi iqtisodiy dinamika va investitsion ustuvorliklarni aniqlash.....	72
III-BOB. XORAZM VILOYATI SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA MEXANIZMLARI.....	81
3.1 Mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyalarini Xorazm viloyatiga tatbiq etish yo‘nalishlari.....	94
3.2 Raqamli iqtisodiyot, yangi texnologiyalar va sanoatlashtirish — mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmi sifatida.....	111
3.3 Mintaqa sanoat ishlab chiqarish hajmini prognozlash modellari samaradorligini baholash imkoniyatlarini takomillashtirish.....	125
XULOSA VA TAKLIFLAR	127
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	129

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlarining jadallashuvi mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining ahamiyatini oshirmoqda. Sanoatning rivojlanishi mintaqada ko‘plab iqtisodiy muammolarga yechim bo‘lishi mumkin, jumladan, bandlikni ta‘minlash imkoniyatlarini yaratadi, infratuzilmani yaxshilaydi hamda aholining turmush darajasini oshiradi. Ishlab chiqarish tarmoqlarining bosqichma-bosqich takomillashib borishi mintaqa yalpi hududiy mahsulotining ko‘payishiga ulkan hissa qo‘shib, eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. “Birlashgan Millatlar Tashkiloti sanoatni rivojlantirish tuzilmasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023 - yil yakunlari bo‘yicha sanoat sektori global iqtisodiyotda 2,3% ga oshgan¹”. Mazkur holat mintaqalar iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlashga, turli sohalarga, jumladan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilmani rivojlantirishga qo‘shimcha sarmoya kiritish imkonini yaratmoqda hamda mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shmoqda.

Jahonda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, sanoat tarmoqlarida ish yuritish jarayonlarini boshqarishning yangicha yondashuvlarini shakllantirish, ixtisoslashgan xodimlarga bo‘lgan talabni oshirishni tartibga solish, turli xil ta‘lim va malaka darajasidagi xodimlarni ish bilan ta‘minlash kabi yo‘nalishlar sohada olib borilayotgan dolzarb tadqiqotlardan hisoblanadi. Mintaqa aholisi daromadini oshirish hamda turmush sharoitlarini yaxshilash, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi keskin farqlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududlarni kompleks rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf qilish kabilar ham bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan

¹ International Yearbook of Industrial Statistics. Unido.org

hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda mahalliy sharoitlarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari orasidagi tubdan farqlanishning oldini olish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada keyingi yillarda ham bir qator Prezident qaror va farmonlari imzolandi. Xususan 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish”² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi hududlar kesimida to‘liq quvvat bilan ishlamayotgan hamda nafaol sanoat korxonalarida xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali samaradorligini oshirish, mintaqa ishlab chiqarish sanoatiga yangicha yechimlarni sanoat salohiyatini yaxshilashga ta‘sirini baholash, ekonometrik modellar ishlab chiqish asosida mintaqada sanoat tarmoqlari rivojlanish darajasini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkichlarining uzoq istiqboldagi prognoz variantlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169-son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 23-noyabrdagi PF-198-son “Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 25-yanvardagi PQ-99-sonli “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-404-son “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. – www.lex.uz

2022-yil 24-noyabrdagi 671-son “O‘zbekiston Respublikasi bosh vazirining Investitsiyalar va Tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vazirining funksional vazifalari, investitsiyalar, eksportni qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari kotibiyati hamda mahalliy sanoatni rivojlantirish va kooperatsiya aloqalari masalalari kotibiyati to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi, 2023-yil 26-dekabrdagi 684-son “140 ta ilg‘or sanoat korxonasi dasturini amalga oshirish va “sanoat ipotekasi” tizimini joriy qilishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Ishlab chiqarish sanoatini hududiy jihatdan ilmiy asoslarga suyangan holda oqilona tashkil qilish va sanoat tarkibini takomillashtirish masalalari ko‘plab mamlakatimiz hamda xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rganilgan. Xorijiy mamlakatlar mintaqashunos olimlari M.Porter, R.S.Kaplan, D.Norton, A.Tompson, X.R.Fridag, R.Xarris, V.Kokren, J.Put, R.Kapell, U.Fretesi tomonidan hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish hamda mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan³.

³ Портер М. Конкуренция. : Пер. с англ. — М.: Издательский дом “Вильямс”, 2003. — 608 с. : ил. Парал. тит англ. Kaplan R.S., Norton D. P. The strategy-focused organization: How balanced scorecard companies thrive in the new business environment[Text] / R. S. Kaplan,. — Harvard Business School Press, 2001; Томпсон А. А. Стратегический менеджмент [Текст] / Пер. с англ.- М.: Банки и биржи, ЮНИТИ, 1998.- 576 с.; Фридаг Х. Р. Сбалансированная система показателей. [Текст] / Пер. с нем. — М.: Финансы и статистика, 2007; Harris R. Models of Regional Growth: Past, Present and Future // Urban and Regional Economics Seminar Group Seminar Meeting: University of Glasgow, 10-11 January 2008; Cochrane W., Poot J. Demand-Driven Theories and Models

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.G.Granberg, Yu.A.Gadjiev, O.G.Dmitrieva, N.Zubarevich, S.V.Kazansev, I.N.Merenkova, A.N.Nosov, O.I.Panteleeva, D.Sepik, L.A.Serebryakova va boshqalar hududiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy masalalari, hududiy iqtisodiy o‘shish va mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolarni tashxislash, hududiy iqtisodiy salohiyatni yuksaltirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar⁴.

O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish va uning hududiy tarkibini shakllantirish, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish masalalari mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan M.A.Abdusalyamov, T.M.Axmedov, A.V.Mamatqulov, Sh.X.Nazarov, A.B.Nizamov, O.O.Olimjonov, D.A.Ortikova, B.Ruzmetov, A.M.Sodiqov, A.T.Yusupov, F.T.Egamberdiyev, A.M.Qodirov, S.S.Zokirov, X.M.Saydaxmedov, Sh.J.Ermamatov va boshqalarning asarlari va ilmiy ishlanmalarida keng yoritilgan⁵.

of Regional Growth // Handbook of Regional Science. July 2013. P. 259-276; Capello R., Fratesi U. Modelling Regional Growth: An Advanced MASST Model // Spatial Economic Analysis, Vol. 7, No. 3, September 2012. P. 293-318.

⁴ Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУ ВШЭ, 2003. -52 с.; Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития //“Корпоративное управление и инновационно-развития Севера”. Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 No2; Дмитриева О.Г. Региональная экономическая диагностика. - СПб.: Изд-во СПб. Университета экономики и финансов, 1992.; Зубаревич Н. Региональное развитие и институты // Экспертный портал Высшей школы экономики “Открытая экономика” -ОPEC.ru; Казанцев С.В. Потенциал экономики регионов России как основа их внутренней конкурентоспособности. // Регион, 2004, No1; Меренкова И.Н. Диагностика уровня развития сельских территорий // “Региональная экономика: теория и практика”, 2010, No24; Носов А.К. Управление взаимоотношениями в региональной кластерной структуре, связанной цепью поставок. // Логистика и управление цепями поставок, 2009, No6; Пантелеева А.П. Применение индикаторов устойчивого развития на региональном и муниципальном уровнях // Региональная экономика: теория и практика, 2010. No22; Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: европейский подход //Регион: экономика и социология, 2005, No2; Серебрякова Л.А. Методы оценки уровня социально-экономического развития регионов // Вестник СевКавГТУ, серия “Экономика”, 2003, No3.

⁵ Абдусаломов М. О целях и методологических основах региональной политики. Научно-исследовательский центр “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГУ. — Ташкент, 2015 г.; Ахмедов Т.М., Хасанджанов К.А., Хакимов Н.Х. Региональная экономика: Учебное пособие. — М.: изд. РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. — 231 с.; Mamatkulov A.V. The role of free economic zones in attracting foreign direct investment through small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. “Economic development and liberalization issues of implementation the five priority areas of Uzbekistan’s development strategy”. -Tashkent, 2018.; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. -Ташкент: IFMR, 2014. — 212 с.; Низамов А.Б. Совершенствование системы управления региональной экономикой в условиях устойчивого экономического роста. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Ташкент, 2018 г. — 45 с.; Олимжонов О.О. Вопросы повышения конкурентоспособности сельских районов. Агрэкономика, 2017, №1. -С. 7-12; Ортикова Д.А. Иктисодиёт рақобатбардошлигини оширишнинг асосий йуналишлари. “Минтака иктисодиёти рақобатбардошлигини ошириш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги республика илмий -амалий конференция материаллари. — Бухоро, 2015.; Рuzmetov B. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. — Ташкент: Фан, 2002. — 220 с.; Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. -Ташкент: Iqtisod- moliya, 2005. — 280 с.; Садыков А.М. Новая стратегия развития Узбекистана: формирование, приоритеты, реализация. Монография. — Ташкент, 2019. — 536 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Иктисодиёт назарияси, укув кулланма. — Т.: Иктисод-молія нашриёти, 2014й.; Кадыров А. М. и др. Региональная экономика. — Т.: LESSON PRESS, 2018. — 239 с.; Зокиров С.С. Инструменты государственного регулирования комплексного развития регионов Узбекистана. Материалы VI

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1. "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishning ilmiy metodik asoslari va usullarini takomillashtirish" hamda F1-154. "Milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yalpi ichki mahsulot o'sishiga ta'sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzularidagi fundamental loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy yangiliklar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

nazariy yondashuvlar va qarashlarni tahlilidan kelib chiqqan holda, mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uslubiy yondashuvlarini keng yoritib berish;

mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishi kuchlarini oqilona joylashtirish hamda shakllantirish bo'yicha dunyo mamlakatlari tajribasini birlashtirgan holda sanoatning mintaqaviy taraqqiyoti imkoniyatlari, zaruriyati, shart – sharoitlarini asoslash;

mamlakat sanoatini taraqqiy etishida Xorazm viloyatining tutgan o'rni, viloyat sanoat ishlab chiqarishi bosqichlarining shakllanishi omillarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;

Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish borasida mavjud iqtisodiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda takliflar ishlab chiqish;

mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning tarmoq xususiyatlarini ochib berish hamda undan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida amaliy tavsiyalar tayyorlash;

Xorazm viloyati sanoati ishlab chiqarishining hajmini prognoz qilish hamda hududiy sanoat salohiyatini baholash imkoniyatlarini takomillashtirishga doir amaliy takliflar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti sifatida Xorazm viloyatining sanoat majmualari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Xorazm viloyati mintaqa sanoat majmualarini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil guruhlash, SWOT tahlil, ekonometrik va matematik statistika, korrelatsion-regression tahlil usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga koʻra “mintaqaviy sanoat siyosati” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mintaqadagi sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar majmuiga ilmiy-texnika yutuqlarini qoʻllashning ustuvor yoʻnalishlarini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

mintaqaning toʻliq quvvat bilan ishlamayotgan hamda nofaol sanoat korxonalarida xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali samaradorligini oshirish taklif etilgan;

Xazorasp va Tuproqqalʼa tumanlarida ishlab chiqarish maydonlarini belgilash, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish asosida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish orqali viloyat sanoat salohiyatini oshirish asoslangan;

Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlari rivojlanishining prognostik, optimizatsion, loyihaviy-investitsion, dasturiy bosqichlarini joriy etishdagi koʻp omilli ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishdagi eng muhim samaradorlik koʻrsatkichlarini ishlab chiqishda qoʻllanilgan;

Mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi nisbatan past bo'lgan tumanlarining sanoat ishlab chiqarishida kichik sanoat korxonalarini salohiyatidan kengroq foydalanish imkonini berdi;

mintaqada (viloyat) innovatsion yechimlarni tatbiq qilishning mintaqaviy sanoat ishlab chiqarish salohiyatini yaxshilashga ta'siri baholandi, natijada Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo'ljallarini ishlab chiqishda foydalanildi.

mintaqaviy (viloyat) sanoatining intensiv o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, sanoat ishlab chiqarishining hududiy yalpi mahsulotga ta'siri baholandi. Mintaqaning o'rta va uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda sanoatni barqaror rivojlantirish omillari va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish mo'ljallarining aniqligi ortdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi ularning rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi respublika va hududiy sanoatni barqaror rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga mosligi hamda tegishli xulosalarni hududiy mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari, shuningdek, boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada yoritilgan miqdoriy usullar va ilmiy xulosalardan hududiy sanoatlarning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish hamda ularning o'zgarishlarini baholash, olingan natijalardan hududiy sanoatlarni uzoq muddatli rivojlantirish istiqbollari belgilash va bu borada muhim qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada olingan tahliliy ma'lumot va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Xorazm viloyati hokimligi tasarrufidagi sanoat majmualari amaliy

faoliyatida foydalanilganligi, xususan, amaliyotga taqdim etilgan asosiy xulosa va prognoz natijalari asosida viloyat sanoati rivojlanishining kelgusi variantlari hamda turli iqtisodiy rivojlanish senariylarini ishlab chiqish imkoniyatlari mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha ishlab chiqarilgan ilmiy takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “mintaqaviy sanoat siyosati” tushunchasining iqtisodiy mazmunini mintaqadagi sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuiga ilmiy-texnika yutuqlarini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlarini tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan. “Mintaqaviy boshqaruv va hududiy rejalashtirish” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-sonli buyrug‘i) Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mintaqadagi sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuiga ilmiy-texnika yutuqlarini qo‘llashning ustuvor yo‘nalishlarini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan mintaqaviy sanoat siyosati tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

mintaqaning to‘liq quvvat bilan ishlamayotgan hamda nafaol sanoat korxonalarida xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali samaradorligini oshirish taklifi Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi VI-76-190-12-0-K/23-son qarorida 2024-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo‘ljallarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi 2024-yil 14-iyun sanasida 07-4/5545-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan past

bo'lgan tumanlarining sanoat ishlab chiqarishida sanoat korxonalari salohiyatidan kengroq foydalanish imkoni yaratilgan;

Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida ishlab chiqarish maydonlarini belgilash, ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarini joylashtirish asosida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish orqali viloyat sanoat salohiyatini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 4 apreldagi 154-son "2022 - 2026 yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga 2-ilova "Yo'l xaritasi"da inobatga olingan. (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi 2024-yil 14-iyun sanasida 07-4/5545-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyat tumanlarida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish orqali viloyat sanoat salohiyatini oshirish imkoni yaratilgan;

Xorazm viloyatida sanoat tarmoqlari rivojlanishining prognostik, optimizatsion, loyihaviy-investitsion, dasturiy bosqichlarini joriy etishdagi ko'p omilli ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 28-dekabrda VI-76-190-12-0-K/23-son qarorida 2024-yil uchun Xorazm viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo'ljallarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Xorazm viloyati hokimligi mahkamasi 2024-yil 14-iyun sanasida 07-4/5545-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatni o'rta va uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda sanoatni barqaror rivojlantirish omillari va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish mo'ljallarining aniqligini oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola (3 ta mahalliy, 1 ta xalqaro nashrlarda), 13 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

I-BOB. MINTAQADA SANOAT ISHLAB CHIQRISHINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI

1.1 Mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati va o‘ziga xos xususiyatlari

Mintaqa so‘zining atamasiga ilmiy adabiyotlarda berilgan ta’riflariga nazar solinsa, u hududning tarixan vujudga kelgan geografiyasi, madaniy merosi, iqtisodiyoti va ijtimoiy dinamikasini tahlil qilishda foydalaniladi. Tabiiy resurslarga qanchalik boyligi mintaqa iqtisodiy faoliyatiga katta ta’sir qiladi, madaniyat esa ijtimoiy normalar va qoidalarni shakllantiradi. Mintaqaning rivojlanish salohiyati sanoat, savdo tarmoqlari va infratuzilma kabi omillar bilan kuchayadi. Ijtimoiy dinamika, jumladan, demografik va ta’lim darajasi jamiyatning birlashishi hamda rivojlanish natijalariga ta’sir qiladi. Tarixiy hodisalar mintaqaning o‘tmishdagi rivojlanish yo‘nalishlari haqida tushuncha hosil qiladi, hozirgi strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, inklyuziv va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi. “Mintaqalar o‘ziga xos tabiiy va madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan bir jinsli hududlar bo‘lib, ular chegaradosh hududlardan farq qiladi, ular bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan milliy hududning ajralmas qismi bo‘lib, o‘z urf-odatlarini va qadriyatlarini tizimi, shuningdek, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi”⁶. Hududlar milliy iqtisodiyotning tarkibiy qismlari sifatida davlat boshqaruv ta’sirida bo‘ladi.

An’anaviy usullardan ko‘ra tezroq mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati tufayli sanoat ishlab chiqarish zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarish avtomobilsozlik, elektronika, oziq-ovqat va ichimliklar, farmatsevtika kabi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat sanoat tarmoqlarini qamrab oladi. Sanoat ishlab chiqarishi ikki toifaga bo‘linadi: ommaviy ishlab chiqarish hamda qisman yoki to‘liq bo‘lmagan qismlarni ishlab chiqarish. Ommaviy ishlab chiqarish — qisqa vaqt ichida ko‘p miqdorda bir xil mahsulotlarni

⁶ Конкуренентоспособность регионов: теоретико-прикладные: аспекты- монография / под редакцией. Перского. — М.: ТЕИС, 2003. -472с .

ishlab chiqarish jarayonidir. Bu maxsus mexanizmlar va avtomatlashtirilgan jarayonlar orqalida amalga oshiriladi. Qisman ishlab chiqarish — bu ko‘proq moslashtirilgan tarzda kamroq miqdordagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonidir.

Sanoat korxonalarini amaliyotidan bilamizki, ishlab chiqarish jarayoni mahsulotni loyihalash va uning dastlabki ko‘rinishlarini ishlab chiqishdan boshlanadi. Bu materiallarni tanlash, mahsulot dizayni va ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish kabi bosqichlarni qamrab oladi. Sanoat ishlab chiqarish jarayoni sifat nazoratini ham o‘z ichiga oladi. Sifatni nazorat qilish — bu mahsulotning kerakli texnik talablarga javob berishini ta‘minlash jarayoni hisoblanadi. Bunga mahsulotning nuqsonlarini aniqlash uchun sinovdan o‘tkazish, mahsulotning xavfsizlik standartlariga javob berishini ta‘minlash, mahsulotning mijozlar talablariga javob berishini ta‘minlash kiradi.

Tarixan sanoat rivojlanishi iqtisodiy o‘shishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shunisi e‘tiborga loyiqki, “18-19-asrlarda sanoat inqilobi deb nomlanuvchi davr misli ko‘rilmagan iqtisodiy taraqqiyotni yuzaga chiqardi. Bu davrda innovatsion hamda samaraliroq ishlab chiqarish usullari, jumladan, paxta tozalash, bug‘ mashinasi, elektr energiyasi va konveyer tasmasi kabi yechimlar joriy etildi. Yuqoridagi texnologik yutuqlar sanoat ishlab chiqarishning samaradorligini yanada oshirish orqali jahon iqtisodiyotiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi”⁷.

Mintaqadagi sanoat rivojlanishi tufayli iqtisodiy o‘shish uzoq muddatda iqtisodiyotni barqarorlashtirishi mumkin bo‘lgan muhim bosqich hisoblanadi. Sanoat rivojlanishi hamda iqtisodiy o‘shish bir-birini mustahkamlovchi jarayonlardir. Iqtisodiyotning mavjud barcha real sektorlari sanoat sektori kengayganda asosiy vazifalarini to‘la qonli amalga oshirishni boshlaydi, chunki bir davrning o‘zida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bandlikni ta‘minlash, moliyaviy imkoniyatlar hamda texnologik yutuqlarni in‘ikosi

⁷ “Industrial History of European Countries”. European Route of Industrial Heritage. Council of Europe. Retrieved 2 June 2021.

bo‘lib xizmat qiladi. Mintaqada sanoatining rivojlanishi hamda innovatsion yangilanishi natijasida aholi daromadlarining oshishiga, turmush sifatining yaxshilanishiga olib keladi, sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi hamda shu orqali aholi jon boshiga daromadni, mehnat unumdorligini oshiradi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi deganda biz bevosita aholi daromadlarining oshishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini tushunamiz. Tez rivojlanayotgan hozirgi texnologik davrda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu albatta, sanoat mahsulotlari hajmining o‘sishi va yanada taraqqiy etishiga keng imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Mintaqa iqtisodiyotida iqtisodiy o‘rishni rivojlanishdan ajratish iqtisodchi olim Blerning⁸ ta’kidlashicha muhim ahamiyatga kasb etadi. Unga ko‘ra, iqtisodiy o‘rish foydali yoki zararli bo‘lishi mumkin. Masalan, agar mintaqada yangi fabrika ochilsa o‘rish kuzatilishi mumkin, lekin u juda kam ish haqi to‘lasa, barcha xomashyolarini chet eldan olib kelib foydasini chet elga yuborsa, natijada o‘rtacha daromad u joylashgan mintaqada pasayishi mumkin. Shuning uchun, garchi mintaqa aholisi va daromadi o‘sgan bo‘lsa-da, hayot darajasi pasaygan bo‘ladi. Rivojlanish aholining farovonligi o‘rtacha hisobda yaxshilanayotgani yoki kam ta‘minlanganlar qolganlarga qaraganda ko‘proq daromad olayotganligi bilan o‘lchanadi.

Mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish nima uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki sanoatni rivojlantirish yangi tovarlarni yetkazib beruvchisi sifatida asosiy rol o‘ynaydi. Talabni diversifikatsiya qilish va ommaviylashtirish jarayonida muhim o‘rinlardan biri ishlab chiqarish sektorining o‘sishi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchi firmalar har qanday iqtisodiyotda yangi tovarlarni va turlarning ko‘payishini ta‘minlovchi asosiy vositadir. Odamlarning kundalik hayoti sanoat sohasida boshlangan texnologik inqiloblarning ketma-ket to‘lqinlari bilan tubdan o‘zgarib turadi. Ushbu to‘lqinlar iste‘molchilar uchun mavjud bo‘lgan tovarlar turkumini sezilarli darajada ko‘paytiradi va bugungi kunda bu hodisa ro‘y

⁸ “Economic Concentration: Structure, Behavior and Public Policy” John. M Blair

bermoqda. Unumdorlik, raqobat va innovatsiyalar rivoji tufayli sanoat mahsulotlar tobora arzonlashmoqda.

Barqaror rivojlanishga erishish uchun mintaqaning sanoat kuchlarini oqilona joylashtirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Bu hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini yuksaltirish imkonini beradi. Sanoat kuchlarini oqilona joylashtirish natijasida, mintaqaning YaHM hajmi oshadi, mahsulotlar xilma-xilligi ko'payishi evaziga xalqaro savdoni osonlashadi hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydigan dinamik va raqobatbardosh iqtisodiy kuchlarni ochib beradi. Hududni sanoatlashtirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, natijada turmush darajasi oshadi, ish o'rinlari ko'payadi va hosildorlik oshadi. Hosildorlik oshgani sayin mintaqada yanada ko'proq iqtisodiy imkoniyatlar ochiladi⁹.

Unumdorlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlaridagi innovatsiyalar, bo zordagi raqobat birinchidan to to'rtinchigacha bo'lgan barcha sanoat inqiloblarining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Ishlab chiqarish sanoatidagi mahsulotlar narxlariga tovarlar hajmi ko'paygani sayin, iqtisodiyotning barcha boshqa tarmoqlaridagi narxlarga nisbatan muntazam ravishda pasayish tendensiyasini namoyish etadi hamda bu milliy ishlab chiqarishning rivojlanishiga har tam onlama ta'sir qiladi. Narxlarning nisbiy pasayishi tendensiyasi sanoat sektorining markazida yotadigan muommolaridan biri hisoblanadi. Samaradorlikning doimiy o'sishi iste'molchilarga mahsulotlarni arzon narxlarda olib keladi, qo'shimcha talabni rag'batlantiradi, firmalarga ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalarda ichki talab muhim rol o'ynaydi va mintaqaning sanoat ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish ichki iste'mol talablarini qondirishni talab qiladi.

Jahon miqyosida sanoat rivojlanishining turli bosqichlarida bo'lgan mamlakatlarda ichki talab (xususiyy uy xo'jaliklari iste'molining yig'indisi, yalpi

⁹ Industrial development and economic growth: Implications for poverty reduction and income inequality. Matleena Kniivila. January 2007

kapitalni shakllantirish va davlat tashkilotlari tomonidan yakuniy iste'mol) ishlab chiqarishga bo'lgan yakuniy talabning asosiy omili hisoblanadi¹⁰.

Yangi tarmoqlarda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi narxlarni pasaytiradi hamda viloyat ishlab chiqaruvchilari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Oldingi olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan ma'lumki, mintaqada samarali faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish tarmoqlari birlashtirilsa, yirik sanoat birlashmalarining unumdorligi oshishi hisobiga hududda iqtisodiy rivojlanish ko'lami kengayadi. Ishlab chiqarish tarmoqlari birlashgan tarzda o'sib borayotgandek ko'rinadi: ishlab chiqarishning uzluksiz kengayishi bilimlar dinamikasini aks ettirgan holda samaradorlikni yanada yaxshilashga olib keladi. Ushbu kengayish tarmoq va umuman iqtisodiyotda mahsuldorlikning o'sishini tezlashtiradi. Tejamkorlik, shuningdek, texnologiya va tashkilotdagi yutuqlar natijasida mahsuldorlik oshganda, ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytiradi. Endilikda firmalar ishlab chiqarish samaradorligini past narxlarda iste'molchilarga yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lishadi, natijada arzon narxdagi mahsulotlar nisbatan past daromadli uy xo'jaliklari tomonidan sotib olish mumkin bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Ushbu mahsulotlarga talab katta bo'lib, yangi talab manbalariga xizmat ko'rsatadigan firmalar uchun yangi daromad imkoniyatlari yaratadi.

Sanoat iqtisodiyotning drayver tarmog'i sifatida rivojlanishi natijasida iqtisodiy o'sish yuqori bo'ladi. Yangi texnologiyalari imkoniyatlarini sanoat tarmoqlariga keng joriy qilish orqali ish joylari tashkil etish osonlashdi, tezroq ishlashga erishiladi, natijada korxonalarining ishlab chiqarish hajmi va daromadlarini oshiradi. Mintaqadagi mavjud ishchi kuchi bir qancha sabablarga ko'ra sanoat tarmoqlariga yo'naltirilishi mumkin. Mintaqada mavjud ishchi kuchini sanoat tarmoqlariga yo'naltirish ko'plab afzalliklarga ega. Bunda oldin ishlash xohishi yoki imkoniyati mavjud bo'lmagan mehnatga layoqatli yoshdagi

¹⁰ United Nations Industrial Development Organization, 2017. Industrial Development Report 2018. Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna

aholi vakillarining ham yangi sanoat tarmoqlarida bandligi ta'minlanishi evaziga mintaqa aholi daromadlari oshishiga sabab bo'ladi. Quyida sanoat ishlab chiqarishni rivojlanishining xorijiy tajribalarda sinovdan o'tgan boshqa ko'plab afzalliklari va uning mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirini ko'rib chiqamiz:

mintaqada amalga oshiriladigan istiqboli yuqori chora-tadbirlar natijasida sanoatning rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, tovar va xizmatlar bozorini kengaytirishga xizmat qilishi bilan ham mintaqa uchun manfaatlidir. Ushbu o'zgarishlar sanoat korxonalarining rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

mintaqada rivojlangan mamlakatlar tajribalari asosida sanoatlashish darajasining oshishi, sanoat markazlariga aholining intilishi tufayli urbanizatsiya jarayonlarini tezlashishiga olib keladi. Sanoat ishlab chiqarishni o'sishi aloqa va transport infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi, natijada aholi zichligi oshadi, ishchi kuchi kengayadi hamda turli xil taraqqiyotlarga olib keladi. Sanoat markazlari yaqinida ta'lim muassasalari, maktablar, banklar, sog'liqni saqlash muassasalari, restoranlar va boshqa qulayliklar yaratilgani mustahkam infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi. Sanoatlashgan hududda aholi va daromadlarning ko'payishi biznesning keng tarqalishi uchun qulay muhit yuzaga keltiradi, natijada mintaqada texnologiyalarga asoslangan, samaradorligi yuqori sanoat korxonalarini tashkil etilishiga olib keladi;


sanoat ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil qilishda yana bir muhim jihat – malakali xodim masalasi. Ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilish uchun sanoat korxonalarini malakali xodimlar tayyorlashga sarmoya kiritishadi, natijada sanoatlashtirishning rivojlanishi boshqa sohalarni qo'llab-quvvatlaydigan sarmoyalarga imkon beradi. Texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot, xizmatlar boshqa korxonalarini o'z takliflarini oshirishga undashi mumkin. Misol uchun, sutni qayta ishlash samaradorligini oshirish uchun sanoat yutuqlaridan foydalanadigan sut kom paniyasi yogurt, pishloq va muzqaymoq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yaqin atrofdagi korxonalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

sanoatlashtirishning rivojlanishi butun dunyo mintaqalarda asosiy hal etilishi

kerak bo'lgan muammolardan ishsizlik va kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi. Ham yirik ham kichik biznesda ko'proq ish o'rinlarini yaratish orqali sanoatlashtirish mehnatga layoqatli yoshdagi iqtisodiy faol bo'lmagan shaxslarni ishchi kuchiga kirishga undaydi;

sanoatlashtirish salohiyatli xodimlarni shakllantirish uchun kiritiladigan sar moyalar evaziga boshqa sohalarda ham salohiyatli kadrlar yetishib chiqishiga yor dam beradi, natijada mintaqada muayyan kasb va vazifalarni biladigan malakasi yuqori ishchilar sinfi paydo bo'ladi. Ushbu ixtisoslashuv xodimning daromadlarini ko'paytiradigan hamda samaradorlikni yanada oshiradigan mahsulotlar ishlab chiqarishga undaydi;

sanoatning rivojlanishi fan va texnika taraqqiyotini rag'batlantiradi. Sanoat korxonalarini o'z mahsulotlarini takomillashtirish yo'lida doim tadqiqotlar olib boradi va yangi innovatsiyalarni ishlab chiqaradi. Sanoatlashtirish tufayli biz atom fani, sun'iy yo'ldosh aloqasi va raketalar kabi sohalarda yutuqlarga erishdik¹¹.



1.1 – rasm. Mintaqa sanoatida ilmiy-texnika yutuqlarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlari¹²

Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnikalarning energiya samaradorligini

¹¹ Hardee County. Economic Development Council. Industrial-development-and-economic-growth. <https://hardeebusiness.com/resources/industrial-development-and-economic-growth>

¹² Muallif izlanishlari asosida tayyorlandi

oshirishda innovatsion yutuqlarni joriy qilish: Ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bir qatorda energiya tejamkorligini amalga oshirishning bir qancha tadoriklari mavjud, masalan, yashil energiya texnologiyalarini keng qo'llash, energiya uzatish xarajatlarini kamaytirishda texnika yutuqlaridan foydalanish ham da texnik jarayonlarning shaffofligini oshirish kabilar. Bu sanoat tarmoqlarining energiya xarajatlarini kamaytirish hamda uning ekologik oqibatlarini bilan kura shishga yordam beradi.

Ma'lumotlar tahlili: Ma'lumotlar tahlili zamonamizda barcha sohalarni yangi bosqichga chiqarishda muhim, uning sanoatda qo'llanilishi, yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib, jarayonlarni optimallashtirish hamda ishlab chiqarish sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi (1.1 – rasm).

Tadqiqotimizning asosiy yo'nalishi dunyoda bo'layotgan fan va texnika yutuqlarini sanoat ishlab chiqarishida qanday qo'llash mumkinligini aniqlashga xizmat qiladi. Sanoat tarmoqlarining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi hissasini yanada oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni o'zida mujassam etgan ilmiy asoslangan nazariy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ochib beradi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish umuman mintaqani rivojlantirishning asosiy maqsadi — aholining hayot sifatini yaxshilashga erishish omillaridan biridir. Mintaqada sanoatni rivojlantirishda sanoat siyosatini to'g'ri tashkil qilishda ham aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadi asosiy o'rinda turadi.

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan yana bir omil bu mehnat unumdorligi darajasini oshirishdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat unumdorligi darajasini oshirishning yagona regulyatori — mavjud ishlab chiqarish kuchlarni modernizatsiyalashga sarmoyalarni ko'paytirish hamda samarali boshqarish hisoblanadi. Shu bilan birga, har qanday mavzu bo'yicha loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilishda investorlar mavjud bo'lgan kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim tizimini o'rganib chiqadilar.

Mintaqada sanoat rivojlanishining yuqori sur'atlari tegishli energetik infratuzilmaning mavjudligi bilan ta'minlanishi kerak. Boshqaruv faoliyatini

iqtisodiyotning strategik ustuvor yo‘nalishlariga qaratish bilan bir qatorda energetika sohasini rivojlantirishga ham katta e‘tibor qaratish lozim. Shu o‘rinda bu yo‘nalish bo‘yicha mamlakatimizda hamda mintaqada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarni ta‘kidlab o‘tish zarur. 2022 – yilda Xorazm viloyati, Yangiariq tumanida gaz-porshenli elektr stansiyasi qurilishi natijasida 73 MVt quvvatga ega yangi elektr liniyasi ishga tushirildi, bu mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bilan birga energiya taklifini oshirib borish masalasiga e‘tibor qaratilayotganidan darak beradi.

Faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish tezligi mintaqqa iqtisodiyotining o‘sish salohiyatini belgilaydigan eng muhim omil hisoblanadi. Modernizatsiya natijalari nafaqat mintaqaviy korxonalarining raqobatbardoshligiga, balki butun mintaqaning investitsiya jozibadorligiga ham bog‘liqdir. Hozirda faoliyat yuritayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish sur‘ati demografik xatarlar ta‘sirini qoplaydigan hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki bu ortiqcha xodimlarning qisqarishini hamda ularning yangi ish joylariga qayta taqsimlanishini rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, mintaqada innovatsion siyosatni amalga oshirish sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi.

innovatsion loyihalarni amalga oshirishga resurslarni (moliyaviy, intellektual va boshqalar) faol yo‘naltirish;

yangidan kichik biznes faoliyatlarini yo‘lga qo‘yishga imkoniyatlar yaratish;

innovatsion korxonalarni shakllanishi uchun infratuzilma obyektlarini ilg‘or texnologiyalar yordamida rivojlantirish;

mintaqadagi sanoat tarmoqlaridagi hodimlarning malakasini oshirish;

biznes ehtiyojlarini mos davrda qondira oladigan yangi texnologiyalarni yetkazib berish zanjirini yaxshilash;

Aholining tadbirkorlik faolligi va tavakkalchilikka moyilligi innovatsiyalar zonasida yuqori texnologiyali korxonalarni tashkil etish hamda rivojlantirish uchun muhim shartdir. Kichik biznesni rivojlantirish zamonaviylashtirilgan korxonalarda ishdan bo‘shatilgan ishchilarning bandligini va investitsiyalarni jalb qilish

imkoniyatlari cheklangan joylarda aholini ish bilan ta'minlash borasidagi kerakli shart - sharoitlarni ta'minlaydi.

Mintaqalar tadbirkorlik subyektlari va aholi daromadlarining o'sishidan kelib chiqqan holda ichki talabni oshirishdan manfaatdor¹³. Butun hududiy ishlab chiqarish va uning alohida kichik biznes subyektlari samaradorligini oshirish hududiy ichki talabning oshishiga olib keladi.

1.2 Mintaqani iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etishning ahamiyati

Sanoat ishlab chiqarishini samarali tashkil etish hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishi ta'minlashga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biri sanaladi. Hududning iqtisodiy rivojlanishi va sanoat ishlab chiqarishi orqali aholi bandligini ta'minlash mintaqa aholisining hayot sifatini yaxshilash barqaror rivojlanishning asosi bo'lishi mumkin. Barqaror iqtisodiy o'sish orqali hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshib bormoqda. Hududiy korxonalariga innovatsiyalar uchun kapital va resurslardan foydalanish imkoniyatini berish bilan birga, tashkil etilgan sanoat ishlab chiqarish tizimi ularning ushbu resurslardan foydalanishini yengillashtiradi. Umuman olganda, sanoat ishlab chiqarish kuchlarining strategik hamda oqilona joylashuvi hududiy korxonalarining o'z mahsulot va xizmatlarini sotish bozorlariga zaruriy kirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Ichki bozorda talabning yuqoriligi mintaqa barqaror rivojlanishini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ichki bozordagi talab mintaqa miqyosdagi iqtisodiyotga ta'sir qiladi, innovatsiyalarning shakllanishi va tarqalishiga xizmat qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy faoliyatning moddiy asosi resurslar cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy cheklovi korxonalar o'rtasida raqobatni keltirib chiqaradigan resurslarning kamligidir. Mintaqaviy

¹³ Экономическая теория : под ред. академ. В.И. Видяпина-М.: ИФРА-М, 2001.

iqtisodiyotda resurslarning bunday tanqisligi korxonalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar kabi xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z ehtiyojlarini qondirishda cheklangan resurslar uchun kurashadigan raqobat muhitini yaratadi. Mintaqa biznes muhiti sifatida Porter¹⁴ning mashhur rombida mahalliy sharoitlar to‘plami bilan ifodalanadi, ular orasida asosiylari: yakuniy mahsulotga talabchan iste’molchilar, kuchli raqobatchilar, resurslar yetkazib beruvchilar va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar majmuasi hisoblanadi.

Fridman¹⁵ va Sassen¹⁶ kabi iqtisodchi olimlarning dastlabki olib borgan izlanishlaridan boshlab dunyo shaharlari global iqtisodiyotga eng katta iqtisodiy naf keltiradigan mintaqalar sifatida paydo bo‘la boshladi. Boshqarish va buyruq berish funksiyasi — bu jahon miqyosidagi shaharlarni shakllantirishning mustahkam tarkibiy qismi bo‘lib, u ba’zi dominant transmilliy kompaniyalarning korporativ shtab-kvartirasi hamda rivojlangan ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko‘rsatish sohasidagi asosiy tugunlar bilan chambarchas bog‘liqdir.


Barqaror rivojlanish insoniyatning taraqqiyotga erishish sabablarini o‘rganishda muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Komissiyasi (CSD) barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlari yo‘nalishlarini yaratgan, ular 15 ta maqsad va 140 ga yaqin ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, 2001 yilda barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik hamda institutsional jihatlarini qamrab olgan. 2016 yilga kelib maqsadlar 17 taga yetkazilib ular asosiy uchta jihat iqtisodiy, ijtimoiy barqarorlik va atrof-muhitning muhofazasi yo‘nalishlariga asosiy urg‘u berilishi muhimligi belgilandi. Yangi o‘zgarishlardan so‘ng, tadqiqotchilar mintaqa barqarorligini tavsiflash yoki o‘lchash uchun turli xil indekslarni qo‘llashga

¹⁴ Майкл Портер. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран. Издательство-Альпина Паблицер, 2017 г. 947 с.

¹⁵ Friedmann, J.; Wolff, G. World city formation: An agenda for research and action. Int. J. Urban Reg. Res. October 2009

¹⁶ Sassen, S. The Global City: New York, London, Tokyo; Princeton University Press: Princeton, NJ, USA, 2013

harakat qilishdi. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o‘lchovlarini aniqlash uchun to‘qqizta asosiy ko‘rsatkichlarini taqqoslash mumkin. Hozirgi vaqtda global iqtisodiyotda muhim muommolardan atrof-muhitning ifloslanishi, kambag‘allik darajasining ortishi, jamiyatning keskin iqtisodiy tabaqalashuvi kabi muommolardan tashqari iqtisodiy inqiroz kabi xavflarga duch kelinmoqda. Barqaror iqtisodiy rivojlanish borasida so‘z ketganda ana shunday xavflarni kamaytirish va iqtisodiy hayotning xavfsizligini oshirish qobiliyatlarini ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi. Xususan, globallashuv va urbanizatsiya ta‘sirida bo‘lgan dunyo mintaqalari uchun barqaror iqtisodiy rivojlanish ko‘proq e‘tiborga loyiqdir¹⁷.



1.2 - rasm. Barqarorlikning ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlar va ularni tashkil etuvchi ayrim omillar¹⁸

Sanoat ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil qilish yuqoridagi masalalarni hal qilishda hamda barqarorlikni ta‘minlashda har qanday mintaqaning o‘shiga katta ta‘sir ko‘rsatishi aniqlandi, chunki ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini ta‘minot zanjiri boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalashga qaratilgan.

¹⁷ The Role of Manufacturing in Sustainable Economic. Development: A Case of Guangzhou, China. August 2018

¹⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

Ishlab chiqarish samaradorligi har qanday hududning rivojlanishi asosiy omildir. Dunyo mamlakatlarida tashkilotlar o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish hamda shu bilan birga ijtimoiy - iqtisodiy jihatlarni saqlab qolish uchun allaqachon katta bosimga duchor bo'lmoqdalar. Barqaror ishlab chiqarish tashabbuslarini amalga oshirish zarurati, qayta tiklanmaydigan resurslar iste'molining tobora ortib borishi, shuningdek, chiqindilarning ko'payishi hamda katta miqyosda ifloslanish tufayli kuchayib bormoqda. Tabiiy resurslarning oshib borayotgan narxi hamda tanqisligi bilan atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini yurituvchilarning ko'proq e'tiborini tortmoqda. Dunyoda atrof-muhitga zarar yetkazadigan asosiy sektorlar: sanoat, transport, turar-joy va tijorat sektorlari hisoblanadi. Havoga ajraladigan CO₂ning taxminan uchdan bir qismi ishlab chiqarish asosiy qismi bo'lgan sanoat sektoriga to'g'ri keladi.

Barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari iqtisodiyot xavfsizlikni ta'minlash uchun yondashuvlarni taklif qiladi. Iqtisodiy rentabellik, salomatlik, ekologik masalalar kabi an'anaviy ko'rsatkichlarni mustaqil ravishda o'lchaydi. Barqarorlik ko'rsatkichlari barqarorlikning uch jihati va ularga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, 1.2-rasmda ayni munosabatlar tasvirlangan.

Masalan, salomatlik bilan bog'liq muammolar ishchilarning unumdorligiga va tibbiy sug'urta xarajatlariga ta'sir qiladi. Sanoat rivojlanishiga hissa qo'shish maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini baholash va yaxshilash uchun zarur bo'lgan o'lchov fanlari metodologiyalarini hamda tegishli standartlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamonaviy raqobat maydoniga muvaffaqiyatli ishlab chiqarish yangi texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. Barqaror ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy qadamlari bo'yicha dunyo olimlari va mutaxassislarida keng konsensus mavjud. Birinchi qadam ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Ekologik qoidalarga rioya qilish hamda zaharli moddalarni kamaytirishni ham o'z ichiga oladi. Keyingi bosqich barqaror rivojlanish, yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish, moddiy va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha bilimlarni egallashni o'z ichiga oladi. Bu chiqindilar va zaharli moddalarni kamaytirish orqali

ham kirish xarajatlarini, ham ishlab chiqarish xarajatlarini tejash imkonini beradi. Tashkiliy jihatdan bu ancha qiyin qadam bo'lishi mumkin. Ushbu bosqichlarga xizmat qilish uchun keng ko'lamli tashkilotlar, maslahat guruhlari va professional mutaxassislar faoliyati talab qilinadi.

Barqaror ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha jahon mamlakatlari tajribasida bir qancha tavsiya hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan va chuqur ilmiy o'rganishlar olib borilgan. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti barqaror sanoat ishlab chiqarishini tezlashtirishga qaratilgan tizimni ishlab chiqdi. Bu doirada bilimlarni tarqatish, mahsulotlar va ishlab chiqarish jarayonlarini baholash hamda eko-innovatsiyalarni rag'batlantirish kiradi. Bundan tashqari, u global ekologik muammolarni hal qilish uchun yangi texnologik va tizimli yechimlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Uning maqsadi sanoat korxonalariga ishlab chiqarish resurslarini samarali boshqarishda hamda keyingi ishlab chiqarish bosqichlarini maqsadli tashkil etishda yordam berishdan iborat. 1.1-jadvalning chap tomonida ko'rsatilgan resurslar ishlab chiqarish korxonalariga kiruvchi resurslarining to'rtta asosiy toifasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Kiruvchi resurslar o'ng tomonida ko'rsatilgan tegishli natijalarga olib keladi. Resurslarning quyidagi tarzda keltirilishi ishlab chiqarish jarayonida qaysi resurslar qanday natijalarga olib kelishini ifodalash, ishlab chiqarish kuchlarini to'g'ri tashkil qilish hamda bu orqali resurslar ahamiyatini to'laqonli baholashga xizmat qilishi ko'zda tutilgan.

Mintaqada ishlab chiqarishni tashkil qilishda barqarorlikni baholashning muhim jihati hamda uni amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar barqarorlik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Ko'rsatkichlar biror narsaning holatini, muammolarni hal qilish uchun qabul qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni aniqlashga yordam beradi.

Sanoat ishlab chiqarishning resurslari¹⁹

Kiruvchi resurslar	Chiquvchi resurslar
Iqtisodiy resurslar	Boylik, foyda
Inson resurslari	Ta'lim, o'qitish, ko'nikmalar
Tabiiy va notabiiy resurslar	Mahsulotlar, tovarlar
Axborot resurslari	Bilim, nou-xau

Barqarorlik ko'rsatkichlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik taraqqiyotning an'anaviy ko'rsatkichlaridan farq qiladi. Mintaqada sanoatning rivojlanishi barqarorlikning barcha ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi, chunki sanoat ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik uchun juda muhimdir.

“Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismidir, chunki iqtisodiyot mamlakat, mintaqalar, jamiyat, shaxs hayotining asosidir, umuman olganda mamlakatni barqaror rivojlantirishni anglatadi”²⁰. Har qanday mamlakatning milliy xavfsizligi uning potentsiali, o'ziga xos xususiyatlari, mamlakatning geosiyosiy mavqeyi, xalqaro aloqalari xususiyati bilan tavsiflanadi. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi davlatning milliy xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dunyoda o'zini o'zi ta'minlaydigan davlatlar mavjud emas. Ularning ba'zilari katta tabiiy resurslarga ega, boshqalari innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqmoqdalar.

Mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiyoti va xavfsizligi juda murakkab tizimlar bo'lib, ular milliy xavfsizlikning boshqa ko'plab tuzilmalari va tarkibiy qismlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.. Mintaqaviy iqtisodiyotga tashqi va ichki tahdid turlari mavjud bo'lmaganda, davlat uchun mutlaq iqtisodiy

¹⁹ Барқарор ишлаб чиқариш ва эко-инноватсиялар: асослар, амалиётлар ва ўлчовлар. Синтез ҳисоботи; Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ОЕСД): Париж, Франция, 2009 йил

²⁰ Journal of security and sustainability issues ISSN 2029-7017 print/ISSN 2029-7025 online 2017 December Volume 7 Number 2

xavfsizlik mavjud emas. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko'p jihatdan uning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, sanoat va qishloq xo'jaligi imkoniyatlari, ijtimoiy-demografik rivojlanishi va mahalliy boshqaruv samaradorligi kabi omillar bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning bosh va asosiy maqsadi ham mamlakatning, ham tekshirilayotgan muayyan mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini kafolatlash mexanizmini aniqlashdan iborat. Bunga sanoatning asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali erishiladi. Ushbu tadqiqot sanoat ishlab chiqarishi salohiyatini mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ta'kidlaydi. Bu borada tadqiqot oldiga qo'ygan vazifalaridan biri mintaqani qamrab olgan keng qamrovli tahlilni taqdim etish, mintaqaviy ishlab chiqarish bo'yicha fundamental nazariy istiqbollarni barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun umumiy asoslar bilan birlashtirishdir.

Ishlab chiqarishning jahon mamlakatlari mintaqalaridagi roli nuqtai nazaridan uchta o'lchov mavjud: tarixiy o'lchov, mintaqaviy miqyos va global miqyos²¹. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish nafaqat dunyo mintaqalarining rivojlanish jarayonida, balki dunyoni zamonaviy sanoatlashtirish bilan bog'lashda ham muhim rol o'ynaydi. Hech bir davlat yoki mintaqa iqtisodiy tuzilishini o'zgartirish va iqtisodiy dinamikasini oshirish uchun maqsadli hamda tanlangan hukumat siyosatidan foydalanmasdan keng tarqalgan kambag'allikdan postindustrial boylikkacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'ta olmaydi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish jarayoni texnologik o'zgarishlar hamda mintaqaviy siyosatga bog'liq holda kechadi. Texnologiyalar dunyo miqyosida yuqori konsentratsiyani davom ettirayotganligi rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy o'sish sabablarini o'rganishda duch keladigan masalalardan hisoblanmoqda, shu bilan bir qatorda texnologiyalar mintaqalarga turlicha ta'sir qilayotganligi mintaqaviy siyosatning ham ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatib kelmoqda. Texnologik bo'shliqni bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlar

²¹ The 17 Sustainable Development Goals (SDGs) of the 2030 Agenda for Sustainable Development; Commission on Sustainable Development: New York, NY, USA, 2016

muvaffaqiyat qozonishda davom etsa, sanoat tarmoqlarida texnologik yutuqlarni qo'llashda ortda qolayotgan mintaqalardagi texnologik kechikishning zarari kamayadi.

Iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish tuzilmalarining texnologik jihatdan o'zgarishi orasida bir-biriga bog'liqligini ifodalovchi bir qator sabablar mavjud. Iqtisodiy rivojlanish borasidagi eng uzoq tarixga ega bo'lgan birinchi tushuntirish shundan iboratki, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari juda o'zgaruvchan iqtisodiyotlarga texnik taraqqiyotni yaratish va uzatish sababli iqtisodiyotning samaradorligini oshirish uchun turli xil imkoniyatlarni yaratadi. Ya'ni ishlab chiqarish jarayonida topilgan yangiliklar o'zining taraqqiy etib borish bosqichlari orqali milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi o'zgarishlarga, yangiliklarga olib boradi. Ishlab chiqarish – ilk bosqichlarida insoniyat tomonidan tabiiy boyliklarni o'z ehtiyojiga moslashtirish orqali mahsulot yaratish jarayonini tashkil etishdan iborat bo'lgan davrlarda ham yangiliklar insonlar turmush tarzining boshqa jihatlariga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib kelgan. Sanoat ishlab chiqarish jarayonida xomashyodan tayyor mahsulot yaratiladi. Bu jarayonda u takomillashib boradi va texnologik tus oladi. Ayni shu holat ishlab chiqarishga bo'lgan turli yondashuvlarga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarishni birlamchi faoliyat sifatida ikki turga ajratadi. Ishlab chiqarishning ijtimoiy tashkil etish shakllari vujudga kelishida jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish jarayonidagi yaratuvchanlik qobiliyatlarining ahamiyat yuqori bo'lgan. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Turli ishlab chiqarish kuchlarini bir joyga yig'ish hamda yagona kompleksda amalga oshirish orqali maksimal samaradorlikka erishishga intilish kombinatlashuv shaklini tashkil qiladi (1.3 – rasm). Ishlab chiqarish bosqichlari va jarayonlari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilishi mahsulot sifatini oshiradi, korxonalar o'rtasidagi hamkorlik innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning rivojlanishiga turtki bo'ladi, ixtisoslashgan korxonalar o'z sohasida chuqur bilim va tajriba yig'ishga imkon beradi.



1.3 - rasm. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari²²

Sanoatlashtirish texnologiyalarni joriy qilish hamda boshqa ilmiy-texnik yangiliklarni rivojlantirish uchun eng yaxshi omil ekanligi ishlab chiqarishning taraqqiyot bosqichlaridan ma'lumdir. Qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati kabi ayrim tarmoqlar mahsuldorlikning sezilarli o'sishiga olib kelishi mumkin. Biroq, agrar ishlab chiqaruvchi kuchlar to'g'ri joylashtirilmasa, hosildorlikning bu o'sishi boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga tarqalishda samarasiz bo'ladi. Ishlab chiqarish kuchlarning joylashishi har bir mintaqada ularning tabiiy-iqlim sharoiti, aholi tarkibi, iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslarga boyligi hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda turlicha holatda bo'lishi mumkin. Biroq, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish aniq qonuniyatlarga asoslanib, umumiy maqsadni ko'zlaganligi sababli, ularning nazariy asoslarida umumiy xususiyatlar mavjuddir. Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik turlarga bo'lish mumkin. Statik nazariyalar 19-asr boshlarida, dinamik nazariyalar esa taxminan bir asr o'tib, 20-asr boshida paydo bo'la boshlagan.


Hozirgi vaqtda klassik standart nazariyalar deb ataladigan dastlabki joylashtirish nazariyalari Y.G. va I.Tyunen, V. Launhard va A. Veber nomlari bilan bog'liq. Ushbu nazariyalar quyidagi asosiy xususiyatlarni namoyon etadi:

alohida tanlab olingan birol mintaqaning qishloq xo'jaligi yoki sanoat

²² O'rganilgan ilmiy manbalar yordamida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan.

korxonasining tatqiq etilishi;

barcha joylashuv omillari bo'yicha ma'lumot to'plash, ularni birlashtirish va korxonani (ishlab chiqarish obyektining joylashuvi) qurish uchun maqbul maydonga nisbatan aniq javob olish mumkinligini ko'rsatadi (1.4 - rasm).



1.4 - rasm. Sanoatni oqilona joylashtirish bo'yicha nemis olimlarining qarashlari²³

Y.G. I. Tyunen tovar ishlab chiqarishni tartibga soluvchi obyektiv qonunlar mavjudligini aniqlashda kashshof olim sifatida e'tirof etilgan, uning dastlabki ishi 1826 yilga to'g'ri keladi. Tyunenning modellaridan foydalanib, qishloq xo'jaligi bozorida sanoat tovarlari yetkazib berish markazlarini joylashuvi, ixtisoslashuvi va qishloq xo'jaligi amaliyotini o'zlashtirishi asosida shaharlardan masofaga qarab tashkil etish g'oyasini ishlab chiqdi. I. Tyunen modelida transport xarajatlari joylashishni aniqlashning asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. U qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishni tartibga soluvchi tamoyillarni ochib, fan sohasiga iqtisodiy makon tushunchasini kiritib, fazoviy iqtisodiy tashkil etishning murakkabliklariga kompleks, tizimli yondashdi.

I. Tyunen o'zining ilmiy kontsepsiyasini mavhum modeldan foydalangan

²³ Muallif tamonidan manbalardan foydalangan holda tuzilgan.

holda shakllantirdi, unda alohida va boshqa davlatlarga aloqador bo‘lmagan yagona shahar fokus nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi. U mamlakatda yagona bozor yoki markazni ifodalovchi faqat bitta shahar mavjudligini ta’kidlaydi. Bu shahar atrofida fermer xo‘jaliklarini shakllantirish, birinchi navbatda, transport xarajatlari, mahsulotning og‘irligi, sifati va tashish masofasi bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish markazga intilishining iqtisodiy samaradorligi qishloq xo‘jaligi faoliyatining yaqinligini belgilaydi. Bu jarayonlar qanchalik arzon bo‘lsa, shunchalik yaqin aksincha, qanchalik qimmat bo‘lsa, ular shunchalik uzoqda joylashgan bo‘ladi. Ushbu tartibga solish ilmiy adabiyotlarda “Tyunen xalqalari” deb ataladigan shahar atrofida aniq konsentrik doiralarga olib keladi. Misol uchun, eng ichki xalqa yuqori mahsuldor shahar atrofi qishloq xo‘jaligi bilan ajralib turadi, undan keyin o‘rmon xo‘jaligiga bag‘ishlangan xalqa, so‘ngra meva va urug‘chilik uchun halqa joylashadi. Umuman olganda, Tyunen modelida aniqlangan oltita halqa mavjud.

I.Tyunen nazariyasini ma’lum darajada mavhum deb hisoblash mumkin, ayniqsa, hech bir xalq yakka holda rivojlanishga erisha olmaydi. Bu, ayniqsa, mamlakatlar global iqtisodiy tizim doirasida bir-biriga ijtimoiy-iqtisodiy bog‘langan zamonaviy globallashtirish va iqtisodiy baynalmilallashtirish davrida to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, har qanday mamlakatda odatda bir xil bo‘lmagan, o‘ziga xos tabiiy sharoitlarga ega bo‘lgan bir nechta shaharlar mavjud. Shunga qaramay, Tyunenning nazariy asoslari, xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida o‘z dolzarbligini saqlab qoldi. Uning g‘oyalari bugunning o‘zaro bog‘langan dunyosida iqtisodiy geografik munosabatlarni tushunishda muhim nazariy ahamiyatga ega.

A.Veber sanoat korxonasi joylashuvining optimal (eng qulay) nuqtasini uning iqtisodiy foydadan kelib chiqqan holda belgilaydi. Buning uchun u xomashyo, yoqilg‘i, ishchi kuchi va transport omillariga urg‘u beradi. Keyinchalik xomashyo va yoqilg‘i xarajatlari ham transport omiliga kiritiladi hamda qolgan barcha shart - sharoitlarni alohida aglomeratsiya omilida umumlashtiradi. Natijada sanoat shtandorti, ya’ni joylashuvi ishchi kuchi, transport va aglomeratsiya omillari

bilan belgilanadi. Shunday qilib, bu olim fanga sanoat korxonasini joylashtirishining ko'p omillik tahliliga asos soladi va buning uchun u matematik usuldan keng foydalandi.

A.Veber ham faqat alohida sanoat korxonasi misolida (pivo zavodi) o'zining ilmiy tasavvurlarini yaratgan. Demak, har ikkisida ham ma'lum abstrakt sharoitlar inobatga olingan. Shu bilan birga yuqoridagi olimlarning ilmiy g'oyalari ishlab chiqarishning hududiy mujassamlashuvi va uning notekis joylashuvi rivojlanishiga qaratilgan edi.

A.Veberning sanoat shtandorti o'z asosiy mohiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, keyingi yillarda sanoat joylashuvining shakllari yanada murakkablashib, takomillashib bordi. Jumladan, bu borada ekologik omilning ta'siri kuchaydi, ishchi kuchining miqdor jihatlari emas, uning sifat ko'rsatkichlari muhimroq bo'lib qoldi. Sanoat ishlab chiqarish mehnat talablikdan ko'ra ko'proq ilm talab, mablag' talablikka o'zgardi. Shuningdek, transport infrastrukturasidagi yangiliklar konveyer usulining o'rniga ayni bir mahsulotning turli xillarini ishlab chiqarish (postfordizm), miqdor iqtisodiyotidan sifat yoki turli xillik iqtisodiyotiga o'tish, fan-texnika taraqqiyoti sanoatni hududiy tashkil qilish orqali global iqtisodiyotda sezilarli yuksalish ro'y berdi.

Mintaqaviy iqtisodiyotda sanoatni hududiy tashkil qilish shakllari hududni alohida o'rganish orqali yanada aniqroq ko'riladi. Sanoatni rayonlashtirish yoki hududiy tashkil qilishning birlamchi elementi sanoat korxonasidir. Aynan shu darajada ishlab chiqarishning ijtimoiy hamda hududiy tashkil etish shakli ya'ni mujassamlashuvi birgalikda namoyon bo'ladi.

Sanoat ishlab chiqarishining hududiy (shahar) integratsiyasi yuqori darajada bo'lsa va muayyan hududda ko'plab sanoat korxonalari tashkil etilsa, o'sha hudud sanoat markaziga aylanadi. Agar bu markaz ko'pincha poytaxt yoki port shahar bo'lgan faqat bitta hududdan iborat bo'lsa, bu shahar ichidagi milliy yoki mintaqaviy iqtisodiyotning iqtisodiy tuzilishi hamda hududiy tarkibi bir o'lchovli bo'ladi. Bu shaharda iqtisodiy diversifikatsiyaning yetishmasligiga olib kelishi

mumkin, natijada shahar iqtisodiyotini u yerda mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlariga juda bog'liq qilib qo'yadi.

Fransuz iqtisodchisi Fransua Perru o'sish nuqtalari, markazlar va qutblar tushunchalarini kiritdi. Bu g'oyalar, ayniqsa, katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega, ammo iqtisodiy tuzilmasi rivojlanmagan hududlarda samarali hisoblanadi. Perru nazariyalari notekis rivojlanish va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani ham nazarda tutadi. F.Perruning o'sish qutblari g'oyasi avstriyalik iqtisodchi, keyinchalik Garvard universitetining professori Yozef Shumpeterning 1911 - yilda yozgan. "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida bayon qilingan tadbirkorlik asoslari bilan biroz hamohangdir. U, shuningdek, shved olimi T.Xagerstrand (1953 y.) bilan birgalikda yangiliklar diffuziyasi, ya'ni tarqalishi to'g'risida ilmiy ish olib borgan. F.Perruning xizmati avvalambor shundaki, u ushbu g'oyani hudud jihatidan talqin qilgan hamda hududlarning ayni bir vaqtning o'zida rivojlanish bilan birga mintaqalarni mutlaq tenglashtirish g'oyasidan voz kechgan.

V.Launxard sanoat korxonalarini joylashtirishda transportning hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Launhardning fikriga ko'ra, sanoat korxonalarini uchun maqbul joyni tanlash xomashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlar harakati bilan bog'liq transport xarajatlarini minimallashtirishdan iborat. Ushbu transport xarajatlarini kamaytirishga e'tibor qaratish orqali korxonalar yanada samarali va tejamkor operatsiyalarga erishishlari mumkin.

Sanoat kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bo'yicha V. Kristaller "Markaziy joy nazariyasi"ni ishlab chiqqani bilan mashhur. Kristaller qat'iy matematik hisob-kitoblar orqali hududiy ierarxiyalar, geometrik progressiya bo'yicha muntazam ravishda bir darajadan ikkinchi darajaga o'tishini ko'rsatdi. Masalan, kattaroq mintaqa bir nechta kichik tumanlardan iborat bo'lib, bu tumanlar ichida ko'plab qishloq jamoalari yig'inlari mavjud. Har bir qishloqqa xos tovar va xizmatlar ana shu markaziy joylarga qaratilgan. Kristaller nazariyasi aholi punktlarini yaxlit guruhda tashkil etishning optimal tizimini sinchkovlik bilan belgilaydi. Ushbu nazariya bozor mintaqalarining eng samarali tuzilmalarini,

tovarlar va xizmatlar harakatining mantiqiy yo‘llarini aniqlash va mintaqa ichidagi aholi punktlari uchun samarali ma’muriy tuzilmani shakllantirish imkonini beradi.

So‘nggi o‘n yilliklarda hududiy nazariyalarni, jumladan, hududiy siyosatga oid nazariyalarni o‘rganishga katta e’tibor berilmadi. Mintaqaviy o‘sish nazariyalarini o‘rganishda birinchi navbatda ikkita yondashuv mavjud. Birinchi yondashuv iqtisodiy o‘sish modellarini muayyan hududlarga tatbiq etishni, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini yoritib beruvchi modellarga o‘xshashlikni o‘z ichiga oladi. Ushbu taqqoslash mintaqaviy iqtisodiyotlarning qanday rivojlanishini tushunishga yordam beradi. Ikkinchi yondashuv alohida firmalarning xatti-harakatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Muayyan korxonalar faoliyatini o‘rganish orqali mavjud muammolarni tizimli ravishda aniqlash hamda samarali yechimlarni izlash mumkin bo‘ladi. Ushbu tahlil mintaqaviy iqtisodiy dinamikani tushunish va o‘sishni rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Launhardning transport xarajatlarini minimallashtirishga urg‘u berishi hamda Kristallerning Markaziy joy nazariyasidan kelib chiqadigan ushbu istiqbollari mintaqaviy rivojlanishni kengroq tushunishga sezilarli hissa qo‘shadi. Ular sanoatni joylashtirishni optimallashtirish, xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash hamda samarali ma’muriy va bozor tuzilmalari orqali muvozanatli mintaqaviy o‘sishni rag‘batlantirishni maqsad qilgan siyosatchilar, shaharsozlar va biznes rahbarlari uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Yuqoridagi nazariyalari sanoat joylarini aniqlashda resurslar mavjudligi muhimligini ta’kidlaydi. Minerallar, suv yoki qayta tiklanadigan energiya manbalari kabi tabiiy resurslarga boy hududlar ko‘pincha ushbu manbalarga tayanadigan sanoatlarni jalb qiladi. Barqaror rivojlanish ushbu resurslarning tugashi yoki atrof-muhitning buzilishining oldini olish, kelajak avlodlar uchun mavjudligini ta’minlash uchun ularni ehtiyotkorlik bilan boshqarishni talab qiladi. Transport xarajatlari sanoatni joylashtirish qarorida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Bu nazariya klaster tizimiga o‘tgan sanoat zonalarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa transport infratuzilmasi qanchalik samarali boshqarilishiga qarab ekologik muammolarni yengillashtirishi mumkin. Barqaror

rivojlanish chiqindilarni kamaytirish hamda atrof-muhitga zararli ta'sirni yumshatish uchun yashil transport infratuzilmasiga investitsiyalarni talab qiladi. Sanoat kuchlarini joylashtirishda bozor talabining muhimligini ta'kidlagan nazariya xarajatlarini minimallashtirish uchun sanoat tarmoqlari yirik iste'mol bozorlariga kirish imkoniga ega bo'lgan hududlarda klasterlar paydo bo'ladi. Barqaror rivojlanish doirasida shaharlararo transportga qaramlikni kamaytirish va hududlarning o'zini-o'zi ta'minlash darajasini oshirish maqsadida kichik biznes qo'llab-quvvatlanib, mahalliy bozorlar rivojlantirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi nazariyalari mintaqalar ichida barqaror rivojlanishga erishish uchun qimmatli tushuncha va bilimlarni beradi. Resurslar mavjudligi, transport xarajatlari va bozor talabiga ko'ra sanoatning taqsimlanishini bilish orqali siyosatchilar barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, tabiiy resurslarni saqlash hamda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish rejalarini ishlab chiqishlari mumkin.

1.3 Turli mintaqaviy sharoitlarda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishning global misollari va ilg'or xorijiy tajribalar

Iqtisodiy siyosatda bugungi kunda har bir hudud iqtisodiyotini chuqur o'rganish, sanoat tarmoqlaridagi innovatsiya va yangiliklarni mahalliy sharoitga tez moslashtirish, boshqa hududlarga ham tatbiq etish muhimligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan dunyoda hozirda ishlab chiqarish jarayonida yanada ijodiy tuzilmaviy xususiyatlarni jalb qilish hamda yangi, istiqbolli korxonalarining paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi yangilanishlarni o'rganish muammolariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shunday sharoitda barcha mintaqalar ichki bozorida foyda ko'rishini va texnologik o'zgarishlarga yaxshiroq moslashishini ta'minlashi kerak. Bunda mintaqalarda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish hamda uni zamon talablariga mos shakllantirish vazifasi ham dolzarb bo'lib qoladi. Xususan, muvaffaqiyatli sanoat o'tishiga erishish ilg'or ishlab chiqarishga, shuningdek tadqiqot va yangiliklarga katta mablag' sarflashni, xodimlarning ko'nikmalari va iste'dodlarini rivojlantirishni talab qiladi.

Xorijiy mamlakatlar mintaqalarida sanoatni rivojlantirish tajribasini o'rganganda Sharqiy Osiyo mamlakatlar tajribasi butun dunyoda tan olingan. Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining sanoat va texnologik rivojlanishi ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida resurslarni taqsimlash qobiliyatiga asoslangan. Iqtisodiy ko'rsatkichlardagi farqlarga qaramay, Sharqiy Osiyo, shu jumladan Xitoy so'nggi qirq yil ichida juda kambag'allikdan, yuqori iqtisodiy o'sish va daromadlarga erishishga, eng asosiysi ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirishga erishdi. Akademiklar va sotsiologlar oldida katta savol — bu qisqa vaqt ichida bu muvaffaqiyatga qanday erishildi?

Xitoy. Xitoy iqtisodiy islohotlari yondashuvi boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan farq qildi. Uning islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi va har doim hukumat nazorati ostida rivojlanib bordi. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi kabi xalqaro moliya institutlari tomonidan boshqarilmadi. Xitoy o'tgan asrning so'ngi choraklarida asta-sekin qishloqdagi uy xo'jaliklariga ko'proq imtiyozlar va erkinliklar bera boshladi. 1980-yillar davomida Xitoy ichki sanoatlashtirishga e'tibor qaratdi va bunga erishish uchun davlat aralashuvi bir necha o'n yillar ilgari Yaponiya va Janubiy Koreya tomonidan qabul qilinganidek, shartli boshqarildi. Buning natijasida Xitoy hukumati sanoat sohasidagi qo'shma korxonalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun bir necha qirg'oq hududlarini ochib berdi hamda bu yerda texnologiya, malaka, nou-xau va eksportni ko'paytirishni rag'batlantirishga qaratilgan markazlar tashkil qildi. Shuningdek, fermer xo'jaligidagi islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, hosildorlikni oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylarda qayta ishlaydigan sanoat korxonalarini rivojlantirish mumkin bo'ldi. Hazvan ta'kidlaganidek: "qishloq xo'jaligi sohasidagi unumdorlik va keyinchalik ishchi kuchining nodavlat sektoriga qayta taqsimlanishi qishloq iqtisodiyotini rivojlantirdi. Biroq erishilgan unumdorlik darajasi 90-yillar davomida JOU (jami omil unumdorligi) stavkalari 4 - 5 foiz orasida o'zgarmas darajada saqlanib qola boshladi. Qishloq sektori samaradorlikka erishishdan oldin iqtisodiyotga shahar


sektoriga qaraganda ko‘proq hissa qo‘shdi”²⁴.

Xitoyning arzon hamda mo‘l-ko‘l xodimlari, ishchilari yuqori ichki moslashish darajalari bilan bir qatorda 1990-yillarning boshlarida Xitoy rivojlanayotgan dunyoda eng katta xorijiy kapital oqimlaridan biriga aylandi. Chet eldan mablag‘lar dastlab iqtisodiyotga xorijiy ishtirokchilar orqali kapital to‘plashdan foyda olishga imkon berdi. Shu bilan yuqori texnologiyalarni o‘zlashtirdi hamda xorijiy texnologiyalar va boshqaruv ko‘nikmalarini mujassamlashtirdi. Bu esa tez sur‘atlarda o‘shishga olib keldi. Natijada, Xitoy hozirda sanoat mahsulotlarining eng yirik eksportchilaridan biri bo‘lib, butun mamlakat bo‘ylab sanoat ishlab chiqarish tez sur‘atlar bilan o‘shib bormoqda. Ushbu siyosatlar amalda har bir mamlakatda farq qiladi. So‘nggi paytlarda Xitoyda iqtisodiy imkoniyatlarni yirik sanoat korxonalari hisobiga kengaytirish ustuvor yo‘nalishga aylandi, bu jarayonda davlat siyosati yirik davlat korxonalarini tashkil etish orqali kam daromadli xususiy kompaniyalarni qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor qaratadi.

Savdoni erkinlashtirish natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qirg‘oq bo‘yi mintaqalariga yo‘naltirilganligi sababli, mintaqaviy tengsizlik kuchaydi (1.5- rasm). Bundan tashqari, qarzga ko‘milgan kichik korxonalar Guanxi deb nomlanuvchi xitoylik qarindoshlikka asoslangan tarmoqlarning eski madaniy an‘analariga ko‘ra, o‘z do‘stlari va oilalarini kredit manbalari sifatida ishlatgan. Bu norasmiy mexanizm Konfutsiy falsafasiga asoslangan xitoylik ishbiarmonlik madaniyati orqali ishlagan. Shtat maxsus iqtisodiy zonaning qirg‘oq-bo‘yi hududlariga ko‘proq kapital jalb qilish uchun imtiyozli rejimni taqdim etdi. Dastlab chet ellik investorlar va tadbirkorlarning ko‘pchiligi Tayvan, Gonkong va Singapurdan kelgan. Xitoyda telekommunikatsiya va shunga o‘xshash elektron sanoatning texnologik imkoniyatlarining o‘shishi Janubiy Koreyaning hukumat roliga o‘xshamagan holda, aksincha, hukumat kompaniyalar salohiyatini

²⁴ Hazwan, H. (2020). “The Evolution of China’s Modern Economy and its Implications on Future Growth” *Post-Communist Economies*. <https://doi.org/10.1080/14631377.2020.1793610>

juda samarali yo‘llar bilan mustahkamlay oldi. Bu yerda biz o‘quv qobiliyatining texnologik rivojlanish va sanoatning umumiy o‘shidagi muhim rolini hisobga olishimiz kerak.



1.5 - rasm. Xitoy janubiy mintaqasida yalpi ichki mahsulotning (YaHM) iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi²⁵

Xitoyning eksportga asoslangan strategiyasining asosiy jihati savdoni erkinlashtirish bo‘ldi. Mamlakat o‘zining yuqori tejamkorlik darajasi hamda arzon va mo‘l mehnat kapitaldan foydalanish qobiliyati tufayli rivojlanayotgan davlatlar orasida xorijiy investitsiyalarni eng ko‘p jalb qiluvchilardan biriga aylandi. Bu yondashuv Hekksher-Ohlinning mehnat talab qiladigan va yengil ishlab chiqarishga ixtisoslashgan nazariyasiga mos keladi, chunki Xitoyda ishchi kuchi ko‘p edi. Ishlab chiqarish tovarlari eksportining asosiy qismini Xitoyning ishchi kuchi va ishlab chiqarishdagi zaxira salohiyati tufayli tashkil qilingan.

Yuqorida ko‘rganimizdek, Xitoyning sanoat ishlab chiqarishdagi islohotlari diqqatga sazovordir, chunki mamlakatning iqtisodiy o‘shish yo‘li qishloq xo‘jaligini isloh qilishdan boshlandi va keyinchalik sanoat sektoriga yangiliklar kiritishga o‘tdi, natijada ushbu sektorda o‘zgarishlar yuz berdi. Bundan tashqari, ochiqlik


²⁵ www.statista.com Saytidagi ma’lumotlardan foydalangan holda muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

darajasi ichki iqtisodiyotda raqobatni rag‘batlantirdi, ayniqsa 1990-yillarda patentlar va mulk huquqlari tan olinganidan beri Xitoy kompaniyalarini texnologik taraqqiyotga olib keladigan innovatsion faoliyatga ko‘proq resurslar sarflashga undadi. Xitoy ko‘rgan tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘shishning an’anaviy manbalarini o‘zgartirdi, chunki iqtisodiyotning turli sohalaridagi ishchi kuchi kabi resurslar qayta joylashtirildi va kapital to‘planishini o‘zgartirdi. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nisbatan kambag‘al mamlakatlar sanoatni kengaytirishdan hamda rivojlangan iqtisodiyotlar bilan birlashish va yaqinlashishdan foyda ko‘radi. Chunki rivojlanayotgan iqtisodiyotlar texnologiya almashishidan foyda ko‘radi, bu esa iqtisodiy rivojlanish darajasini oshiradi. Biroq, ular jahon iqtisodiy kuch tizimidagi gegemon mavqeyini yo‘qotishni istamagani uchun sanoati rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘zlarini sanoatlashtirish va suveren sanoat siyosatini qabul qilish intilishlariga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilishadi.

Janubiy Koreya. Janubiy Koreya tajribasida qo‘shma korxonalar xorijiy texnologiyalarga erishish strategiyasi sifatida qabul qilindi, shuningdek, ta’lim va texnologik tadqiqotlar uchun katta miqdordagi davlat sarmoyalari mahalliy salohiyat va samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. Koreya o‘zining ichki iqtisodiyotini asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan iqtisodiyotdan yirik global sanoat kuchiga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Sanoatlashtirish va yengil sanoatdan og‘ir, kimyo sanoatiga o‘tish o‘shish sur‘atlarini kuchaytirdi hamda tashqi bozorlarga yaxshi integratsiyani qo‘llab-quvvatlashga imkon yaratdi. Hukumat boshqa narsalar qatorida mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishni (import nazoratini eksportni rag‘batlantirish bilan birlashtirish orqali), ishchi kuchi malakasini oshirishni, malakali ishchilarni tayyorlash orqali ko‘nikmalarni rivojlantirishni, infratuzilmani yaxshilashni va kapital bozorlarini tartibga solishni xohlaydi.

Janubiy Koreya mintaqalarda sanoat ishlab chiqarish salohiyatini kuchaytirishga muhim strategiya sifatida qaradi. Bu siyosat amalda har bir mamlakatda turlicha. Masalan, so‘nggi yillarda davlat Xitoyda salohiyatni

oshirishni ragʻbatlantirdi, bunda davlat siyosati xususiy kompaniyalarning kambagʻalligini qoplashga qaratilgan yirik davlat kompaniyalarini qurishga olib keldi (1.5-rasm). Janubiy Koreyada qoʻshma korxonalarining jalb qilingan xorijiy texnologiyalarni mintaqada keng joriy qilish strategiyasi sifatida qabul qilindi.



1.6 - rasm. Janubiy Koreya markaziy mintaqalarida yalpi ichki mahsulotning (YaHM) iqtisodiy tarmoqlar boʻyicha taqsimlanishi²⁶

Koʻplab xorijiy mamlakatlarda mahalliy darajadagi rivojlanishni ragʻbatlantirish zaruratini yuzaga keltiradigan bir qancha omillar mavjud. Aholi soni tobora koʻpayib borayotgan global iqtisodiyotda, mamlakatlar kelajak qanday boʻlishi toʻgʻrisida xavotirda. Ishlab chiqarish kabi sohalarda ishchilarning ishdan boʻshatilishi va doimiy ravishda korporativ qisqartirish tahdidi, siyosiy sabablarga koʻra boʻlsa ham, chora – tadbirlar ishlab chiqishga boʻlgan shoshilish hissini tugʻdiradi. Dunyoning boshqa bir tomonida, Afrika mintaqalarida koʻplab sabablarga koʻra sanoatni rivojlantirishga boʻlgan ambitsiyalar mavjud. Mahsulot ishlab chiqarish, aholi bandligini taʼminlash, eksportdan tushgan daromadlar, tez va uzoq muddatli farovonlik nuqtai nazaridan mintaqa sanoatining rivojlanishida ilgʻor namuna sifatida baholanmoqda. Sanoat salohiyatini oshirish boʻyicha

²⁶ www.statista.com Saytidagi maʼlumotlardan foydalangan holda muallif tamonidan mustaqil tayyorlandi.

tajribalar Osiyoning bir qator aholisining askari kambag'allik darajasida bo'lgan mamlakatlar iqtisodiy farovonligiga hissa qo'shgan, sinab ko'rilgan va haqiqiy rivojlanish yondashuvlaridan biridir.


Davlat aralashuvi va ichki sanoat tarmoqlarini rag'batlantirish Sharqiy Osiyoda muvaffaqiyatli bo'lganligi o'rganishlarimiz natijasida yaqqol ko'rinib turibdi, lekin Lotin Amerikasi mamlakatlarida emas? "Masalan, Sharqiy Osiyo iqtisodiyotida avtomobillar sektorining rivojlanishi davlat tomonidan kuchli qo'llab quvvatlandi. Janubiy Koreya kichik yig'ish zavodlaridan ish boshladi va yigirma yildan kamroq vaqt ichida mamlakat raqobatbardosh avtomobilsozlik sektorini rivojlantira oldi"²⁷. Jenkins ta'kidlaganidek: "Avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishidagi ikkita asosiy bitim (Janubiy Koreya va Tayvan) davlat aralashuvining yuqori darajasini o'z ichiga olgan. Hamma mamlakatlarda ishlab chiqarishga o'tishda davlat aralashuvining hal qiluvchi shakli mahalliy ishlab chiqarishni xohlagan firmalarga mahalliy tarkib talablarini belgilash va ularni importdan jiddiy himoya qilish bo'ldi. Davlat ham chet ellik mulkchilik doirasini cheklashga aralashdi. Hukumat aralashuvi, shuningdek, yangi ishlab chiqaruvchilar bozorga kirishini oldini olish, birlashishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ratsionalizatsiya qilish yoki mavjud modellar sonini kamaytirish orqali sanoatni ratsionalizatsiya qilishga urinish uchun ham turli vaqtlarda yuz berdi"²⁸

Iqtisodchi Fransman ta'kidlaganidek: "Texnologiya va texnologik o'zgarish jamiyatga bir tomonlama ta'sir ko'rsatadigan avtonom kuchlar emas. Texnologiya alohida holda mavjud emas, balki ijtimoiy kontekstga kiritilgan. Texnologik taraqqiyot va o'zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillarning kombinatsiyasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, fan va texnologiya muhim usullar bilan o'zaro aloqada bo'lishini hamda har ikkalasiga mavjud ijtimoiy, siyosiy, nazariy, iqtisodiy sharoitlar ta'sir qilishini tan olish, texnologiya va texnologik

²⁷ Amsden, A. (2001). Qolganlarning yuksalishi: kech sanoatlashgan mamlakatlardan G'arbg qiyinchiliklar, Oksford: Oksford universiteti matbuoti.

²⁸ Jenkins, R. (1995) "Sanoat siyosatining siyosiy iqtisodiyoti: yangi sanoatlashgan mamlakatlarda avtomobil ishlab chiqarish", Kembrij iqtisodiyot jurnali, 19: 625-645

o‘zgarishlarni o‘rganish uslubimizga juda muhim ta’sir ko‘rsatadi”²⁹ .



1.7- rasm. Global ishlab chiqarishda eng ko‘p mahsulot ishlab chiqaruvchi 10 ta mamlakatlarning ulushi. 2023-yil³⁰

Sharqiy Osiyo mamlakatlari dunyo iqtisodiyotida ham ulush jihatidan eng ko‘p mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakatlar hisoblanadi (1.7 - rasm). Sharqiy Osiyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligidan mahsuldorlikni oshirish orqali kuchli salohiyatga ega bo‘lgan ishlab chiqarishga o‘tishga muvaffaq bo‘ldilar. Ularning hukumatlari iqtisodiyot uchun sanoat sektori muhimligini angladilar, bu vaqt o‘tgan sari chuqurlashib bordi. 2015 yilga kelib Sharqiy Osiyo va Xitoy boshqa mintaqalarga qaraganda ishlab chiqarish qo‘shilgan qiymatining ulushini sezilarli darajada oshirdi.

Braziliya. Braziliyada sanoatlar urushdan keyingi davrda tez o‘sdi, lekin 1980-yillarning o‘rtalarida tashqi qarzlar va inflyatsiya o‘ssishi tufayli inqirozga yuz tutdi. So‘nggi o‘ttiz besh yil ichida Braziliya iqtisodiyoti qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosatini qabul qildi, shu bilan birga uzoq muddatli sanoat siyosatini e‘tiborsiz qoldirdi, bu esa ishlab chiqarishning pasayishiga va

²⁹ Fransman, M. (1984). “Uchinchi dunyodagi texnologik qobiliyat: Ba’zi masalalarga umumiy nuqtai nazar va kirish”, 3-30-betlar (tahr.) M. Fransman va K. King, Uchinchi dunyodagi texnologik imkoniyatlar, London: Palgrave Makmillan.


³⁰ www.statista.com Saytidagi ma’lumotlardan foydalangan holda muallif tamonidan mustaqil tayyorlandi

rivojlangan davlatlar bilan tenglashtirishga olib keldi. Uning ishlab chiqarilishi hali to'liq rivojlanmagan ya'ni past ishlab chiqarish tarmoqlarida katta ishchi kuchi saqlanib qolmoqda. Mamlakatlar "yetuklik bosqichiga" faqat ishlab chiqarish darajasi umuman iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o'rtasida mos kelganda erishishi mumkin. Nassif va boshqalar "Sanoat bazasi juda xilma-xil bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin hali sanoatlashtirish jarayonini hali tugatmagan iqtisodiyot rivojlanayotgan iqtisodiyotni davom ettirish uchun ichki mudofaa mexanizmsiz tashqi raqobatga duch kelganda, qayta sanoatlashtirish holatlari ro'y berishi mumkin. Ularning tarkibiy o'zgarishlarini amalga oshirish. Washington konsensusining tavsiyalariga binoan, bu harakat Lotin Amerikasining ba'zi iqtisodiyotlarida 1990- va 2000 -yillarda (ayniqsa Braziliya va Argentina) iqtisodiy ochilishdan keyin sodir bo'lgan. Iqtisodiyot mudofaa mexanizmlaridan mahrum bo'lgani uchun (masalan, tarif to'siqlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport qilish uchun subsidiyalar, kapital nazorati va boshqalar)"³¹.

Hech shubha yo'qki, 1991 - yilga kelib Braziliya va Janubiy Koreya dunyodagi eng muvaffaqiyatli va raqobatbardosh avtomobil ishlab chiqaruvchilarga aylandi. Janubiy Koreya dunyodagi sakkizinchi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakat sifatida Buyuk Britaniyani ortda qoldirdi, Braziliya 1991 - yilda o'n birinchi o'rinni egalladi. Biroq Braziliyada xarajatlar xalqaro darajaga yaqinlashdi, lekin 1980 - yillardagi iqtisodiy inqiroz va makroiqtisodiy siyosat. mahalliy avtomobilsozlik uchun unchalik qulay emas edi. Ichki bozor turg'unlashdi va tashqi qarzlar keskin oshdi, bu esa qarz inqiroziga olib keldi va XVJ va Jahon bankining bosimi ostida hukumat SAPni qabul qilishga majbur bo'ldi, bu esa uning avtomobil sektorining salbiy rivojlanishiga olib keldi. Janubiy Koreyada davlat avtotransport vositalarini eksport qilishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynadi. Darhaqiqat, Janubiy Koreyada davlat kasbiy yoki tor manfaatlar emas, balki katta manfaatlar foydasiga siyosat choralarini

³¹ Nassif, A., L.C. Bresser-Pereira and C. Feijo. (2018). "The Case for Reindustrialisation in Developing Countries: Towards the Connection between the Macroeconomic Regime and the Industrial Policy in Brazil", Cambridge Journal of Economics, 42:355-381.

ko‘rish uchun yuqori darajadagi boshqaruvni ko‘rsatdi.



1.8 - rasm. Braziliya janubiy mintaqalarida yalpi ichki mahsulotning (YaHM) iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi³²

Eksportni rag‘batlantirish nuqtai nazaridan Sharqiy Osiyo va Braziliya o‘rtasidagi farq shundaki, Braziliyada eksport ichki bozor rivojlanganidan keyin rag‘batlantirildi, Janubiy Koreyada esa eksport boshidan rag‘batlantirildi. 1970 - yillarning boshlarida Janubiy Koreya o‘z avtomobillarini ishlab chiqarishni boshladi, shuning uchun hukumat turli kichik korxonalarni yopdi va faqat to‘rt firmani mashina ishlab chiqarishga majbur qildi. Samarali aralashuv davlatga kichik guruhlarining tor manfaatlari yoki qisqa muddatli manfaatlariga xizmat qilish va ularni himoya qilishdan ko‘ra, asosiy maqsadlarga e‘tibor qaratish imkonini beradigan, hukmron sinfdan yuqori darajadagi muxtoriyatni talab qiladi. 1973 - yilda hukumat og‘ir va kimyo sanoatini ustuvor deb e‘lon qildi va uzoq muddatli sanoatlashtirish avtomobilsozlikni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oldi. Maqsad, 1982 - yilga kelib, mahalliy avtomobil ishlab chiqarish uchun materiallar va tarkibning 90% ga yaqinini olish va yirik eksportchiga o‘tish edi. Ushbu reja bo‘yicha faqat uchta kompaniyaga litsenziya berilgan edi. 1980-yillarning

³² www.statista.com Saytidagi ma’lumotlardan foydalangan holda muallif tamonidan mustaqil tayyorlandi.

o‘rtalariga kelib, hukumat avtomobilsozlik sanoatini yanada ratsionalizatsiya qilib, uni faqat ikkita ishlab chiqaruvchiga aylantirdi.

Sanoat ishlab chiqarishini oshirish uchun davlat sanoat siyosati orqali sanoat ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlashi, “bozor muvaffaqiyatsizliklari” ni bartaraf etish hamda import soliqlari va subsidiyalar kabi davlat imtiyozlarini qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rib chiqish kerak. Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi so‘nggi voqealar ko‘rsatganidek, rivojlanayotgan davlatlar hech qachon faqat transmilliy korporatsiyalarga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ko‘pchiligi 1960 - yillarning boshlarida milliy rivojlanish siyosatini yuritish maqsadida iqtisodiy avtonomiyaga ega bo‘lishdi va bugun yana jahon iqtisodiyotining muhim ishtirokchilari bo‘lishdi. Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 1960 - yildan 2022 - yilgacha olti barobar oshdi, 4,0% dan 25% gacha. Osiyoning tezroq iqtisodiy o‘sishi Osiyodagi jahon sanoat ishlab chiqarishidagi ulushidan ko‘rinib turibdiki, sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarning natijasi bo‘ldi. Sharqiy Osiyoning qirq yil ichida eng qoloq va qashshoq mintaqadan jahon iqtisodiyotining o‘sish mexanizmiga aylanishi insoniyat tarixida misli ko‘rilmagan va boshqa rivojlanayotgan sanoat mamlakatlari uchun ijobiy rivojlanishdir. Ichki sanoat himoyasi tarixan rivojlangan davlatlar tomonidan Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh va Yaponiya kabi sanoatlashtirishning dastlabki bosqichlarida qo‘llanilgan. Sanoat siyosatini sanoatlashtirishni rejalashtirayotgan va sanoatning erta pasayishini bartaraf etish uchun uzoq muddatli siyosatga muhtoj mamlakat uchun muhim siyosat sifatida qarash kerak.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Sharqiy Osiyo mamlakatlari ishlab chiqarish sanoatini boshidanoq rivojlantira boshladilar, eksport bozorlarini nishonga oldilar va qisqa vaqt ichida “import o‘rmini bosuvchi siyosat” ni boshladilar. Ular o‘z uy bozorlari cheklanganligini va shuning uchun ishlab chiqarish keng ko‘lamli iqtisodiyotga erisha olmasligini tushunishdi. Iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish maqsadida bu davlatlar xalqaro investitsiyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatladilar, o‘z sektorlarini boshqa mamlakatlarning raqobatiga ochdilar hamda

eksportga ustuvor ahamiyat berdilar. Qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, Sharqiy Osiyo iqtisodlari tezda asosiy eksport mahsuloti sifatida mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi bo'ldi. Hozirgi vaqtda Sharqiy Osiyo sanoat mahsulotlarining umumiy eksporti bo'yicha Yevropadan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Har bir davlatning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)dagi korxonalarida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishni amalga oshirish usullari har xil. Bu tajribalarni boshqarishda mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti, ishlab chiqarish muammolari, korxonalarining iqtisodiy muammolarini hal qilish e'tiborga olinadi. Quyidagi misollar mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari (MDH) tajribalarini ko'rsatadi:

sanoat rivojlanishini ta'minlash maqsadida sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, yangi ishlab chiqarish tashkilotlarini qo'llab-quvvatlashga investitsiyalar kiritilmoqda.;

sanoat texnologiyasining afzalliklari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish va sifatni yaxshilash orqali aholiga keng turdagi mahsulotlar taklif;

sanoat mahsulotlarini eksport qilishni rag'batlantirish, yangi bozorlarga kirishni qo'llab-quvvatlash va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga yordam berish;

kadrlar tayyorlash hamda o'quv markazlari yordamida sanoat sohasidagi kadrlar tayyorlash;

mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning MDH mamlakatlari tajribalari mamlakatimiz mintaqalarida ham qo'llash uchun ham yaqinroq tajribalar hisoblanadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Mintaqalarda sanoatning barqaror rivojlanishi uchun ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hamda quvvatlaridan unumli foydalanishning nazariy

jihatlari bo'yicha ushbu bobdagi tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali iqtisodiyotning barcha tarmoqlari ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollari bilan ta'minlanib, ularni modernizatsiya qilishga xizmat qilishi yangi uslubiy nazariy asoslarni tashkil qilmoqda.

2. Mintaqaviy iqtisodiyotning sanoat rivojlanish darajasi bevosita ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizmga ta'sirini o'rganish sohada amalga oshirilgan so'nggi yangiliklarning nazariy jihatlari o'zida mujassam etadi.

3. Hududlarda sanoatni rivojlantirish ko'p qirrali va uzoq davom etadigan ish bo'lib, sanoat tarmog'ining rivojlanishini bir yoki bir nechta ko'rsatkichlar bilan aniq ifodalab bo'lmaydi. Shuning uchun, bu borada ko'rsatkichlar tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni optimallashtirish hududlar uchun dolzarb ustuvor vazifa hisoblanadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish uchun resurslarni nafaqat iqtisodiy jarayonga to'liq integratsiyalash, balki ulardan samarali foydalanish ham muhim.

4. Sanoat tarmog'ida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar bilan bir qatorda ushbu tarmoqlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmaning o'rnini beqiyos. Sanoat infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lgan texnik xizmat ko'rsatish tuzilmasi (yordamchi ishlab chiqarish) ta'mirlash uskunalari, energiya, transport, omborxonalar va boshqa obyektlarni o'z ichiga olgan asosiy ishlab chiqarishning uzluksiz va samarali ishlashini ta'minlaydigan tarkibiy qismidir.

5. Ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish bir vaqtning o'zida barcha mavjud resurslardan oqilona foydalanish hisobiga sanoat sohasida yuqori yakuniy natijaga erishishni nazarda tutadi.

6. Iqtisodiyotning potentsial o'sish sur'atiga uning ishlab chiqarish tuzilmasi, diversifikatsiya darajasi va aholi jon boshiga yuqori qo'shilgan qiymat ishlab chiqarish imkoniyatlari ham ta'sir qiladi. Bu borada Sharqiy Osiyo

sanoatlashuvi boshqalarga iqtisodiy o'zgarish uchun juda foydali tajribani ko'rsatib berdi.

7. Sharqiy Osiyo va Janubiy Koreya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoatning mintaqalar rivojidadagi muhimligini, ulardagi sanoat tarmoqlari integratsiyasi hamda sanoat ulushining global ishlab chiqarishdagi o'rni orqali ko'rsatib berildi. Bundan tashqari, Braziliya kabi mamlakatlar sanoat sohasining rivojlanishi mintaqalarining eksportni rag'batlantirishga olib kelishi yoritildi.

II-BOB. MINTAQADAGI SANOAT ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINING JORIY HOLATINI TAHLIL ETISH ORQALI MINTAQQA IQTISODIY AHVOLINI BAHOLASH

2.1. Mintaqa sanoatining birlamchi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali respublika sanoat ishlab chiqarish miqyosidagi mintaqaning tutgan o‘rnini baholash

Mintaqalarda eng katta muammolardan yana biri bu ishsizlik, buni mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham hududlarga qilgan tashriflarida ta’kidlaydilar. “Xorazmda 200 ming aholining sharoiti juda og‘ir. Shundan 73,5 mingi Xorazmda yashayapti. 130 mingi chet elda yuribdi. Xorazmning boshqa hududlarga nisbatan ahvoli og‘irroq. Mana shu 200 ming aholining 130 mingini qaytarishimiz kerak”³³. O‘z o‘rnida, yuqori darajadagi ishsizlik muammosini ijobiy hal qilishda ham sanoat ishlab chiqarish sohasi muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishini nazariy jihatdan o‘rganish amaliy takliflar ishlab chiqishda asos bo‘luvchi tamoyillaridan biri hisoblanadi. Sanoatda fan-texnika taraqqiyotining eng yangi ixtirolari va kashfiyotlari, texnika va texnologiyalari yaratiladi. Ular tezlik bilan ishlab chiqarishga joriy etiladi. Shuning uchun sanoat muqarrar ravishda xo‘jalikning boshqa tarmoqlarni o‘zining orqasidan ergashtirib boradi. Respublikaning iqtisodiy salohiyati ishlab chiqarishda texnik, tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan qay darajada foydalanilayotganligi sanoat bilan turli jihatdan chambarchas bog‘liq. Agar 2000 - yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotida sanoat ishlab chiqarishining ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023 - yilga kelib deyarli ikki barobarga oshib 26,1 foizga yetdi. Sanoat mahsuloti 2000 - yilda 1888,9 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 262 824,2 mlrd. so‘mni tashkil yetdi³⁴. Sanoat ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘ati 2023 - yilda 2022 - yilga nisbatan 106,1 foizga teng bo‘ldi. Sanoatda

³³ 2020-yil 12-13 mart kunlari prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi davomida so‘zlagan nutqidan.


³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari

1883,3 ming ishchi - xizmatchi bo'lib, ular iqtisodiyotda band aholi (13 538,9 ming kishi) ning 13,9 foizini tashkil etadi. Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining katta qismini yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan sohalar tashkil etyapti. 2023 - yil 1- yanvar ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda 57,0 mingga yaqin sanoat korxonalari ishlab chiqarish faoliyatini yuritmoqda. Ularning eng ko'pi (23,6 foizi) Toshkent shahrida joylashgan. Shuningdek, Farg'ona (6 268 ta yoki 11,0 foiz) va Toshkent (6 019 ta yoki 10,6 foiz) viloyatlarining ham hissasi yuqori. Aksincha, eng kam sanoat korxonalari Sirdaryo (1 273 ta), Navoiy (1 809 ta), Surxondaryo (1 921 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (1 796 ta) ga to'g'ri keladi.

Zamonaviy landshaftda sanoat respublikamiz iqtisodiyotida asosiy tarmoq sifatida ajralib turadi. Bu farq bir qancha asosiy omillardan kelib chiqadi, xususan, uning qo'shimcha qiymat yaratish qobiliyati, aholi ehtiyojlarini qondirishdagi hal qiluvchi roli va ishlab chiqarish hajmining kattaligida ko'rinadi. Sanoat tarmoqlari rivojlanib borar ekan, ular nafaqat milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga, balki aholining iqtisodiy farovonligini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Ushbu tendensiya Sharqiy Osiyo mamlakatlari tajribasida o'z aksini topadi, bu yerda diversifikatsiyaga intilish sanoat sohalarida barcha qazib olinadigan resurslar orqali yangi mahsulotlarni yaratishga yordam beradi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ulardagi ishlab chiqarish hajmini oshirish masalasi bugungi kundagi mamlakatimiz iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb vazifa ekanligiga alohida to'xtalib, quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tdi: "... iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi. Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlarga va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft gaz-kimyoy, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda "yashil iqtisodiyot" bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz "drayverlari"ga aylanishi uchun

barcha etarli sharoitlar mavjud”³⁵. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining izchil ortib borayotgani bugungi kunda nafaqat milliy, balki hududiy miqyosda ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



2.1- rasm. Respublika sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘shish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda (2012-2023)³⁶

Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar tufayli milliy va mintaqaviy sanoat salohiyati oshib bormoqda. Xususan, oxirgi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida barqaror o‘shish sur’atlariga hukumat tomonidan hududlarda qabul qilingan tarmoq dasturlari va qarorlarida belgilangan parametrlarni amalga oshirish hisobiga erishildi (2.1-rasm). Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, 2016-yilgacha bo‘lgan sanoat o‘shish sur’ati deyarli bir xil darajada oshib kelgan, lekin 2016- yildan keyin tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratib berilishi, yangi ochiladigan korxonalar qator engillik va imkoniyatlar berilishi hisobiga sanoat ishlab chiqarishi hajmi va uning o‘shish sur’ati kesgin oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

³⁶ <https://www.stat.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

2022-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublika korxonalari tomonidan jami 553,265 milliard so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan. Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,3 foizga o'sdi. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida umumiy sanoat mahsulotining 83,0 foizi eng katta hissa qayta ishlash sanoati hissasiga to'g'ri keldi. Ta'kidlash joizki, fizik hajmning umumiy qisqarishi, birinchi navbatda, tog' - kon va ochiq usulda qazib olish faoliyatida kuzatilgan sezilarli darajada 21,9 foizga, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning 7,9 foizga qisqarishi bilan bog'liq. Aksincha, ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 7,1 foizga sezilarli o'sish kuzatildi, shuningdek, elektr energiyasi, gaz, bug' ta'minoti va havoni tozalash xizmatlarida 12,5 foizga sezilarli o'sish kuzatildi. Respublikamiz hududlarida sanoat ishlab chiqarishining holatini bir qator hududiy sanoat ko'rsatkichlarini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin. Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlarining fizik hajmi bir necha yillardan buyon ortib bormoqda, bu esa sanoat ishlab chiqarish tarmog'ining o'sib borayotganidan dalolat beradi. Bu barcha hududlarda sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi oshganidan yaqqol dalolatdir. Bu o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilish va bunga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni o'rganish orqali o'sish sur'atlarini yanada jadallashtirish masalasi ham oldimizda turgan muhim ishlardan biri hisoblanadi.

Hududlarda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilsak, quyidagi holatni kuzatishimiz mumkin (2.1-jadval). Bu jadval orqali oldingi rasmda ifodalangan ko'rsatkichlarni raqamlarda ko'rib guvohi bo'lish ham mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin, garchi oxirgi o'n yil ichida mamlakatda sanoat ishlab chiqarishida barqaror o'sish kuzatilmagan bo'lsa-da, o'rtacha o'sish sur'ati 107,6 foizni tashkil etgan. Ma'lumotlarni o'rganib chiqqanda ma'lum bo'ladiki, o'rtacha hisobda ba'zi hududlarda so'nggi o'n yillikda sanoat ishlab chiqarishining sezilarli darajada yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan bo'lsa, boshqalarida esa ancha past o'sish sur'atlari kuzatilgan. Aniqrog'i, ushbu ko'rsatkich bo'yicha hududlar o'rtasidagi farq juda katta. Masalan, Andijon, Buxoro va Namangan viloyatlari o'sish

ko'rsatkichlari ancha yuqori, Farg'ona, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlari pastligidan ham buni ko'rishimiz mumkin. Hududning sanoat salohiyatini to'liq baholash faqat o'sish sur'atlariga asoslanishi to'g'ri emas, bu tahlilning faqat bir qismidir. Ayrim hududlarda mamlakat sanoat tarmog'ining yuqori ulushiga va sanoatning o'rtacha o'sish sur'atlariga qaramay, ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari sekinroq bo'lgan boshqa hududlarga nisbatan sanoat kengayishi bir necha barobar yuqori bo'lishi mumkin.

2.1-jadval

Respublika hududlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari³⁷ (o'tgan yilga nisbatan foizda)

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	105,7	107,5	104,5	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,3
Qoraqalpog'iston	102,3	106,4	108,2	121,5	164,5	108,2	104,2	105,1	102,5	107,4	100,5
Andijon	106,6	112,8	105,5	87,0	72,9	123,5	130,6	114,7	106,3	98,7	122,8
Buxoro	102,4	106,3	108,2	108,8	104,8	97,0	101,6	110,5	101,5	100,1	106,0
Jizzax	107,5	108,7	109,5	117,1	121,2	111,2	108,9	103,5	118,4	110,4	108,2
Qashqadaryo	96,3	101,0	103,6	102,6	102,1	105,1	104,2	94,0	102,9	115,4	110,1
Navoiy	101,3	100,9	102,9	100,9	101,2	97,5	101,8	104,3	109,1	107,0	106,1
Namangan	108,4	108,1	112,9	111,9	111,9	111,7	110,8	110,4	115,3	118,2	109,1
Samarqand	116,2	108,5	113,9	110,6	108,6	102,0	112,3	105,6	105,4	111,0	108,6
Surxondaryo	106,1	104,8	111,0	107,5	106,5	97,9	106,0	107,1	106,7	109,7	104,2
Sirdaryo	107,2	100,4	104,6	105,5	111,8	91,8	104,2	103,2	100,9	118,5	109,1
Toshkent v.	101,2	109,5	105,1	105,6	105,6	102,7	114,8	107,3	105,8	112,8	105,7
Farg'ona	100,7	105,7	108,9	104,0	101,6	94,9	106,3	102,6	104,2	108,5	104,5
Xorazm	106,4	111,5	121,5	126,2	92,0	118,3	107,9	107,5	106,1	117,2	115,0
Toshkent sh	112,3	112,5	115,5	112,0	111,5	111,8	110,2	105,5	100,2	116,2	106,3

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Toshkent shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 18.7 %) hamda Navoiy (15,9 %), Toshkent (19,4 %), Andijon (9,3 %) va Farg'ona (6,9 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa Surxondaryo (1,6 %) hamda Sirdaryo (1,5 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

³⁷ <https://www.stat.uz> — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tamonidan mustaqil tayyorlandi.

2.2-jadval

Respublika ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlar ulushi (2023 -yil), %³⁸


	Qoraqalpog'iston	Andijon	Buxoro	Jizzax	Qashqadaryo	Navoiy	Namangan	Samarqand	Surxondaryo	Sirdaryo	Toshkent	Farg'ona	Xorazm	Toshkent sh.	
Ishlab chiqaradigan sanoat	100,0	3,8	9,3	5,2	2,1	3,2	15,9	3,3	5,7	1,6	1,5	19,4	6,9	3,5	18,7
Oziq-ovqat mahsulotlari	100,0	4,4	5,3	7,1	2,3	5,6	3,8	5,1	12,5	2,8	3,0	15,8	8,6	6,6	17,3
Ichimliklar	100,0	1,7	0,2	1,7	0,2	1,1	0,1	5,6	2,2	0,4	0,5	36,8	0,7	2,9	45,9
Tamaki mahsulotlari	100,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	85,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	14,1
To'qimachilik	100,0	3,7	9,9	8,3	5,0	8,0	2,7	7,7	8,4	4,7	2,4	8,5	15,3	5,9	9,4
Kiyim	100,0	1,0	27,4	5,2	2,3	3,2	6,8	10,5	4,8	2,5	3,5	13,9	8,4	0,7	9,8
Teri va unga tegishli mahsulotlar	100,0	0,1	27,4	1,4	0,1	2,0	2,1	11,5	13,2	0,0	12,0	3,0	19,8	0,4	7,0
Yog'och va po'kak buyumlar	100,0	2,1	1,2	1,6	1,1	1,2	1,6	7,3	1,9	2,3	8,3	14,1	20,4	1,7	35,2
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari	100,0	0,4	1,1	0,8	1,5	0,5	0,7	3,3	3,9	0,1	0,2	26,0	8,2	5,0	48,3
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	100,0	0,3	0,3	0,2	0,3	0,5	0,7	0,2	1,3	1,2	0,1	9,2	0,6	0,1	85,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	100,0	0,1	0,1	73,3	0,1	0,0	0,0	0,1	0,5	4,0	0,0	0,6	19,8	0,0	1,5
Kimyo mahsulotlari	100,0	31,2	1,1	1,2	0,3	13,2	16,0	0,8	0,9	0,1	0,3	14,2	10,1	0,2	10,5
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari	100,0	1,0	2,5	0,4	0,1	0,1	0,1	4,5	2,4	0,5	5,7	3,2	1,3	0,5	77,8
Rezina va plastmassa buyumlar	100,0	0,9	3,0	2,5	3,4	0,8	0,7	2,6	5,9	0,4	5,3	23,1	8,8	1,4	41,2
Boshqa nometal mineral mahsulotlar	100,0	2,4	2,5	5,9	7,3	2,0	10,7	4,3	5,7	2,2	2,9	16,6	14,4	2,0	21,1
Metallurgiya sanoati	100,0	0,0	0,1	0,1	0,2	0,1	46,4	0,2	2,0	0,1	0,0	39,9	0,2	0,0	10,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor-metall buyumlar	100,0	0,5	2,8	2,6	0,3	0,8	26,6	4,7	3,9	2,8	1,6	9,1	6,8	1,7	35,7
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar	100,0	1,6	0,0	0,0	0,0	0,1	2,6	0,1	0,1	0,0	0,0	13,8	1,2	0,0	80,4
Elektr uskunalar	100,0	0,7	4,9	0,1	3,7	0,0	1,6	2,7	3,3	0,0	0,0	11,6	1,6	0,3	69,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar	100,0	0,0	9,6	0,6	2,5	0,5	5,6	3,0	1,0	0,0	3,9	10,9	3,1	6,3	53,0
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar	100,0	0,0	61,3	0,0	3,5	0,0	1,1	0,1	9,3	0,0	0,0	6,3	1,1	15,7	1,6
Boshqa transport uskunalari	100,0	0,0	18,0	4,8	0,0	0,0	0,0	0,9	5,3	0,0	0,0	4,3	10,3	0,0	56,4
Mebel	100,0	3,6	7,6	6,2	3,8	3,5	1,5	9,2	7,8	4,6	1,1	9,8	10,2	1,7	29,5
Boshqa tayyor buyumlar	100,0	3,3	6,4	0,8	2,4	0,4	1,3	15,0	1,9	0,0	3,2	5,1	17,4	4,5	38,3
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	100,0	0,6	0,7	3,9	1,8	1,1	2,0	1,1	0,9	5,0	0,5	8,3	0,8	0,8	72,3

Tadqiqot obyekti sifatida o'rganilayotgan Xorazm viloyati ham sanoat ulushi jihatidan kam ulushga (3,5%) ega bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Xorazm viloyatida ko'plab tarmoqlar juda past ulushlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. faqatgina Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishda Respublika bo'yicha 15.7% bilan 2-o'rinni egallab turibdi (2.2-jadval). Respublikaning sanoat ishlab chiqarishi odatda u ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar qiymati bilan o'lchanadi. Ushbu toifaga ishlab

³⁸ www.stat.uz — Statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

chiqarish, togʻ-kon sanoati va kommunal xizmatlar kiradi. Sanoat sektori odatda uchta asosiy toifaga boʻlinadi: ishlab chiqarish, togʻ-kon sanoati va kommunal xizmatlar.

Ishlab chiqarish avtomobillar, elektronika va mebel kabi buyumlarni ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi. Kon qazib olish yerdan foydali qazilmalar va boshqa tabiiy resurslarni qazib olishni nazarda tutadi. Kommunal xizmatlar elektr energiyasi, gaz va suv ishlab chiqarishni oʻz ichiga oladi.




2.2-rasm. Respublikada faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2023 yil)³⁹

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmini sanoat tarmogʻida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar qiymati, shuningdek, tarmoqda yaratilgan ish oʻrinlari soni bilan oʻlchash mumkin. Yuqoridagi koʻrsatkichlarni ham shu katta uchta guruhga boʻlish mumkin. Endi mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan hamda yangi tashkil qilingan sanoat korxonalari soni toʻgʻrisidagi raqamlarni kuzatsak. Hozirgi kunda respublika boʻyicha 85,5 ming sanoat korxonasi faoliyat koʻrsatmoqda. Ularning 15,9 mingtasi (jami roʻyxatga olingan korxonalarining 18,6 foizini tashkil etadi) Toshkent shahrida, 9,4 mingtasi (10,9 foizi) Fargʻona viloyatida joylashgan. Toshkent viloyatida 8,8 mingta korxonalar (10,3%), Andijon

³⁹ www.stat.uz — Statistika qoʻmitasi rasmiy veb-sayti maʼlumotlaridan foydalangan holda tayyorlandi.

viloyatida 8,7 mingta (10,1%), Samarqand viloyatida 7,3 mingta (8,5%) va Namangan viloyatida 6,8 mingta (8,0%) joylashgan (2.2 - rasm). Kuzatganimizday Xorazm viloyati sanoat tarmog‘i respublikadagi etakchi sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanmaydi, bevosita tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilayotgan Xorazm viloyati bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi ko‘rsatkichlarini tahlil qilsak, quyidagi ma’lumotlarni kuzatishimiz mumkin.



2.3-rasm. Xorazm viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda⁴⁰

So‘nggi o‘n yillikda viloyatda sanoat ishlab chiqarishining eng yuqori o‘shish sur‘ati 2014-yilda qariyb 121 foizni qayd etgan, bu viloyatda transport vositalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlash mumkin (2.3-rasm). 2014- yili GM avtomobil zavodining Damas hamda Orlando avtomobillarini Xorazm viloyatining Pitnak shahrida ishlab chiqarila boshlagani bilan bog‘liq. Viloyatning sanoat ishlab chiqarishi o‘shish sur‘atlari 2016-yildan keyin ham yuqori o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lganligini va yillik o‘shish ko‘rsatkichi davomida 20% dan yuqori bo‘lganligini kuzatish mumkin. So‘nggi o‘n yillikdagi o‘rtacha o‘shish ko‘rsatkichi 12,3% ni tashkil etgan.

⁴⁰ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2.3-jadval

Xorazm viloyati hududlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari⁴¹ (2022 yil holatiga, o'tgan yilga nisbatan foizda)

	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Xorazm viloyat	106,4	111,5	121,5	126,2	92,0	118,3	107,9	107,5	106,1	117,2	115,0
Urganch sh	107,5	111,7	112,5	137,8	105,1	127,8	114,6	105,8	103,6	106,4	117,2
Xiva sh						180,2	104,7	109,1	112,8	101,1	104,8
tumanlar											
Bog'ot tuman	107,4	113,5	92,7	123,2	123,3	110,6	102,2	110,6	109,6	112,1	110,6
Gurlan tuman	108,7	115,2	106,9	117,6	107,8	126,9	118,5	104,9	108,9	100,2	104,2
Qo'shko'pir t	105,9	119,0	110,0	124,6	108,1	112,6	100,3	108,2	110,5	127,8	98,7
Urganch tuman	111,0	115,8	92,5	123,1	106,2	90,0	107,8	106,3	110,4	123,7	104,3
Xazorasp t	114,1	93,4	691,7	137,9	64,8	136,1	141,5	145,3	114,7	110,8	111,3
Tuproqqal'a t									103,6	114,4	114,6
Xonqa tuman	112,0	115,5	104,4	109,9	109,2	107,4	101,3	106,3	98,8	107,3	108,1
Xiva tuman	111,2	113,7	107,1	129,0	115,4	71,4	100,0	93,6	125,7	96,6	100,3
Shovot tuman	107,5	150,7	104,6	120,4	118,4	124,9	112,2	96,6	104,8	106,4	105,2
Yangiariq t	108,1	113,8	103,7	108,8	110,4	103,7	118,9	94,6	113,8	98,7	115,1
Yangibozor t	108,3	117,4	105,7	125,4	107,6	107,8	96,8	92,2	106,5	116,8	124,0

Yuqorida qayd etilgan jadval ma'lumotlaridan, hududdagi tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishining o'sish ko'rsatkichlarida sezilarli barqarorlik mavjud emas. Umuman olganda, hech bir tumanda ijobiy o'sish ko'rsatkichlari kuzatilmagan. 2020 va 2021 - yillarda butun dunyoda, mamlakatimizda bo'lgani kabi Xorazm viloyatiga ham pandemiya o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu yillarda barcha sohalar kabi sanoat ishlab chiqarish sohasida ham o'sish sur'atlari oldingi yillarga nisbatan ancha past ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda (2.3-jadval). Urganch shahri

⁴¹ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

so‘nggi o‘n yil davomida juda beqaror o‘shish sur‘atlariga ega bo‘lgan, shunga qaramasdan 2021- yil yanvar-mart oylari ma‘lumotlariga ko‘ra Urganch shahri eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega bo‘ldi. Mazkur yuqori ko‘rsatkichlarga sabab sifatida Prezidentimizning 21.04.2021 yilda qabul qilgan PQ-5088⁴² Qarori ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlar samarasi sifatida ko‘rish mumkin.

Xiva shahri ma‘lumotlari 2017-yildan boshlab aks etayotganini ko‘rishimiz mumkin, bunga sabab, Xiva shahri Prezidentimizning 11.07.2017 yilda PQ -3124 sonli “Xorazm viloyatining Xiva shahri va Qashqadaryo viloyatining Shahrizabz shahri hokimliklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴³ qabul qilingan qaror bilan tashkil topgan. Shunga o‘xshab Tuproqqal’a tumani ham “ Xorazm viloyati tarkibida Tuproqqal’a tumanini tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”⁴⁴gi PQ–4671-son, 11.04.2020 Prezident qarori bilan tashkil topgan. Tuproqqal’a tumani sanoat o‘shish sur‘atlari pasayganligini butun dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchilarda kuzatilayotgan xomashyo tanqisligi sababli yuz berayotganligini mazkur manbalar⁴⁵ orqali ham bilish mumkin. Shunga qaramasdan bu yangi tashkil topgan tuman Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarishi ulushida 42.4 % ni tashkil qilmoqda, bu viloyatdagi eng katta ko‘rsatkich hisoblanib turibdi. Keyingi o‘shish sur‘atlari juda past bo‘lgan tumanlar bular Gurlan va Xazorasp tumanlaridir, bu tumanlarning viloyat sanoat ishlab chiqarishdagi ulushlari ham bir biriga yaqin mos ravishda 5.2% va 4.3% ni tashkil qilmoqda.

§ 2.2 Xorazm viloyati hududiy sanoatining tarmoq va hududiy tarkibi holatini o‘rganish

Mintaqa sanoat tarmoqlarini tahlil qilish sanoatni ham mintaqaviy, ham iqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, tarmoqlar ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy

⁴² <https://lex.uz/docs/-5383002>

⁴³ <https://lex.uz/ru/docs/3262295>

⁴⁴ <https://lex.uz/docs/4785293>

⁴⁵ <https://www.cnbc.com/2021/08/25/auto-industry-supply-chains-hit-hardest-during-covid-pandemic-survey.html>

shakllarini, jumladan, konsentratsiya, ixtisoslashuv, kooperatsiyani qamrab oluvchi ijtimoiy mehnat taqsimoti natijalarini o'zida mujassam etadi. Qolaversa, aynan tarmoqlar tizimida sanoat ishlab chiqarishiga doir yangi texnologiyalarni joriy qilish va hozirgi zamon fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari ko'proq. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, xususiylashtirish va mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish va nodavlat sektorining roli ortib borayotgan paytda boshqaruv tizimi avvalgidek tarmoqlar tasarrufida bo'lmay, asosan hududlar mahalliy hokimiyat qaramog'iga o'tadi. Binobarin, xalq xo'jaligi makroiqtisodiyotning tarmoqlar tuzilmasi biroz ahamiyatini yo'qotadi.

Har qanday mamlakat yoki mintaqadagi sanoatning tarkibi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tashkil etadi, uning shakllanishi bir qancha omillarga bog'liq. Bu omillar, asosan, mintaqaning mineral va qishloq xo'jaligi resurslari bazasi, shuningdek, mehnat va moliyaviy resurslari yoki iqtisodiy geografik joylashuvi bilan bog'liq.

Har bir hudud sanoat ishlab chiqarishining shakllanishi va rivojlanishida tarmoqlar tarkibi katta rol o'ynaydi. Mustaqillik yillarida sanoat tarmoqlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bu o'zgarishlar korxonalarni qayta qurish va kengaytirishning obyektiv sharoitlariga bog'liq. Shunga ko'ra tarmoqlar rivojlanishining yo'nalish va ko'lamiga ta'sir o'tkazish tajribasini o'rganish, tarmoqlar tarkibini baholash katta ahamiyat kasb etadi.

Hududning imkoniyatlari, tabiiy sharoiti, resurslari, demografik tarixi, ishlab chiqarish salohiyatidan kelib chiqqan holda ustuvor tarmoqlar belgilandi. Bu tarmoqlarni jadal rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb talabidir.

Sanoatning tarmoq tuzilishi uning tarkibi, nisbati va o'zaro bog'liq o'zgarishlarini aks ettiradi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlari globallashtirish darajasida farqlanadi va asosiy shaharlar va mamlakatlarning global iqtisodiyotdagi mavqeyini alohida tarmoqlarga xos bo'lgan kompaniyalarning joylashish strategiyalari bilan izohlanadi. Ushbu tasnif asosida shakllantirilgan statistik ko'rsatkichlar ilk bor 2017-yilda Davlat statistika qo'mitasining rasmiy

statistik to'plamlarida e'lon qilingan. Natijada tarmoqning tarmoq tuzilmasi quyidagicha tavsiflangan bog'liqliklaridan iborat bo'lib, tarmoq strukturasi esa sanoatning rivojlanish darajasini belgilaydi⁴⁶.

1. **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – metall rudalarini qazib olish bilan bir qatorda ko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft va tabiiy gaz qazib olishni, tog'-kon sanoatida boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2. **Qayta ishlash sanoati** – oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishdagi keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u to'qimachilik, kiyim-kechak, charm buyumlar, yog'och mahsulotlari, shuningdek, to'qimachilik materiallarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bu sohada qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish, yozma materiallarni nashr etish va ko'paytirish ham mavjud. Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish bilan bir qatorda koks va neftni qayta ishlash, kimyo mahsulotlari, kauchuk va plastmassa buyumlari, shuningdek, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mashina va uskunalarni, shu jumladan avtotransport vositalari, tirkamalar, yarim tirkamalar va turli xil tayyor metall buyumlarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatishni o'z ichiga oladi.

3. **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.** Elektr energiyasi, gaz, bug' va havoni tozalash xizmatlarini o'z ichiga olgan sektor konditsionerlik xizmatlarini ko'rsatish bilan bir qatorda elektr energiyasi, tabiiy gaz va bug'ni ishlab chiqarish, uzatish hamda taqsimlashni o'z ichiga olgan keng ko'lamli faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ushbu sektorning muhim jihati yoqilg'i (ko'mir, neft va tabiiy gaz), atom energiyasi, qayta tiklanadigan manbalar (quyosh, shamol, gidroelektr) va geotermal energiya kabi turli manbalarni o'z ichiga olgan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarilgandan so'ng, elektr energiyasi iste'mol qilish uchun turar-joylarga, savdo muassasalariga va sanoat obyektlariga

⁴⁶ O'zbekiston sanoati -2017. Statistik to'plam. Toshkent -2017. -3 b

tarqatilgunga qadar murakkab elektr uzatish liniyalari tarmog‘i orqali uzatiladi.

4. Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish. Sanoat tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish yoki taqdim etish bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlar to‘plamini anglatadi. Iqtisodiyot doirasida sanoatlar odatda birlamchi, ikkilamchi va uchinchi tarmoqlarga, ikkilamchi tarmoqlar esa og‘ir va yengil tarmoqlarga bo‘linadi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-dekabr oylari davomida viloyatdagi sanoat korxonalari tomonidan 18 325,8 milliard so‘mlik yakuniy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021-yilning mos davriga nisbatan sezilarli o‘shishni ko‘rsatib, sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 115,1 foizga o‘sgan. Bundan tashqari, sanoat ishlab chiqarishining umumiy tarkibiga eng katta hissa 96,088% ni qayta ishlash sanoati tashkil etdi (2.4-jadval). Sanoat ishlab chiqarish tarkibida tog‘-kon sanoati hamda ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi – 8,9 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 124,3 % ga, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 100.2 % ga 2022-yilda o‘shish kuzatildi.

Mintaqa iqtisodiyotining birlamchi tarmoqlari qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik va konchilikni o‘z ichiga oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xomashyoga asoslangan ishlab chiqarish ustunlik qilish natijasida birlamchi sanoat ko‘pincha iqtisodiyotda hajm jihatdan ko‘plik qiladi. Biroq, ikkilamchi va uchinchi darajali sanoatning kengayishi bilan birlamchi sanoatga tegishli iqtisodiy mahsulot ulushi odatda pasayadi. Bu bevosita yuqori texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat tarmoqlarida yakuniy Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmi oshishi bilan ro‘y beradi.

Ikkilamchi sanoat, Ishlab chiqarish sanoati deb ham ataladigan bu sektor birlamchi sanoat tarmoqlari tomonidan taqdim etilgan xomashyoni olib, ularni iste‘mol tovarlariga aylantiradi. U ushbu tovarlarni boshqa ikkilamchi tarmoqlarda foydalanish uchun mahsulotlarga aylantiradi hamda iste‘mol qilish va keyingi

ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan vositalarini yaratadi. Ikkilamchi sanoat og'ir yoki yirik sanoat hamda yengil yoki kichik sanoatga bo'linadi.

2.4-jadval

Xorazm viloyati asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi % da (2018-2022 yil ko'rsatkichlari)⁴⁷

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari	2018	2019	2020	2021	2022
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi	0.001	0.001	0.027	0.018	0.006
Ishlab chiqaradigan sanoat	96.024	95.594	95.605	96.692	96.088
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	3.312	3.740	3.663	2.509	3.258
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	0.663	0.665	0.705	0.782	0.647

Uchinchi darajali sanoat sektori, shuningdek, xizmat ko'rsatish sanoati deb ham ataladi, u hech qanday moddiy tovarlar ishlab chiqarmasdan, xizmatlar yoki nomoddiy daromad keltiradigan yoki boyluk yaratadigan tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu sektordagi tarmoqlar keng ko'lamli xizmatlarni, jumladan bank, moliya, sug'urta, investitsiya va ko'chmas mulk xizmatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ular ulgurji, chakana va qayta sotish faoliyatini, transport xizmatlarini va konsalting, yuridik va shaxsiy xizmatlar kabi turli professional xizmatlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, bu sektor turizm, mehmonxonalar, restoranlar va ko'ngilochar sohalarni o'z ichiga oladi.

To'rtinchi darajali sanoat. Ushbu sektordagi sanoat tarmoqlari ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi. Bularga axborot tizimlari, axborot texnologiyalari (IT), texnologik taraqqiyot, ilmiy tadqiqotlar, moliyaviy va strategik tahlil, konsalting xizmatlari, ommaviy axborot vositalari, kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari kabi tadqiqot va ishlanmalarni qamrab oluvchi sektorlar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, biz o'rganayotgan hudud iqtisodiyotida shu kabi ilg'or va ixtisoslashgan tarmoqlar bilan ajralib turadigan to'rtinchi darajali sanoat yo'q.

⁴⁷ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlar (2023-yil ko'rsatkichlari)⁴⁸

Shahar va tumanlar nomi	2023 - yil mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyat	18 323,3	115,0
Urganch shahri	3 202,8	117,2
Xiva shahri	201,2	104,8
tumanlar		
Bog'ot tumani	568,8	110,6
Gurlan tumani	472,8	104,2
Qo'shko'pir tumani	373,1	98,7
Urganch tumani	918,4	104,3
Xazorasp tumani	505,3	111,3
Tuproqqal'a tumani	9 467,0	114,6
Xonqa tumani	742,4	108,1
Xiva tumani	274,7	100,3
Shovot tumani	671,7	105,2
Yangiariq tumani	448,2	115,1
Yangibozor tumani	476,9	124,0

Tahlillar sanoatni rivojlantirish bo'yicha Tuproqqal'a tumani, Urganch shahri hamda Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Urganch, Yangibozor, Shovot, Hazorasp, Xonqa tumanlari ancha oldinda ekanini ko'rsatmoqda. Bu shahar va tumanlar, ayniqsa, bir qancha muhim tarmoqlarda mustahkam ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bu tarmoqlarga avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish kiradi; to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish; oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoati; va qurilish materiallari ishlab chiqarish. Sanoat rivojlanishining bunday yuqori


⁴⁸ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

darajasi ushbu hududlar mintaqaning umumiy iqtisodiy o'sishi va sanoat ishlab chiqarishining muhim hissasi sifatida muhimligini ko'rsatadi.

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar natijasida, 2023 - yil yanvar-dekabrga nisbatan sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli o'sishi Yangibozor tumanida 124,0 %, Urganch shahrida 117,2 %, Yangiariq tumanida 115,1 %, Hazorasp tumanida 111,3 %, Bog'ot tumanida 110,6 %, Tuproqqal'a tumanida 114,6 %, Urganch tumanida 104,3 %, Shovot tumanida 105,2 %, Gurlan tumanida 104,2 %, Xonqa tumanida 108,1 %, Xiva shahrida 104,8 % darajada o'sish kuzatilgan bo'lsa, Qo'shko'pir tumanida 98,7 % ni tashkil qilgan (2.5-jadval). Ko'rinib turibdiki, sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari mintaqaning turli hududlarida farqlanadi. Ushbu nomutanosiblik butun mintaqada sanoat ishlab chiqarishini har tomonlama rivojlantirish va bir xilda rivojlantirish bilan bog'liq potensial muammolarni ko'rsatadi. O'sish sur'atlarining notekisligi ushbu rivojlanish muammolarini hal qilish uchun maqsadli strategiyalar zarurligini ko'rsatadi, bu esa barcha sohalarda yanada muvozanatli va inklyuziv sanoat o'sishini ta'minlaydi.

Milliy darajada mustahkam, tizimli tarmoq tuzilmasini tashkil etish jadal iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, aholi turmush darajasini oshiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Ushbu o'zaro bog'langan asos ishlab chiqarish darajasini oshiradi va pirovardida umumiy ishlab chiqarish hajmini oshiradi, iqtisodiyot bo'ylab ijobiy tarkibiy o'zgarishlarni osonlashtiradi. Binobarin, tarkibiy o'zgarishlar, texnologik yangilanishlar ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligini oshirish, iqtisodiy taraqqiyot hamda jamiyat farovonligini yanada mustahkamlashga muhim hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarini integratsiyalash uchun mevasabzavot xomashyosidan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalanish, sanoat korxonalariga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish, vositachilik tarmoqlarini rivojlantirishni rag'batlantirish kabi turli chora-tadbirlardan foydalanish mumkin.




2.4 – rasm. Sanoat ishlab chiqarishda Xorazm viloyati hududlarining ulushi (2023 yil holatiga, % da)⁴⁹

Diagrammada ko‘rinib turibdiki (2.4 – rasm), sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo‘lgan Tuproqqal’a tumani 51,7 foiz, Urganch shahri 17,5 foiz, Urganch tumani 5 foiz, Xonqa tumani 4,1 foiz, Shovot tumani 3,7 foiz, hamda eng past bo‘lgan Xiva tumani 1,5 foiz va Xiva shahri 1,1 foizni tashkil qilmoqda. Xiva shahri va tumani Xorazm viloyati sanoat ulushida eng past ko‘rsatkichlarga ega ekanligiga qaramasdan, bu hududlarda asosan turizm va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanishiga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Biroq Yangiariq, Shovot va Bog‘ot tumanlarida sanoat ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish muhim masalalardan ekanligini kuzatishimiz mumkin, chunki bu hududlarda sanoatni rivojlantirish iqtisodiy o‘sishga erishishning eng asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

Oldin tahlil qilingan ko‘rsatkichlardan tashqari, mintaqa sanoat ishlab chiqarishining tarkibi hamda undagi sanoat mahsulotlarning ulushlarini aniqlash ham muhim hisoblanadi. Yana bir asosiy ko‘rsatkichdan biri ishlab chiqarishning texnologik tuzilishidir. Quyidagi rasmda Xorazm viloyati hududiy ishlab

⁴⁹ Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

chiqarishning texnologik tarkibi tasvirlangan (2.5 - rasm).



2.5 – rasm. Xorazm viloyati ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da⁵⁰

2022 - yil yanvar-dekabr oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,7 % dan 4,2 % ga , yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning 0,13 % dan 0,1 % ga, quyi texnologiyali ishlab chiqarishning 51,3 % dan 50,7 % ga kamaygan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 39,5 % dan , 2022 - yil yanvar-dekabr oylarida bu ko'rsatkich 41,1 % ga ko'paygan, Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 17,7 mlrd. so'mlik (2021 - yil yanvar-dekabr oylarida 18,0 mlrd. so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 7 529,1 mlrd. so'mlik (5 391,0 mlrd. so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 768,5 mlrd. so'mlik (773,1 mlrd. so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 9 293,6 mlrd. so'mlik (7 001,7 mlrd. so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

⁵⁰ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Xorazm viloyatida yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat ulushi ko‘rib turganimizdek juda ham past darajada. Hozirgi texnologiyalar asrida zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat uskunalari joriy qilish davr talabidir. Ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish mintaqa sanoati uchun ko‘plab muammolarga yechim bo‘lishi mumkin, jumladan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni tejash va operatsiyalarni o‘z vaqtida bajarish imkonini beradi. Texnologiyalar turli xil sanoat mahsulotlarni yuqori sifatda ishlab chiqarish, tashish, narxlash va sotish imkonini beradi, bu esa turli sohalar kundalik faoliyatida tayanadigan muhim tovarlar va xizmatlar mavjudligini ta‘minlaydi. Bu jarayon oxir-oqibat ham makroiqtisodiy aylanishning, ham mikroiqtisodiy funksiyaning muhim qismiga aylanadi.

2022-yil II choragi bo‘yicha Xorazm viloyati aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 4,3 mln.so‘mni (8-o‘rin), o‘shish sur‘atlari 101,3%ni tashkil etdi. Urganch shahri (8,6 mln.so‘m) va Tuproqqal’a (79,8 mln.so‘m) tumanida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari eng yuqori, Xiva (0,8 mln.so‘m), Xazorasp (0,9 mln.so‘m) tumanlari va Xiva (1,1 mln.so‘m) shahri eng past ko‘rsatkichlarni qayd etdi. YaHM tarkibidagi sanoat ulushi 15,7%ni tashkil etdi va 2021 yil II yarim yillikka nisbatan 2,7 punktga o‘sgan. Sanoat mahsulotlarining 15,6% i (2021 yilda 21,9%) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilganligi kichik biznesning ulushi kichik ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, sanoat mahsulotlari tarkibida ishlab chiqaradigan sanoatining ulushi – 96,7%, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sanoatining ulushi — 2,7%, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoatining ulushi - 0,6%, tog‘-kon sanoat va ochiq konlarni ishlash ulushi – 0,02% ni tashkil qilgan. Ishlab chiqarish sanoatida avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 40,8% ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari 22,7%, to‘qimachilik mahsulotlari 20,9%, boshqa ishlab chiqarish mahsulotlari 15,7% ni tashkil etdi. Jami sanoat yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 4 499 taga etib, jami faoliyat yuritayotgan korxonalarining 16,8%ni tashkil etdi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida kiritilgan 110 ta loyiha bo'yicha 494,4 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lsa, dastur doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 4,4 mln AQSh dollari miqdorida eksport qilingan.⁵¹

Sanoat tarmog'i tuzilmasini baholashda sanoat mahsulotining turli tarmoqlar bo'yicha taqsimlanish sxemasini aniqlash juda muhimdir. Sanoat tarmoqlari o'rtasida optimal muvozanatni o'rnatish sektorda samarali tarkibiy siyosatni amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishi tarkibidagi miqdoriy o'zgarishlar sanoatda, xususan, mulkchilik tuzilmalarida sezilarli va tub o'zgarishlardan dalolat beradi. So'nggi yillarda viloyat sanoati tarmoqlari tarkibida sanoat tarmoqlarining yanada bo'linib borishi, yangi-yangi tarmoqlar vujudga kelishi, tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualar shakllanishi, fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarning tezroq rivojlanishi kabi bir qator o'zgarishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, hozirda viloyatdaa tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda quyidagi vazifalar ustuvor bo'lib qolmoqda:

viloyat iqtisodiyotning bir tomonlama (xomashyoviy) xarakteriga barham berish va tarmoq tuzilishini tubdan o'zgartirish;

ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va raqobatdoshligini jahon bozori talablariga javob berish darajasiga etkazish;

ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash.


sanoat tarmog'i rivojlanishida kichik korxonalarni rag'batlantirish.

yangi tashkil etilayotgan korxonalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

Shu o'rinda Xorazm viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi va yangi tashkil qilinayotgan korxonalar soni ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratishning ayni o'rni deb o'ylaymiz. So'nggi yillarda viloyat sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ulushi past sur'atlarda bo'lsa ham ortib borayotgani va sezilarli ulushni tashkil etib borayotganini quyidagi jadval va ma'lumotlar asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.

⁵¹ 2022-yili yarim yillik yakunlari bo'yicha Xorazm viloyatida sanoat ko'rsatkichlari tahlili

Viloyatda yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 003,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Tuproqqalʼa tumani (3,6 %), Urganch shahri (24,8 %) va Qoʻshkoʻpir tumanida (27,7 %) kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan ham izohlash mumkin (2.6 – rasm).



2.6 - rasm. Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi %da (2023-yil)⁵²

2.4 -rasmdagi Sanoat ishlab chiqarishida hududlarning ulushlari tasvirlangan maʼlumot bilan 2.6-rasmni birgalikda tahlil qilib koʻradigan boʻlsak, Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi hajm jihatdan qaysi tumanlarda yuqori ekanligini kuzatishimiz mumkin boʻladi. Bunda quyidagi jadval orqali tumanlarning viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini tumanlarning kichik biznesning sanoatdagi ulushiga mos ravishda koʻpaytirib chiqish orqali hisoblaymiz. Bu hisob-kitobdan kelgusida kichik sanoat korxonalari rivojlanmagan hududlarga maqsadli investitsiyalar kiritish loyihalarini shakllantirishda

⁵² <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti maʼlumotlari asosida tayyorlandi

foydalanish mumkin bo‘ladi.

2.6-jadval

Xorazm viloyat sanoat ishlab chiqarishida tumanlarning ulushiga nisbatan, kichik biznesni egallagan qismi %da (2023-yil)⁵³

Tumanlar	Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi %da	Viloyat sanoat ishlab chiqarishida tumanlarning ulushiga nisbatan, kichik biznesni egallagan qismi %da
Urganch shahri	18,3	24,8	4,54
Tuproqqal’a	42,4	3,6	1,53
Xiva sh	1,4	100	1,40
Qo‘shko‘pir	5,1	27,7	1,41
Xiva t	2,3	100	2,3
Yangiariq	2,9	100	2,9
Xazorasp	4,3	30,3	1,3
Yangibozor	3,5	51,8	1,81
Shovot	2,9	32,1	0,93
Bog‘ot	3	48,6	1,45
Gurlan	5,2	34,2	1,78
Urganch	3,6	49,6	1,79
Xonqa	5,1	33,6	1,71

Mazkur jadval orqali kuzatishimiz mumkinki, kichik biznes subyektlari ham sanoat korxonalarini tashkil qilishda o‘z investitsiyalarni o‘z o‘zidan viloyat markaziga ko‘proq yo‘naltirishadi, Chunki ko‘rib turganimizday umumiy viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushiga nisbatan kichik biznes vakillarining sanoat ishlab chiqarishdagi proporsiyasi Urganch shahrida 4.54 % eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda. Buni asosiy sabablari sifatida viloyat markazida ishlab chiqarish infratuzilmalari , elektr , suv, gaz ta‘minoti va yo‘llar sifat darajasi nisbatan yaxshiroq ishlab chiqilganligi kabi faktorlarni sanab o‘tishimiz mumkin. Bu o‘z o‘zidan chekkaroq tumanlarda ham ishlab chiqarish infratuzilmalarini yaxshilash kerakligini ko‘rsatadi.

⁵³ <https://www.xorazmstat.uz> — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi

2.3 Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishining kapital qo‘yilmalarga ulushini tahlil qilish orqali hududdagi iqtisodiy dinamika va investitsion ustuvorliklarini aniqlash.

Ishlab chiqarish — har xil turdagi mashinalar, asboblari, ishchi kuchi yordamida xomashyo va materiallarga kimyoviy hamda biologik ishlov berish orqali yoki formuladan foydalangan holda sotish uchun turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish. Bu atama hunarmandchilikdan yuqori texnologiyalargacha bo‘lgan bir inson faoliyatiga tegishli faoliyat turi bo‘lishi mumkin, lekin ko‘pincha sanoat ishlab chiqarishida qo‘llaniladi. Bunda xom ashyo keng miqyosda tayyor mahsulotga aylanadi, ishlab chiqarish jarayoni esa xom ashyoni ishlab chiqarish bosqichlari hisoblanadi. Bosqichlardan o‘tish orqali yakuniy mahsulotga aylantiriladi. Ishlab chiqarish jarayoni mahsulot dizaynidan va mahsulot ishlab chiqarilgan materiallarning spetsifikatsiyasidan boshlanadi. Keyinchalik bu materiallar ishlab chiqarish jarayonlari orqali kerakli qismga aylanadi.

Ishlab chiqarish odatda yordamchilari bo‘lgan bitta malakali hunarmand tomonidan amalga oshirilgan. Sanoat inqilobidan oldin ishlab chiqarishning asosiy qismi qishloq joylarida bo‘lib, u yerda uy xo‘jaligi ishlab chiqarishi qishloq xo‘jaligi faoliyatini to‘ldirar edi. Keyinchalik, tadbirkorlar bir nechta ishlab chiqarish obyektlarini birlashtirib, yakka tartibdagi korxonalar tashkil etdilar. Biroq, har qanday ishlab chiqarish sanoati mahsulotga tegishli kirish va chiqish modullarini o‘z ichiga olgan turli birlik jarayonlarining kombinatsiyasidir. Kirish moduli mashina, materiallar va mexanizmni ishlatish uchun zarur bo‘lgan har xil turdagi energiya bilan bog‘liq modullarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, chiqish moduli bir nechta turdagi chiqindilar bilan birga tayyor mahsulotni o‘z ichiga oladi. Birlik jarayonlari shunday bog‘langanki, bir jarayonning chiqishi boshqasiga kirishga aylanadi. Yakuniy mahsulotning chiqish xususiyatlari mashinalarning to‘g‘ri ketma-ketligi bilan birga har bir birlik jarayonining natijasini o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish uchun energiya sarfi, xomashyolar, har xil turdagi xarajatlarni optimallashtirish kabi jarayon parametrlarini to‘g‘ri nazorat qilish muhimdir. Bundan tashqari, mijozlarning

qoniqishi va ishchilar uchun sog‘lom muhit ham har bir ishlab chiqarish jarayonining natijasini oshiradi.

AQSh Savdo vazirligining ma‘lumotlariga ko‘ra, barqaror ishlab chiqarish “atrof-muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtiradigan, energiya va tabiiy resurslarni tejaydigan, xodimlar, jamoalar va iste’molchilar uchun xavfsiz va iqtisodiy jihatdan ishonchli bo‘lgan jarayonlardan foydalanadigan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yaratish”⁵⁴. Ishlab chiqarishda barqarorlik g‘oyalari juda keng qamrovli bo‘lishiga qaramay, uni jarayon, mashina yoki zavod darajasida mustahkam o‘rnatishni talab qiladi.

Mahsulotning barqaror rivojlanishida energiya iste‘moli, moddiy isrofgarchilik, emissiyaning bir nechta turlari va qayta tiklanmaydigan resurslardan kamroq foydalanish kabi omillarga e’tibor qaratish lozim ⁵⁵. Insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti va mehnat qilish jarayonida ulkan moddiy ne‘matlar va boyliklar yaratdi. Ular sanoatda xo‘jalik mulki sifatida ifodalanadi. Sanoatni rivojlantirish va unda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash uchun uning asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta‘minlanganlik darajasini oshirish zarur.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb o‘z tabiiy shaklini uzoq vaqt davomida o‘zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan mehnat vositalariga aytiladi. Aktivlar tarkibiga inshootlar, binolar, uzatish uskunalari, mashinalar, yuk mashinalari, engil transport vositalari, ishlab chiqarish va uy-ro‘zg‘or buyumlari kiradi. Ushbu vositalar ishlab chiqarish davrlari davomida izchil funksiyalarni bajaradi va asta-sekin o‘z qiymatini hosil bo‘lgan mahsulotga o‘tkazadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deyilishiga sabab mehnat vositalari ishlab chiqarishning negizini, ya’ni moddiy ishlab chiqarishda ko‘p ishlatilishidir. Asosiy fondlar ishlab chiqarishga taalluqli va taalluqli bo‘lmagan fondlarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarida bevosita ishtirok etadigan va uzoq muddat foydalaniladigan mehnat vositalariga ishlab chiqarishga taalluqli fondlar deyiladi.

⁵⁴ AQSH Savdo vazirligi, 2019.

⁵⁵ Seow va Rahimifard, 2017.

Unga binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va asbob-uskunalar kiradi. Ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmasa-da, lekin korxonalar ishlab chiqarishi va xo'jalik faoliyatida zarur bo'lgan mehnat vositalariga ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan fondlar deyiladi. Umumiy ovqatlanish, qurilish, sport va sog'lomlashtirish maskanlari, savdo-sotiq, kinoteatr va boshqalar ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan fondlarga kiradi.

Asosiy fondlar muayyan belgilariga qarab guruhlariga ajratiladi, ya'ni klassifikatsiya qilinadi. Asosiy fondlar moddiy va ma'naviy xarakteriga, ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Binolar. Unga sanoat ishlab chiqarishining (zavod va fabrikalar, kombinat, birlashma va boshqalar) asosiy binolari, turli maqsadlar uchun qurilgan omborxonalar, sanoat ishlab chiqarishi texnikasi va ular uchun yoqilg'i va ehtiyot qismlar saqlanadigan binolar(garaj), sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liq qurilishlar kiradi.

2. Inshootlar. Gidrotexnik inshootlar, yo'llar, ko'priklar, tovarlar va organik o'g'itlar saqlanadigan va suv bilan ta'minlovchi quduqlar inshootlar turkumiga kiritiladi.

3. Sanoat ishlab chiqarishi mashinalari va asbob-uskunolari. Ushbu toifaga avtomobillar, yuk mashinalari, traktorlar, dvigatellar, yig'ish mashinalari, sanoat robotlari va turli sanoat ishlab chiqarish mashinalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan mashina va uskunalar kiradi.

4. Transport va aloqa vositalari. Avtomashinalar, traktorlar, tirkagichlar, pritseplar, elektr liniyalari, telefon, telegraf va suv taqsimlash tarmoqlari ushbu guruh asosini tashkil etadi.

5. Sanoat ishlab chiqarishi inventarlari. Bevosita ishlab chiqarish jarayonida mehnatni engilllashtirishga xizmat qiladigan vositalar, mehnat muhofazasiga oid buyumlar, idoralar, uylar sanoat ishlab chiqarishi inventarlari hisoblanadi.

Sanoat ishlab chiqarishida asosiy vositalar ma'naviy va jismoniy jihatdan eskiradi. Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida konstruksion va texnik

ko'rsatkichlari jihatidan orqada qolishi mehnat vositalarining o'ziga nisbatan yangi, yana ham serunum uskunalarga o'z o'rnini bo'shatib berishi natijasida ma'naviy jihatdan eskirishi kuzatiladi. Jismoniy eskirish—asosiy fondlardan foydalanish yoki foydalanmaslik natijasida atrof-muhit(qor, yomg'ir, quyosh radiatsiyasi) ta'sirida eskirishdir.

Sanoat ishlab chiqarishida aylanma mablag'lar. Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatida asosiy vositalar bilan birga, ularning qiymatiga mos keladigan aylanma mablag'larga ega bo'lishi zarur. Aylanma mablag'lar ishlab chiqarish davrida ishtirok etib, o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga to'la to'kis o'tkazadi va boshlang'ich shaklini butunlay o'zgartirishi bilan asosiy vositalardan farq qiladi. Shuning uchun sanoat ishlab chiqarishi boshlanishida yangidan aylanma mablag'lar ajratishga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, har bir yangi ishlab chiqarish jarayonining boshlanishida asosiy mablag'larni yangidan jalb qilish zaruriyatga aylanadi.

Aylanma mablag'lar uch bosqichda: – pul(kapital) – tovar(mehnat buyumlari) –pul (kapital) ko'rinishida doimo aylanma harakatda bo'ladi. Birinchi bosqichda kapital (pul, sarmoya, mablag') tovarga aylanadi, ya'ni mehnat buyumlari sotib olinadi. Ikkinchi bosqichda xarid qilingan mehnat buyumlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashib, o'z shaklini o'zgartiradi. Uchinchi bosqichda tovar mahsuloti ayirboshlash jarayonida yana kapital ko'rinishga aylanadi.

Asosiy fondlardan samaraliroq foydalanish uchun:

ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish;

kooperatsiya;–yangi texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish;

mehnatni ilmiy tashkil etish talab etiladi.

Asosiy vositalardan oqilona foydalanish uchun uning aylanuvchanligini jadallashtirish zarur. Bunga bozor konyukturasi asosida raqobatli va sifatli mahsulotlar etishtirish, resurslardan tejab-tergab foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda foydalanish orqali erishish

mumkin. Sanoatning asosiy proporsiyalari quyidagi sohalar ichidagi aloqalarda ko'zga tashlanadi:

1. "A" guruh, ya'ni ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish bilan, "B" guruh, ya'ni iste'mol mollari ishlab chiqarish o'rtasida;

2. Tog'-kon sanoati bilan qayta ishlovchi sanoat o'rtasida;


3. Turli tarmoqlar bilan ularning guruhlari o'rtasida.

Sanoat tarkibidagi o'zgarishlar "B" guruh o'sish sur'atlarining "A" guruhga nisbatan ilgariroq borishida aks etadi. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish tarkibida tog'-kon va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlari nisbatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mehnat qurollari ishlab chiqarishning jadal o'sishi tog'-kon sanoatiga nisbatan ishlov beruvchi sanoat tarmoqlarining birmuncha yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Tog' - kon sanoati katta fond talab etadi. Shuning uchun ishlab chiqarishga ketadigan barcha asosiy fondlarning deyarli 1/3 qismi ushbu sanoatga sarf qilinadi. Viloyat miqyosida ishlab chiqarish sanoati bo'yicha barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2021 - yilda 1 405,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Agar 2018- yilda bu miqdor 559,8 mlrd. so'mga teng bo'lganligini hisobga olsak, 2021 - yilda 2013 yilga nisbatan qariyb 2,5 barobarga ortiq ekanligi ayon bo'ladi.

2022 - yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1 565,7 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 18,2%, ishlab chiqarish sanoati –1 405,7 mlrd. so'm (yoki 16,4%), qurilish — 355,1 mlrd. so'm (yoki 4,1%), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash — 377,5 mlrd. so'm (yoki 4,4%), ta'lim — 218,9 mlrd. so'm (yoki 2,6%), uy-joy qurilishi — 1175,3 mlrd. so'm (yoki 13,7%) va boshqa faoliyat turlari – 2 990,4 mlrd. so'm (yoki 34,8%) (2.7 - rasm). Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 69,0 % dan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (32,2 %), ishlab chiqarish sanoati (14,1 %), jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (14,6 %) va ulgurji va

chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash (8,1 %).




2.7 - rasm. Xorazm viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd. so'm (2023-yil)⁵⁶

Ishlab chiqarishda asosiy kapital sifatining yomonlashuvi energiya iste'mol qilish tartibida noqulay tarmoq o'zgarishlariga olib keladi buning natijasida mahsulot ishlab chiqarishda energiya sarfi va tarmoqning energiya sig'imi ortadi. Ekonometrik tahlil iqtisodiyotdagi sanoatlashtirish darajasi va sanoat ishlab chiqarishidagi energiya xarajatlari o'rtasidagi mustahkam eksponensial bog'liqlikni ochib beradi, bu 0,948 yuqori juft korrelyatsiya koeffitsienti bilan ko'rsatilgan. Bu iqtisodiyotda sanoatlashtirishning kuchayishi va sanoat ishlab chiqarishida energiya xarajatlarining eksponensial o'sishi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, mamlakatdagi tarkibiy va texnologik o'zgarishlar energiya iste'molini pasaytirishning eng asosiy omillari hisoblanadi buning natijasida energiya samaradorligi oshadi⁵⁷.

⁵⁶ Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi

⁵⁷ Industrial Development Report 2011. Industrial energy efficiency for sustainable wealth creation. Capturing environmental, economic and social dividends. United Nations Industrial Development Organization. 3-p., н.э.т.-нефть эквивалентидаги тонна

2.8 – rasm. Mintaqa sanoat tuzilmalarining iqtisodiy o‘shishga ta’sir etadigan omillar⁵⁸



Energiya resurslarini iste'mol qilish darajasi sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘atlaridan oshib ketmoqda, buning natijasida tarmoq ichidagi energiya quvvati iste’moli ko‘payadi. Sanoat sektorida energiya quvvati iste’molining o‘shishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘tkazilgan ekonometrik tahlil natijalariga ko‘ra, respublika sanoat tarmog‘ida energiya samaradorligining 1 foizga oshishi sanoat foydasining 3,05 foizga va tarmoqdagi yalpi qo‘shilgan qiymatning 3,35 foizga o‘shishiga sabab bo‘ladi.

Respublika sanoat tarmoqlarida energiya sarfini qisqartirishga alohida e’tibor mavjud bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “

⁵⁸ Muallif mustaqil izlanishlari asosida ishlab chiqildi

2015 - 2019 - yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejavchi texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi 2015 - yil 5 - maydagi PQ - 2343-sonli qarori qabul qilindi va unda tarmoqdagi energiya sarfini kamaytirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish salohiyatining samaradorligini maksimal darajada oshirish quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratishni nazarda tutadi:

mashina, asbob-uskunalar va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish orqali birlamchi sanoat fondlarini yangilashni tezlashtirish;

sanoat korxonalariga xususiy mablag'lar, bank kreditlari va xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun sanoat va uning tarmoqlariga dastlabki investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega;

mintaqada eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish turlarini rivojlantirish maqsadida sanoatning ustuvor tarmoqlariga resurslarni konsentratsiya qilish.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Mintaqalar sanoat ishlab chiqarishining turli nisbatlarini namoyish etadi, bu sanoat faoliyati ular bo'ylab bir xil taqsimlanmaganligini ko'rsatadi. Sanoat ishlab chiqarish darajasi mintaqadagi tumanlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanadi. Urganch shahri va Tuproqqal'a tumanlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha salmoqli ulushni egallagan bo'lsa, Xiva tumani, Shovot tumani, Qo'shko'pir tumanlari sanoat ishlab chiqarish salohiyati cheklanganligini ko'rish mumkin. Bu hududiy nomutanosiblikni yumshatish va tumanlar o'rtasida sanoat ishlab chiqarish salohiyatini tenglashtirish maqsadida sanoat ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha bir xil va mutanosib taqsimlashga erishish zarurligini ko'rsatadi.

2. Sanoat rivojlanishi cheklangan hududlarning o'sishini rag'batlantirish uchun kichik sanoat shaharlari, erkin savdo-sanoat va sanoat zonalari, shuningdek, sanoat tumanlari va hududlarini tashkil etish zarur. Ushbu tashabbuslar

rivojlanishni rag'batlantirish va ushbu sohalarda har tomonlama ixtisoslashuvni rivojlantirishga qaratilishi zarur.

3. Mintaqaning sanoat ishlab chiqarishda ulushi juda past bo'lib, ularda agrar yo'nalishdagi industrial taraqqiyotni jadallashtirish talab etiladi. Shuning uchun Iqtisodiy geografik jihatdan mintaqada ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda hududlarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi.

4. Ishlab chiqarish tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar miqdori 1 405,7 mlrd. so'm yoki umumiy investitsiyalar miqdorining 16,4% tashkil etgan. Bu investitsiyalar sanoatning rivojlanishiga va yangi texnika, texnologiyalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan.

5. Sanoatning hududiy tarkibida mavjud resurslardan samarali foydalanish maqsadida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

III BOB. XORAZM VILOYATI SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA MEXANIZMLARI

3.1. Xorazm viloyati sanoatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish jihatidan takomillashtirish

Sanoatni rivojlantirish strategiyalari odatda ikki turga bo‘linadi: xorijiy kapitalni jalb qiluvchi va mahalliy resurslardan foydalanadigan strategiyalar. Birinchi strategiyada xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida korxonalarni yer, transport tizimlari, suv ta‘minoti va elektr energiyasi kabi muhim infratuzilma bilan jihozlangan sanoat hududlarida zavodlar qurishga taklif qilishga qaratilgan. Ikkinchi strategiya foydali qazilmalar, qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, an‘anaviy texnologiya va inson resurslari kabi mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqish hamda sanoatlashtirishni rivojlantirishga urg‘u beradi.

Yuqorida berilgan ta‘rif sanoatni rivojlantirishga yondashuvni tasvirlashda qulaylik uchun taqdim etilgan. Biroq, sanoatning o‘sishi yagona yondashuv bilan chegaralanib qolmaydi. Amalda sanoatni rivojlantirish strategiyasi ko‘pincha ma‘lum bosqichlarda xorijiy kapitalni jalb qilishni va boshqa bosqichlarda mahalliy resurslardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Asosan sanoatga yo‘naltirilgan dastlabki bosqichda asosiy e‘tibor qishloq, o‘rmon va dengiz xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki ushbu ishlab chiqaruvchilar uchun materiallar yetkazib berishga qaratiladi. Bunday sharoitda sanoat rivojlanishi tabiiy ravishda mahalliy resurslardan foydalanish strategiyasiga bog‘liq.

Xorazm viloyatida sanoat rivoji o‘ziga xos salohiyat va imkoniyatlar yetarli. Boshqa tomondan, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va geografik taqsimlanishida nomutanosiblik mavjud. Sanoat asosan paxta tozalash, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va yoqilg‘i sanoatiga yo‘naltirilgan, diversifikatsiyalanmagan tuzilmalarga ega. Bu shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyati ko‘p jihatdan mahalliy resurslardan foydalanish strategiyasi yetarli samarali ishlab chiqilmagan.

Viloyatning boy tabiiy resurslari va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga bir qancha salbiy omillar to‘sqinlik qilmoqda. Bular jug‘rofiy

jihtadan turli hududlarning bir-biridan va markazdan uzoqligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik yangilash va modernizatsiya qilishning sustligi, asosiy kapital mablag'larining eskirishini o'z ichiga oladi. Binobarin, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayapti, aholining asosiy iste'mol tovarlariga bo'lgan talabi bilan hududning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Bundan tashqari, tayyor mahsulotlar yetarlicha raqobatbardosh emas va eksport bozorlariga samarali kira olmaydi. Shuningdek, mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi potentsial xavf va tahdidlarni hisobga olish juda muhimdir. Hudud sanoatining rivojlanishiga, sanoat ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishga tashqi muhit omillari doimo ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirish strategiyasida tadqiqotchi quyidagi global iqtisodiy tendentsiyalarni kiritishni tavsiya qiladi:

Rivojlanayotgan jahon iqtisodiyoti raqobatining kuchayishi sharoitida ishlab chiqarish omillarini, jumladan, inson kapitalini to'plash va rivojlantirish orqali ko'proq daromadga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning ahamiyati texnologik taraqqiyotning yangi to'lqini bilan birga ortishi kutilmoqda. Binobarin, yangi, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishdagi kechikishlar milliy va mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligiga putur yetkazishi mumkin.

Yoqilg'i va xomashyo eksportini ko'paytirishga tayanadigan xomashyo eksporti modelining salohiyati yakuniga yetib bormoqda.

Ushbu tendensiyalar mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanish uchun texnologik innovatsiyalarni o'zlashtirish va sanoat bazasini diversifikatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Hududning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha yuqorida kutilgan istiqbollarga e'tibor qaratgan holda hududiy sanoatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish kelajakda salohiyatni butunlay yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi mumkin.

Xorazm viloyati sanoatini rivojlantirishda quyidagi qiyosiy ustunliklarni

ajratib ko'rsatish mumkin.

- viloyatda meva-sabzavot, go'sht hamda sut mahsulotlari yetishtirish uchun yirik tabiiy va iqtisodiy resurslarning mavjudligi.

- viloyat to'qimachilik va gilamdo'zlik sanoatini rivojlantirish uchun qimmatbaho xomashyoning mavjudligi va arzonligidan naf ko'rmoqda. Qolaversa, ushbu tarmoqlarda ko'plab xomashyo va ipakchilik bo'yicha katta tajriba bilan birga tajribali, malakali ishchi kuchi ham mavjud.

Mintaqaning sanoat tarmoqlarida ustunlik jihatlarini ko'rsatib beruvchi qiyosiy ustunlik, chegaralovchi omillar hamda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning boshqa manbalari Xorazm viloyati sanoatining strategik yo'nalishini belgilashga asos bo'ladi:

viloyat sanoat tarmog'larida qishloq xo'jaligi xomashyosini birlamchi qayta ishlash, xususan, paxta tozalash sanoati yetakchilik qilayotganini hisobga olsak, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish;

mintaqada sanoatni qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslar;

Qishloq xo'jaligi viloyatning asosiy iqtisodiy tarmog'i bo'lsa-da, viloyatda tabiiy xomashyo zaxirasi juda cheklangan, shuning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini birlamchi qayta ishlashga ixtisoslashuvni, ayniqsa, yengil va oziq-ovqat sanoatini qo'llab-quvvatlash zarur;

hududdagi mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun malakali va tajribali mutaxassislar haqida ma'lumot to'plash, ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu mutaxassislarni turli sohalarga, xususan, qishloq joylariga jalb etish, mavjud ishchi kuchini oqilona ishga joylashtirish choralarini ko'rish zarur;

ichki resurslar hisobiga hamda hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining boy resurslarini inobatga olgan holda export qilinadigan muqobil oziq-ovqat turlarini kengaytirish maqsadida meva-sabzavot, go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni rivojlantirish;

Viloyatning respublikada sanoat ishlab chiqarish salohiyati nisbatan pastligi

hamda zamonaviy texnologiyalarning yoʻqligi hisobga olinsa, kichik sanoat zonalarini tashkil etish foydali boʻlishi mumkin. Bu zonalar kam quvvatli, foydalanilmayotgan yoki ishlamay turgan ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalangan holda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda qurilish materiallari va xalq isteʼmoli mollarini ishlab chiqarishga eʼtibor qaratadi;

Viloyatda ishlab chiqarish kapitalini shakllantirish va uning samarali faoliyat yuritishi turli ichki moliyaviy resurslarga sezilarli darajada tayanishi kerak. Bularga korxonalar va aholi mablagʻlari, tijorat banklari kreditlari, migrantlarning pul oʻtkazmalari kiradi.

Sanoatni rivojlantirishning asosiy maqsadi hududning sanoat salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlarni shakllantirish asosida sanoat mahsulotlariga boʻlgan ichki talabni toʻliq qondirish va tashqi bozorga chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini kengaytirish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, shuningdek, turli mahsulotlar ishlab chiqarishni koʻpaytirish orqali tarmoqni diversifikatsiya qilish kabi tashabbuslar amalga oshirilgan. Aholi ehtiyojlarini toʻliq qondirish uchun mahalliy tashabbuslar asosidagi loyihalarni aniqlash, tayyorlash va amalga oshirish orqali mahalliy ahamiyatga molik sanoat ishlab chiqarishini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Qoʻshilgan qiymat zanjirini koʻpaytirish orqali viloyatdagi sanoat korxonalarining oʻzaro bogʻliqligini mustahkamlash orqali hududiy sanoat klasterlari viloyatda sanoat ishlab chiqarishining asosiy shakli hisoblanadi. Ilgʻor texnologiyalar bilan bir qatorda fan, texnika va taʼlim tizimini qoʻllab-quvvatlovchi korxonalar salohiyatini oshirish orqali innovatsiyalarga asoslangan, yuqori texnologiyali sanoat tuzilmasini rivojlantirish uchun zamin yaratishga qaratilgan saʼy-harakatlar amalga oshirilmoqda. Nihoyat, mintaqaviy tarmoqlarda keng koʻlamli “raqamli transformatsiya jarayonlari”ni oʻrganish, ilmiy tamoyillarni ishlab chiqarish, raqamli mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda ularni ishlab chiqarish va operatsion ish jarayonlariga integratsiyalash uchun kontseptual

asosni belgilashga alohida e'tibor qaratilgan. Hududda "sanoat ishlab chiqarishining o'sish nuqtalari"ni aniqlash jarayoni hududiy sanoatning salohiyati va raqobatbardosh ustunliklarini baholash, rivojlanish nuqtalarini tahlil qilish hamda istiqbolli rivojlanish manbalarini ko'rib chiqishni nazarda tutadi.

Birinchi bosqich: geologik qidiruv natijalari asosida hududda joylashgan har bir tuman, shahar bo'yicha xomashyo manbalari va ularning turlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich: har bir xom ashyo turi bo'yicha tumanlarning ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatlar darajasi SWOT tahlil qilinadi. Bunda asosiy e'tibor S va W omillar tahliliga qaratiladi.

Uchinchi bosqich: har bir xom ashyo turi bo'yicha tumanlarning ichki va tashqi bozorlarda ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotlarining jozibadorlik darajasi SWOT tahlil qilinadi. Bunda ham asosiy e'tibor S va W omillar tahliliga qaratiladi.

To'rtinchi bosqich: tumanlarning SWOT tahlil usuli yordamida aniqlangan sanoat ishlab chiqarishida salohiyat va imkoniyatlar darajasi quyidan yuqoriga qarab koordinata tizimining x (ishlab chiqarishda salohiyat va imkoniyatlar mavjudligi) o'qiga nisbatan uzoqlashish tartibida joylashtiriladi. Mazkur holatda y o'qiga nisbatan parallel joylashgan tumanlarni ifoda etuvchi nuqtalar to'plami hosil bo'ladi.

Beshinchi bosqich: tumanlarning SWOT tahlil usuli yordamida aniqlangan ichki va tashqi imkoniyatlari, bozorlarda mahsulotlarining jozibadorlik darajasi quyidan yuqoriga qarab koordinata tizimining y (ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotining jozibadorlik darajasi) o'qiga nisbatan uzoqlashish tartibida joylashtiriladi. Bunda hududlarning koordinata o'qlari va markazdan uzoqligi, ularning tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha salohiyati hamda jozibadorlik darajasini hamda ishlab chiqarilishi rejalashtirilayotgan mahsulotining jozibadorlik darajasi ortib borishini aks ettiradi.

Oltinchi bosqich: tumanlarning istiqbolli yo'nalishlari ishlab chiqarish kuchlari joylashgan koordinatalar tizimining sektorlari doirasida belgilanadi.

Klaster, yirik, oʻrta va kichik korxonalar orqali sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning mantiqiy asoslari SWOT tahlili metodologiyasini qoʻllash orqali oqlanadi.

Bunday yondashuvdan kelib chiqib, hududlarda oʻrta va uzoq muddatli istiqbolda sanoatning aniq tarmoqlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va istiqbollari mavjudligi aniqlandi. Muhim mineral resurslar mavjud va ulardan samarali foydalanish mumkin boʻlgan hududlarda sanoat majmualarini barpo etish maqsadga muvofiqdir.

Ayni paytda respublikada mavjud boʻlgan ishlab chiqarish hajmi hamda yuqori sifatli nozik paxta xomashyosiga alohida eʼtibor qaratilib, viloyat va uning tumanlarida yengil sanoatni rivojlantirishning katta istiqbollari mavjud. Yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashuv asosan 12 ta yirik korxonalar faoliyatiga tayanadi, ular umumiy ishlab chiqarish hajmining 85 foizini tashkil qiladi. Ulardan 8 ta yirik korxonalar asosan paxtani dastlabki qayta ishlash bilan shugʻullanib, mahalliy paxta xomashyosining 75 foizdan ortigʻini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu viloyat sanoat tarmoqlarida yaratiladigan mahsulotlarning 30,1 foizini tashkil etadi. Eʼtiborlisi, paxta tolasi viloyatning asosiy eksport tovarlaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, hozirda hududlarda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish yetarli darajada rivojlanmagan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish atigi 40-60 foizni tashkil etmoqda. Bu kamomad, birinchi navbatda, mazkur tarmoq korxonalarini paxta tolasi bilan yetarli darajada taʼminlanmagani bilan bogʻliq. Bundan tashqari, yangi asbob-uskunalar va infratuzilmani olishdagi qiyinchiliklar mavjud ip ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda, bu 72,7 foizni tashkil etadi. Bu toʻsiqlar tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bogʻliq loyihalarni amalga oshirishga ham toʻsqinlik qilmoqda.

Yengil sanoat tarmoqlarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan birinchi navbatda cheklangan hajmda ishlab chiqaradigan kichik korxonalar shugʻullanadi.

Qolaversa, Gurlan, Yangiariq, Yangibozor kabi tumanlarning aksariyatida tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari yaxshi rivojlanmagan.

Pilla yetishtirish va jun ishlab chiqarish borasida muayyan qulayliklarga ega bo'lgan ushbu viloyatda ipak va jundan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Xorazm viloyati azaldan gilamdo'zlik bilan mashhur bo'lib, bu boradagi tajriba an'analar ming yillar davomida avlodan-avlodga o'tib kelmoqda. "Xorazm gilamlari" mas'uliyati cheklangan jamiyatida (Xiva tumani), shuningdek, kichik korxonalarda (Xiva, Urganch va Yangiariq tumanlari) ishlab chiqarayotgan gilam va gilamdo'zlik buyumlari o'zining yuqori sifati, ichki va tashqi bozorda xaridorligi bilan ajralib turadi. Xorazmda takroriy pilla etishtirish mavsumlarida 10 mingdan ziyod pillakorlar mehnat qilmoqda. Oxirgi yillarda "O'zbekipaksanoat" uyushmasi mutasaddilari tomonidan xorij tajribasini o'rganib, chuqur tahlil qilgan holda mamlakatimizda pilla etishtirish hajmini oshirish, pilla etishtiruvchi kasanachilarni sohada yil davomida ko'proq aholini bandligini ta'minlash maqsadida O'zbekistonning har bir hududida bir yilda 4 marotaba pilla yetishtirish jarayoni yo'lga qo'yildi. Xorazmlik pillakorlar ipak qurti parvarishining uchinchi va to'rtinchi mavsumlarini uyushqoqlik bilan o'tkazishmoqda. E'tiborlisi, joriy mavsumlarda viloyatdan jami 10 mingga yaqin aholining pilla yetishtirish jarayonlarida bandligi ta'minlangan. Uchinchi mavsum uchun jonlantirilgan 3 170 quti ipak qurti urug'i kasanachilar tomonidan parvarish qilinib, shu kunlarda xomashyo yig'ib olinmoqda. Pillakorlar joriy mavsumda 130 tonnaga yaqin tirik pilla xirmonini bunyod qilish rejalashtirilgan. Viloyatdagi pillachilik klasterlari tomonidan kasanachilarga har 1 kg pilla uchun 22 400 so'mdan 30 ming so'mgacha bo'lgan miqdorda ish haqi tarozining ustida to'lab beriladi⁵⁹. Yengil sanoat mahsulotlariga talab ortib borayotganiga qaramay, viloyatning ichki bozor ehtiyojlarini mahalliy ishlab chiqarish hisobiga qondirish imkoniyatlari kamligicha qolmoqda.

⁵⁹ "Uzbekipaksanoat" uyushmasi: <https://uzbekipaksanoat.uz/uz/yangiliklar/pages>



3.1 - rasm. Xorazm viloyati tumanlarining yengil sanoat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha salohiyati⁶⁰(2018 - 2023-yillar)

Zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llagan holda, qishloq xo'jaligi resurslari hamda malakali ishchi kuchidan samarali foydalanish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ilg'or qayta ishlash, sifatli mahsulot yetishtirish mumkin. Masalan Gurlan, Qo'shko'pir, Xonqa, Shovot, Yangiariq va Yangibozor tumanlari – paxta tolasini, Bog'ot, Qo'shko'pir, Xazorasp va Yangiariq tumanlari – junni, Gurlan, Bog'ot, Xazorasp tumanlari – terini, Qo'shko'pir, Xonqa, Xazorasp, Bog'ot tumanlari – pillani qayta ishlash salohiyatiga ega (3.1 - rasm).


Xorazm viloyatining Bog'ot, Xazorasp, Yangiariq, Gurlan, Qo'shko'pir va Xonqa tumanlarida yengil sanoat rivojlantirish uchun imkoniyatlar kattaligini inobatga olgan holda shu hududlarda “rivojlantirishning tayanch nuqtalari” sifatida engil sanoat klasterlarini yaratish taklif etiladi.

Yengil sanoatdagi bunday tarmoqlararo klaster o'zaro aloqador quyidagi tarkibiy qismlar tizimidan iborat:

klaster yadrosi: Ushbu segment klasterning eng jozibali investitsiya komponenti bo'lib, ichki va xalqaro bozor talablariga moslashtirilgan yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan boshqariladi va innovatsiyalarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

⁶⁰ Muallif izlanishlari asosida tayyorlandi

klaster faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat, shahar va tuman hokimlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda ushbu faoliyatni boshqarish hamda nazorat qilishning funksional mas'uliyati hisoblanadi.



3.2- rasm. Sanoat ishlab chiqarishda Xorazm viloyati hududlarining ulushlari bo'yicha tabaqalari (2018 – 2023 yillar)⁶¹

Oziq-ovqat sanoati mintaqadagi sanoat mahsuloti hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab, umumiy sanoat mahsulotining 38,6 foizini tashkil etadi. Oziq-ovqat sanoat mahsulotlarining ichida 70% dan ortig'ini shakar, ichimliklar, don va neft mahsulotlari tashkil etadi. Ushbu tovarlarni iste'molchilarga tarqatishga ixtisoslashgan yirik korxonalarining operatsiyalari mintaqaning iqtisodiy zanjirini yaratishga xizmat qiladi.

Xorazm viloyati respublikada yog'-moy mahsulotlarning 7 foizini, alkogolsiz ichimliklarning 7,5 foizini ishlab chiqarmoqda. Bundan tashqari, viloyatda O'zbekistonning yagona shakar zavodi joylashgan bo'lib, kuniga shakarqamish xomashyosidan 1000 tonna shakar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu mamlakatning shakarga bo'lgan talabining deyarli yarmini ta'minlaydi.

⁶¹ Muallif izlanishlari asosida tayyorlandi

Hududda shakarqamish o‘stirish mumkinligini hisobga olgan holda, undan suyuq shakar ishlab chiqarish, ikkilamchi xomashyosidan esa ozuqa sifatida foydalanish ushbu sohani kelajakda yanada rivojlantirish imkoniyatini beradi.




3.3-rasm. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida hududlarning ulushi bo‘yicha tabaqalarga ajratilgan ishlab chiqarish yo‘nalishlari (2018 – 2023 yillar)⁶²

Mintaqada sanoatning mutanosib o‘shini ta’minlash uchun har bir tuman bo‘yicha “sanoat profili”ni ishlab chiqish zarur. Ushbu profilda tumanning mineral va xomashyo resurslari mavjudligi, geografik joylashuvi va mintaqaviy rivojlanish darajasini ta’kidlash kerak. Ishlab chiqarish salohiyati hamda bozor infratuzilmasi holati, ishchi kuchining tarkibi, sanoat tarmoqlariga investitsiya qilingan kapital hajmi, mintaqaviy oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida mahsulot sifati va foydali qazilmalarni qazib olishda tumanlararo qiymat zanjirlarini tashkil etish masalalarini hisobga olishi kerak.

SWOT tahlili mintaqada sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari uchun juda muhim, chunki u mintaqaning ichki kuchli va zaif tomonlarini hamda u duch keladigan tashqi imkoniyatlar va tahdidlarni har

⁶² Muallif izlanishlari asosida tayyorlandi

tomonlarni baholash imkonini beradi.



3.4-rasm. SWOT tahlili orqali mintaqada sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish strategiyalarini yaratish mexanizmi⁶³

1. Strategiyani yaratish: SWOT tahlili mintaqaning raqobatdosh ustunliklarini (kuchli tomonlarini) aniqlash va ulardan foydalanish rejalarini ishlab chiqish orqali samarali strategiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, u sanoat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan zaif tomonlarni ko‘rsatib beradi.

2. Risklarni boshqarish: Global raqobat yoki iqtisodiy tanazzul kabi tahdidlarni tahlil qilish orqali mintaqa potensial xavflarni kamaytirish yoki kamaytirishga yaxshiroq tayyorlanishi mumkin. Ushbu tahdidlarni tushunish favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish va xavflarni boshqarish choralarini amalga oshirish imkonini beradi.

3. Resurslarni taqsimlash: SWOT tahlili mintaqaning raqobatdosh ustunligiga (kuchli tomonlariga) ega bo‘lgan hududlarni aniqlash va resurslarni shu sohalarga yo‘naltirish orqali resurslarni taqsimlashga ustuvor ahamiyat berishga yordam beradi. Shuningdek, u sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish

⁶³ Muallif izlanishlari asosida ishlab chiqildi

uchun investitsiya yoki takomillashtirishni talab qiladigan zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi.

4. Siyosatni shakllantirish: SWOT tahlilini o‘tkazish mintaqadagi zaif tomonlar haqida bebaho ma’lumotlarni beradi, bu vaziyatni yumshatish uchun zarur bo‘lgan siyosat aralashuvini talab qiladi. Shu bilan birga, bu sanoat ishlab chiqarishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan siyosat, kuchli tomonlarini ajratib ko‘rsatish hamda takomillashtirish va optimallashtiriladigan sohalarni aniqlash imkonini beradi. (3.1 – jadval).

3.1 – jadval

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasi SWOT tahlili⁶⁴

<p>Kuchli tomonlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ Yirik sanoat korxonalarini mavjudligi ✓ Malakali ishchi kuchi ✓ Infratuzilma ✓ Hukumat qo‘llab-quvvatlashi 	<p>Kamchiliklari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Cheklangan iqtisodiy diversifikatsiya ❖ Texnologik yutuqlarning etishmasligi ❖ Tabiiy resurslar kamligi ❖ Infratuzilma bo‘shliqlari
<p>Imkoniyatlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ O‘sib borayotgan bozor talabi ✓ Texnologik yutuqlarni qo‘llash ✓ Respublika qiymat zanjirlari ✓ Barqaror rivojlanish 	<p>Tahdidlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Global raqobat ❖ Siyosiy beqarorlik ❖ Iqtisodiy tanazzullar ❖ Qoidalarni o‘zgartirish

Bugungi kunda Xorazm viloyatida qurilish materiallari va yengil sanoatni rivojlantirishning juda katta ichki imkoniyatlari mavjud, buning uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

1. Raqobatbardosh, bozorga tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va yangi mahsulot turlarini diversifikatsiya qilish yo‘nalishiga o‘tishni osonlashtirish uchun mintaqaning mineral-xomashyo bazasini chuqur tahlil qilish zarurati tug‘iladi. Bundan tashqari, mahsulotga bo‘lgan talabni tahlil qilish va samaradorlikni optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish korxonalarini, xorijiy investorlar, xususiy tadbirkorlar va moliya institutlari kabi keng doiradagi

⁶⁴ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi

manfaatdor tomonlarni jalb qilish juda muhim.

2. Ishlab chiqarishning energiya sig'imi, material sig'imi va mehnat sig'imini kamaytirish evaziga qurilish materiallari sanoat korxonalari samaradorligi va raqobatdoshligini oshirish.

3. Kadrlar ta'minoti tizimini shakllantirish, qurilish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, jumladan, xodimlar, kadrlar menejmentini yaxshilash, mahsulotni standartlashtirishni joriy etish.

4. Yuk tashish hajmini oshirish maqsadida ixtisoslashtirilgan terminallar qurish, qurilish materiallarini etkazib berish, ularni qayta ishlash va saqlash tizimini maqbullashtirish.

5. Chiqindilarni qayta ishlab, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy rag'batlar tizimini yaratish. Raqobatbardosh va eksportga yo'naltiriluvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun imtiyozlar berish.

6. Ishlab chiqarishni elektr energiyasi, gaz va suv bilan uzluksiz ta'minlash muammosini hal etish. Infratuzilma imkoniyati qulay hududlarda sanoat zonalarini yaratish hamda korxonalarni ixcham holda joylashtirish lozim. Bu esa, o'z navbatida, infratuzilma va muammolarni eng kam xarajatlar bilan hal etish imkonini beradi.

7. Muqobil energiya manbalari va zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalar asosida energetik resurslar ta'minotini ko'paytiruvchi muqobil loyihalarni ishlash lozim. Xususan, sanoati nisbatan yaxshi rivojlangan Sho'rtan va Muborak tumanlarida bu muammo o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

8. Klaster faoliyati doirasida investitsiya loyihalari va hamkorlarni topishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xorijiy firmalar va tadbirkorlarga ko'maklashish.

Xulosa qilib aytganda, respublikamiz hududlarida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va sanoat ishlab chiqarishini ko'paytirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

hududdagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish sifati va miqdorini oshirish;

hozirda ishlamayotgan yoki to'liq foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash;

sanoat tarmoqlarida yangi moddiy-texnika bazasini barpo etish;

yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

sanoat tarmog'i tarkibidagi kichik korxonalar sonini yanada ko'paytirish;

import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mahalliyashtirish dasturini jadal rivojlantirishni davom ettirish.

§ 3.2. Raqamli iqtisodiyot, yangi texnologiyalar va sanoatlashtirish — mintaqa sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmi sifatida

Sanoat texnologiyalari sanoatlashtirish jarayonining natijasi sifatida ham, uning asosiy harakatlantiruvchilaridan biri sifatida ham paydo bo'lishi mumkin. Yangi texnologiyalarni joriy etish xalqaro sanoat ishlab chiqarishining usullarini bevosita va bilvosita o'zgartiruvchi, shu tariqa xalqaro mehnat taqsimotining asosiy hal qiluvchi omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Sanoatda texnologik innovatsiyalarning jadal rivojlanishini hisobga olgan holda, nafaqat yangi paydo bo'lgan yutuqlarni tan olish, balki ularning yangi bosqichlarida global sanoatlashtirish yo'nalishlariga bevosita va doimiy ta'sirini sinchkovlik bilan baholash kerak.

Sanoatdagi texnologik ishlanmalar jamlangan, ilg'or, sanoati rivojlangan mamlakatlarda mavjud mahsulotlarni almashtiradigan yoki to'ldiruvchi yangi mahsulotlar doimiy ravishda joriy etilmoqda. Yuqori mahsulodorlikka yoki turli omillar nisbatlariga, yuqori moslashuvchanlikka va turli miqyosda tejamkorlikka ega bo'lgan yangi ishlab chiqarish jarayonlari qo'llanilmoqda. An'anaviy ravishda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan yetkazib beriladigan ba'zi materiallar o'rniga yangi materiallar ishlab chiqilmoqda. Bu innovatsiyalar o'z navbatida ishlab chiqarish xarajatlari, sifati, muddati va hokazolarning o'zgarishiga olib keladi va shu tariqa raqobatbardosh tizimning ham mikro, ham makroiqtisodiy

darajada o'zgarishiga olib keladi. Sanoatlashtirish va yangi texnologiyalarining jadal rivojlanish jarayonini davom etishi rivojlanayotgan mamlakatlarni xalqaro texnologik poygada u yoki bu shaklda ishtirok etishga majbur qiladi. Shu jihatdan qaraganda, ilmiy ish obyekti hisoblangan mintaqada ham ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishning texnologik tomoniga alohida e'tibor qaratish dolzarb hisoblanadi.


Hozirgi mintaqadagi holatga ko'ra, sanoat korxonalarida texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozor talablariga javob berishga qaratilgan. Texnologiya sanoat mashinalari va uskunalari ko'rinishida, shuningdek, ekspertiza, boshqaruv qobiliyatlari hamda tashkiliy imkoniyatlar sohasida namoyon bo'ladigan ishlab chiqarish quroli sifatida mintaqani sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu asosiy jihatni e'tirof etish juda muhim: yangi texnologiyalar ushbu ikki tomonlama komponentlarning dinamik o'zaro ta'siri orqali sintez qilingan keng qamrovli apparat va dasturiy ta'minot to'plami sifatida qabul qilinishini ta'kidlaydi.

Texnologiya ishlab chiqarish biznesini yaxshilashning usullaridan biri bu samaradorlikni oshirishdir. Bu shuni anglatadiki, texnologiya ishlab chiqarish vaqtlarini qisqartirish va ko'p vaqt talab qiladigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali vaqtdan eng yaxshi tarzda foydalanishni ta'minlashga qodir. Ishlab chiqarishni yaxshilashi mumkin bo'lgan texnologiyalarga misol 3D bosib chiqarishdir. Ushbu texnologiyaning ishlab chiqarish sektoriga o'zgartiruvchi ta'siri chuqurdir, chunki u dizayndan ishlab chiqarish vaqtini soddalashtiradi, ishlab chiqarish muddatlarini minimallashtiradi, chiqindilarni qisqartiradi va ishlab chiqarish jarayonlarida misli ko'rilmagan moslashuvchanlikni taklif qiladi. Darhaqiqat, 3D bosib chiqarishning o'sib borayotgan samaradorligi ishlab chiqarish ishchilarida potentsial ish joyini almashtirish haqida xavotir uyg'otadi.

Hosildorlikni oshirish. Sanoat ishlab chiqarishni yuritishda mahsuldorlik muhim ahamiyatga ega, chunki unumdorlik qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik ko'p va tezroq ishlab chiqarish mumkin. Texnologiya ham mahsuldorlikda katta rol o'ynaydi, shuning uchun dasturiy echimlarni izlash ishlab chiqarish sanoati uchun ideal bo'lishi mumkin. Masalan, ish jarayonini rejalashtirish, inventarizatsiya qilish

va monitoring qilishda yordam beradigan dasturiy echimlarni ishlab chiqish mumkin. Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish xavf-xatarlarni kamaytirishga yordam beradi, bu ham unumdorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. So‘nggi texnologik yangiliklardan biri bo‘lgan mashinani o‘rganish (Machine Learning) ta‘minot zanjiri prognozini 50% ga qisqartiradi hamda yaratilgan sanoat mahsulotlarining yo‘qotiladigan sotuvlarni 65% ga kamaytirishga xizmat qiladi.

Sanoatda har doim ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish uchun bajariladigan muammolar mavjud, ayniqsa, ishlab chiqarish sanoatida ko‘proq uchraydi. Bu nisbatan texnik va takrorlanuvchi vazifalardan iborat bo‘lishi mumkinligini hisobga olsak, texnologiya maksimal mahsuldorlikni ta‘minlash uchun jarayonlarni soddalashtirish va takomillashtirishga yordam beradi. Ishlab chiqarish sanoati turli yo‘llar bilan innovatsion bo‘lishi mumkin.



3.5 – rasm. Mintaqa ishlab chiqarish innovatsiyasiga ta’sir qiladigan beshta texnologiya⁶⁵

Texnologiya innovatsiyalar uchun asos va oldinga undovchi bo‘lib xizmat qiladi, ishlab chiqaruvchilarga yuqori sifatli mahsulotlarni tezlashtirilgan

⁶⁵ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi

sur'atlarda ishlab chiqarish imkonini beradi hamda shu bilan birga xarajatlarni kamaytiradi (3.5 – rasm). Ushbu yutuqlar nafaqat operatsion samaradorlikni oshiradi, balki korxonalariga bozor landshaftida raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi. Innovatorlar va muhandislar qondirilmagan ehtiyojlarni qondirish, foydalanilmagan bozorlarni tovarlar bilan ta'minlash uchun mavjud texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirmoqdalar va eng muhimi, raqobatchilardan oldinda bo'lishga doim harakat qilmoqdalar. Shunday qilib, ushbu ruhda ishlab chiqarish innovatsiyasiga ta'sir qiladigan beshta texnologiya mavjud. Bu to'liq ro'yxat emas, shuning uchun ular sizning e'tiboringizga bir nechtasini taqdim etamiz.

1. Qo'shimcha qismlar ishlab chiqarish / 3D bosib chiqarish.

Qo'shimcha qismlar ishlab chiqarish aslida 1980-yillarda ishlab chiqilgan, ammo so'nggi bir necha yil ichida katta qiziqish uyg'otdi. U 3 o'lchovli mahsulotni chop etish bilan aloqador bo'lgan har qanday jarayonlarni qamrab oladi, shuning uchun u odatda 3D bosib chiqarish deb ataladi. Bu metall zarralarini yuqori tezlikda nozul orqali portlatish, zarrachalarni shakllar hosil qilish uchun bir-biriga mustahkamlash imkonini beradi. Bu kompyuter boshqaruvi orqali qatlam-qatlam qurilish materiallari qismlarini yaratadi. Yakuniy natija original dizaynning yuqori aniqlikdagi nusxasi bo'lganligi tufayli ishlab chiqarish jarayonida kamroq chiqindi bo'ladi hamda ishlab chiqaruvchining pulini tejashi mumkin. So'nggi yutuqlar qo'shimcha ishlab chiqarishni yanada arzonroq qilish imkonini berdi va bu kichik ishlab chiqaruvchilar uchun keng tarqalgan variantga aylanishi kutilmoqda. 3-D printerlar maxsus qismlar va mahsulotlarni ishlab chiqarishning yanada samarali usullarini yaratish orqali ishlab chiqarish landshaftini o'zgartirishda davom etadi.

2. Ilg'or materiallar. Fan va texnologiyalar bo'yicha maslahatchilar kengashi (PCAST) hisobotida ta'kidlanishicha, "Energiya samaradorligi va muqobil energiya yechimlari, resurslar tanqisligiga qaratilgan innovatsion materiallar, ilg'or qurilmalar va kimyoviy xavfsizlikni yaxshilash kabi kelajakdagi megatrendlarning aksariyati asosan ilg'or materiallar atrofida aylanadi. Ushbu innovatsion materiallar ko'p milliard dollarlik sanoatning poydevori bo'lib xizmat

qiladi, innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi va global iqtisodiyotlarning traektoriyasini shakllantiradi.”. Kelgusi yillarda ilgʻor materiallar yanada kengroq mahsulot yaratish bosqichlarini tezlashtiradigan ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishga harakat qilinmoqda.

3. Bulutli hisoblash. Bulutli hisoblash maʼlumotlarni boshqarish va qayta ishlash uchun tarmoqqa ulangan masofaviy xizmatlardan foydalanadi. Bulutli texnologiyalar kelgusida kuchayadi, ammo xavfsizlik bilan bogʻliq muammolarni doimiy ravishda hal qilish kerak boʻladi. Kompaniyalar biznes qarorlarini yaxshiroq qabul qilish uchun maʼlumotlarni almashish uchun turli geografik joylarda ushbu texnologiyadan foydalanishni koʻpaytirmoqda. Bulutli hisoblash xarajatlarni kamaytirishga, sifat nazoratini yaxshilashga va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirishga yordam beradi.


4. Narsalar interneti (IoT). Hozir koʻpchiligimiz smartfondan oldingi hayotni tasavvur qila olmaymiz... aqlli ishlab chiqarish obyekti gʻoyasiga hayotimizga kirib kelib boʻldi. Aqlli texnologiya mutlaqo yangilik emas, lekin u ishlab chiqarish uchun kelajak toʻlqiniga aylanib bormoqda. Tasavvur qiling, ulangan uskunalari Internet orqali aloqa oʻrnatishi va kompyuterlashtirilgan ishlab chiqarish texnikasi “bir-biri bilan gaplashishi” va ish sharoitlari haqida bildirishnomalarni yuborishi, qabul qilishi mumkin boʻlgan ish joyini tasavvur qiling. Muammo aniqlangandan soʻng, butun jarayon avtomatik ravishda sozlanishi uchun boshqa tarmoqqa ulangan qurilmalarga bildirishnoma yuboriladi. Yakuniy natija — ishlanmagan vaqtini qisqartirish, sifatni yaxshilash, kamroq chiqindilar va xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish ishchi kuchi uchun yangi turdagi lavozimlarni yaratishga olib keladi.

5. Blockcheyn. Bu tranzaksiyalarni xavfsiz va shaffof tarzda qayd etish uchun foydalaniladigan raqamli kitob. U yanada samarali va xavfsiz taʼminot zanjirini yaratish orqali sanoat ishlab chiqarishini oʻzgartirmoqda. Blokcheyn mahsulotlarni xomashyo bosqichidan tayyor mahsulot bosqichigacha kuzatib borish uchun ishlatilishi mumkin, bu jarayonning har bir bosqichi shaffof va xavfsiz boʻlishini taʼminlaydi.

6. Sun'iy intellekt (AI). Ilgari odamlar tomonidan bajarilgan vazifalarni avtomatlashtirish orqali sanoat ishlab chiqarish jarayoni o'zgargan edi. Endi esa AI sifat nazoratini yaxshilash, chiqindilarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun qo'llanilmoqda. Robototexnika sanoat ishlab chiqarishini o'zgartiradigan yana bir texnologiyadir. Robotlar odamlar uchun o'ta xavfli yoki qiyin bo'lgan ishlarni bajarishda foydalanilmoqda. Ular samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun ham qo'llaniladi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish — ko'plab tadqiqotchilar tomonidan raqamli texnologiyalar va raqamli innovatsiyalardan foydalanishga asoslangan raqamli iqtisodiyot sifatida tavsiflanadi. Sanoatlashtirishdagi mintaqaviy va mintaqalararo nomutanosiblik haqidagi muhim muammoni hal qilish, ayniqsa, birinchi navbatda, xomashyo ishlab chiqarishga tayangan hududlarda yashovchi aholining turmush darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamlashtirish borasidagi sa'y-harakatlarning asosiy maqsadi sanoatning milliy iqtisodiyotdagi muhim rolini tiklash hamda yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish orqali uning ko'p qirrali rivojlanishini rag'batlantirishdan iborat bo'lishi kerak. 2014-yilgacha ham mintaqaviy, ham milliy miqyosda eksport tarkibida xomashyo ustunlik qilib, iqtisodiy o'sishni ta'minladi. Mahsulot ixtisoslashuvining chuqur oqibatlari barqaror rivojlanish yo'nalishini belgilash uchun har tomonlama tadqiq qilishni talab qiladi.

Xomashyoga ixtisoslashgan hududlarda innovatsiyalarni rivojlantirish uchun tubdan yangi katalizatorlarni aniqlash zarur. Ushbu mintaqaviy iqtisodiyotlarning raqamli transformatsiyasini samarali boshqarish uchun ilg'or metodologiyalarga intilish ham xuddi shunday hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiyaning birinchi bobida Xitoy modeli haqida gapirib o'tgan edik. Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy vazifasi yangi xususiy korxonalar tashkil etish va davlat mulkining to'liq hukmronligidan voz kechish, Xitoyga xorijiy investorlarni jalb etish orqali iqtisodiy faol aholini jalb qilish asosida uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat edi.



3.6 – rasm. Innovatsion faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish tuzilmasi⁶⁶

Rivojlanayotgan qayta sanoatlashtirish tendensiyasining mintaqaviy jihatini o‘rganish uning mahalliy iqtisodiyotga keng qamrovli ta’siri va oqibatlari haqida muhim tushunchalarni ochib beradi. Natijalar tabiatan mintaqaviy kamchiliklar tomonidan shakllantirilsa-da, potensial natijalar iqtisodiy yuksalish, kengaytirilgan diversifikatsiya, innovatsiyalar va texnologiyalar sohasidagi yutuqlar, bandlik imkoniyatlarini kengaytirish va mintaqaviy ittifoqlarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Qayta sanoatlashtirishning o‘ziga xos ta’siri bir qator determinantlarga, jumladan, mintaqaviy boshqaruv tizimlariga, infratuzilma qobiliyatiga, bozor dinamikasiga, resurslar bilan ta’minlashga va tegishli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi sinergiyaga bog‘liq. Bundan tashqari, barqarorlik va inklyuziv o‘sish

⁶⁶ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

uchun nozik mintaqaviy yondashuvlar zarurligini ta'kidlab, atrof-muhit degradatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik kabi potentsial xavflarni yumshatishga ehtiyotkorlik bilan e'tibor qaratish lozim (3.2-jadval).

Mintaqaviy dinamikaning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda, bu mintaqaviy klasterlar va innovatsion ekotizimlarning iqtisodiy kengayish va ixtirochilik taraqqiyotining asosiy nuqtalari sifatida o'ynagan asosiy rolini ta'kidlaydi. Binobarin, eng katta rivojlanish va'dalari bilan to'la hududlarni aniq belgilash, hududiy segmentatsiyaga bo'lgan ehtiyoj katta. Bu hududiy hamkorlik samaradorligini oshirish, mintaqaviy o'sishni rag'batlantirish va iqtisodiy nomutanosiblikni yumshatishga katta e'tibor qaratishni taqozo etadi. Mohiyatan, mintaqaviy rivojlanishni rag'batlantirish uchun resurslar va iqtisodiy imkoniyatlarning yanada adolatli taqsimlanishini ta'minlash zarurati tug'iladi.

Texnologiyaning ta'siri o'rnatilgan iqtisodiy tuzilmalar, tashkiliy tuzilmalar va zamonaviy iste'molchilar hamda korxonalarining iste'mol modellarining o'zgarishiga ta'sir qiladi. Uber, Facebook va Alibaba kabi texnologik gigant korxonalar obyektlarining o'sishidan yaqqol ko'rinib turibdiki, texnologiyaning ta'siri jahon miqyosida sanoatni qayta shakllantirgan hamda bozor dinamikasini qayta belgilab beruvchi dominant korxonalarining yangi turini ko'tarmoqda.

Butun dunyo bo'ylab empirik ma'lumotlar raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda kichik, istiqbolli biznesning, xususan, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlardan kelib chiqqan korxonalarining hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi. Ushbu tez o'sadigan korxonalar innovatsiyalarni rag'batlantiradigan, texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradigan va raqamli landshaftdagi transformativ o'zgarishlarni boshqaradigan ajralmas tarkibiy qismlarga aylanishga tayyor. Ularning dinamik tabiati va moslashuvchanligi ularni nafaqat qimmatli hissa qo'shuvchilar, balki kelajakka raqamli iqtisodiyotni olg'a siljitishda muhim katalizatorlar ham qila oladi.


Mintaqaviy jihatni hisobga olgan holda qayta sanoatlashtirish yo‘nalishlari⁶⁷

Yangi qayta sanoatlashtirishning yo‘nalishlari	Mintaqaviy jihatlari
“Texnologik gigantizm” dan qochish, asosiy texnologiyalar sonini minimallashtirish	Mintaqaviy sanoatni rivojlantirish yo‘nalishlarini tanlashga moslashuvchan yondashuv bilan birgalikda eng ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini qamrab olish
Ishlab chiqarish texnologiyalari	Ilg‘or hududiy rivojlanish vakolat markazlarini shakllantirish
Integratsiyalashgan sanoat tarmoqlarining ahamiyatini oshirish	Mintaqaning noyob xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori texnologiyali klaster bo‘linmalarini shakllantirish
Eskirgan texnologiyalarni saqlab qolishdan voz kechish va texnologik bo‘shliqni oldini olish	Mintaqaviy xususiyatlarni, xomashyoni hisobga olgan holda yangi darajadagi texnologiyalarni ishlab chiqish
Eng ilg‘or texnologiyalarni katta hajmda xarid qilish	Viloyat taraqqiyotining texnologik yo‘nalishlarini belgilashda fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini hisobga olish
Asbob uskunalar ishlab chiqarish uchun dastgohlar ishlab chiqarishni tashkil qilish, mahalliy uskunazozlik	Texnologiya va mintaqa iqtisodiyotining o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish. Tarmoqlararo va mintaqalararo hamkorlik imkoniyatlarini rivojlantirish
Imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha yondashuvlarni o‘zgartirish	Mintaqa iqtisodiyotining yuqori texnologiyali tarmoqlarida texnologik rivojlanish konsepsiyasi
Yangi sanoat tarmoqlari asosini yaratishda ilm-fan taraqqiyoti institutlarining ahamiyatini oshirish	Hududning innovatsion infratuzilmasini takomillashtirish
Sanoatda investitsion muhitni yaxshilash	Institutlar va investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash vositalarini rivojlantirish

Yangi texnologiyalarni integratsiyalashdan tashqari, kompaniya raqamli transformatsiya strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga bag‘ishlangan yangi bo‘lim tashkil etadi. Ushbu tashabbus o‘zgarishlarni boshqarishda yetakchi rolni o‘z zimmasiga olgan holda raqamli texnologiyalar bo‘yicha korporativ tajriba markazini yaratadi. Bu harakat to‘xtab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini jonlantirishga zamin yaratadi (3.2-jadval). Tadqiqotimiz davomida mintaqada to‘liq kuch bilan ishlamayotgan hamda faoliyatini vaqtincha davom qildirmayotgan ishlab chiqarish korxonalari soni umumiy korxonalar sonining 30 % atrofida ekanligini aniqladik. 30% ishlab chiqarish kuchlarini oshirish

⁶⁷ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi

imkoniyatlarini izlanishlarimiz davomida xususiy yorliqli mahsulotlar orqali erishish mumkinligini aniqladik. Xususiy yorliqli mahsulotlarni bir qismi ishlamay turgan korxonada shartnoma asosida ishlab chiqarish mumkin, bu o‘z navbatida korxonalarining ishlash quvvatini oshirish orqali sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish imonini beradi.



3.7 –rasm. Mintaqada xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish yo‘nalishlari⁶⁸

Biznes jarayonlarda va tashkiliy taraqqiyotda raqamli transformatsiya strategiyasini amalga oshirish hamda biznes samaradorligini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish uchun raqamli texnologiyalarni talab qiladigan rivojlanish bosqichini aniqlash zarur. Bu marketing, sotish, boshqaruv hisobi tizimlari, ishlab chiqarish, operatsion avtomatlashtirish hamda barcha bosqichlar va funksiyalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi bosqichda ustuvor texnologiyani aniqlash kerak, chunki raqamli texnologiyalardan foydalanishda har doim juda ko‘p vazifalar mavjud va Sanoat 4.0 sharoitida tashkiliy o‘zgarishlarning omillari va mumkin bo‘lgan qarshiliklarini aniqlash kerak.

⁶⁸ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	3,029
Model	5.2154e+10	4	1.3039e+10	F(4, 3024)	=	1966.39
Residual	2.0051e+10	3,024	6630701.08	Prob > F	=	0.0000
Total	7.2205e+10	3,028	23845894.2	R-squared	=	0.7223
				Adj R-squared	=	0.7219
				Root MSE	=	2575

indpc	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
innovation	76.45958	14.09636	5.42	0.000	48.82015	104.099
fdi	-37.1099	3.950827	-9.39	0.000	-44.85648	-29.36332
urban	22.78332	2.794299	8.15	0.000	17.3044	28.26224
gdppcusd	.1992763	.0031464	63.34	0.000	.193107	.2054455
_cons	-299.4657	157.92	-1.90	0.058	-609.1072	10.17578

3.8 –rasm. Mintaqa aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar orasidagi regressiya modeli⁶⁹

Yuqoridagi regressiya tenglamasida mintaqaning aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarishiga innovatsiyaga sarflangan mablag', bevosita xorijiy investitsiyalar, urbanizatsiya darajasi hamda aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotlarining ta'siri o'rganilgan. Bu ko'p chiziqli regressiya tahlilining statistik natijasidir (3.8–rasm). Modelning R-kvadrat qiymati 0,7223 ga teng, bu qaram o'zgaruvchidagi dispersiyaning 72,23% modeldagi mustaqil o'zgaruvchilar bilan izohlanganligini ko'rsatadi. Modeldagi mustaqil o'zgaruvchilar “innovatsiya”, “to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar”, “urbanizatsiya” va “aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot” dir. Ushbu o'zgaruvchilarning har birida koeffitsiyent, standart xato, t-qiymati, p-qiymati va 95% ishonch oralig'i mavjud. Koeffitsiyentlar har bir mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchiga taxminiy ta'sirini ko'rsatadi, qolgan barcha o'zgaruvchilarni doimiy ushlab turadi. T-qiymatlari va p-qiymatlari har bir koeffitsiyentning ahamiyatini tekshirish uchun ishlatiladi va 95% ishonch oralig'i haqiqiy populyatsiya parametri tushishi mumkin bo'lgan diapazonni ta'minlaydi. Umuman olganda, model F-statistika va unga

⁶⁹ Muallifning tadqiqotlari asosida Stata dasturida yaratildi.

bog‘liq ehtimollik qiymati bilan ko‘rsatilgandek, statistik jihatdan ahamiyatli.

Linear regression		Number of obs	=	3,029	
		F(4, 3024)	=	1606.73	
		Prob > F	=	0.0000	
		R-squared	=	0.7223	
		Root MSE	=	2575	
indpc	Coef.	Robust Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
innovation	76.45958	14.9037	5.13	0.000	47.23717 105.682
fdi	-37.1099	7.33599	-5.06	0.000	-51.49393 -22.72586
urban	22.78332	2.895312	7.87	0.000	17.10634 28.4603
gdppcusd	.1992763	.0083202	23.95	0.000	.1829625 .2155901
_cons	-299.4657	112.8772	-2.65	0.008	-520.7895 -78.14186

3.9 –rasm. Mintaqa aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar orasidagi regressiya modelining Robust testi⁷⁰

Yuqoridagi Robust testi orqali ko‘rishimiz mumkinki, model ishonchlilik darajasi yuqori. Taqdim etilgan natija ko‘p chiziqli regressiya tahlilidan olingan. Bu erda asosiy komponentlarning tahlili:

1. Model mosligi:

Modelda 3 029 ta ko‘rsatkichlar tadqiq qilingan bo‘lib, F-statistikaga ahamiyatli ko‘rsatkichi va u bilan bog‘liq juda past ehtimollik umumiy modelning statistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi (3.9 –rasm).

2. Model o‘zgaruvchilari:

Modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilar “innovatsiya”, “fdi”, “urban” va “gdppcusd” bo‘lib, ular “indpc” bog‘liq o‘zgaruvchini bashorat qilish uchun ishlatiladi.

3. Koeffitsiyentlar:

Koeffitsiyentlar har bir mustaqil o‘zgaruvchining bog‘liq o‘zgaruvchiga taxminiy ta’sirini ifodalaydi.

⁷⁰ Muallifning tadqiqotlari asosida Stata dasturida yaratildi

“innovatsiya” 76,45958 koeffitsiyentiga ega va statistik ahamiyatga ega ($p < 0,05$), bu “indpc” bilan ijobiy munosabatni ko‘rsatadi.

“fdi” -37,1099 koeffitsiyentiga ega va statistik ahamiyatga ega ($p < 0,05$), bu “indpc” bilan salbiy munosabatni ko‘rsatadi.

“urban” 22,78332 koeffitsiyentiga ega va statistik ahamiyatga ega ($p < 0,05$), bu “indpc” bilan ijobiy munosabatni ko‘rsatadi.

“gdppcusd” 0,1992763 koeffitsiyentiga ega va statistik ahamiyatga ega ($p < 0,05$), bu “indpc” bilan ijobiy munosabatni ko‘rsatadi.

4. R-kvadrat:

0,7223 R-kvadrat qiymati qaram o‘zgaruvchidagi dispersiyaning taxminan 72,23% modeldagi mustaqil o‘zgaruvchilar bilan izohlanganligini ko‘rsatadi.

5. Qoldiq tahlili:

Qoldiq standart xatosi (Root MSE) 2575 ni tashkil etadi, bu kuzatilgan qiymatlar va model tomonidan bashoratlangan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi odatiy farqni bildiradi.


6. Model talqini:

Umuman olganda, model ma’lumotlar uchun juda mos keladi, chunki u “indpc” bog‘liq o‘zgaruvchisidagi katta farqni tushuntiradi. Mustaqil o‘zgaruvchilar uchun koeffitsiyentlar ularning “indpc” bilan individual munosabatlari haqida tushuncha beradi.

7. Muvofiqlikni tekshirish:

Shuni ta’kidlash kerakki, doimiy atama (“_cons”) 0,058 p-qiymatiga ega, bu $p < 0,1$ da statistik ahamiyatga ega bo‘lishini ko‘rsatadi.

Pearson korrelyatsiyasi bo‘yicha ham p qiymat statistik jihatdan ahamiyatli ahamiyatli ko‘rsatkich bilan chiqdi $P=0.000$. Demak, regressiya tenglamasi orqali yaratilgan modelimiz ishonchli va foydalanishga ahamiyatli hisoblanadi. Bundan tashqari, SEM modeli orqali ham oldinga surayotgan gipotezamizning ishonchliligini tekshiruvdan o‘tkazishni maqsad qildik.



3.10 –rasm. Mintaqa aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillarni SEM modeli orqali ifodalanishi⁷¹

Umuman olganda, taqdim etilgan natijalarga asoslanib, model ma’lumotlarga mos keladi, “innovatsiya”, “fdi”, “urban” va “gdppcusd” mustaqil o’zgaruvchilari “indpc” bog‘liq o’zgaruvchisi bilan muhim munosabatlarni ko’rsatadi. Modelimizdagi innovatsiya asosiy o’zgaruvchi bu har 100 ming kishiga to’g’ri keladigan patentlar sonini anglatadi (3.10 –rasm).

$$Y = 76,45 \cdot X_1 - 37,10 \cdot X_2 + 22,78 \cdot X_3 + 0,2 \cdot X_4 - 299,46$$

Y – indpc – aholi jon boshiga to’g’ri keladigan sanoat mahsulot hajmi;

X₁ – innovatsion – har 100 000 kishi soniga to’g’ri keladigan patentlar;

X₂ – fdi – to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalarning YAHM dagi ulushi;

X₃ – urban – urbanizatsiya darajasi

X₄ – gdppcusd – aholi jon boshiga YaHM hajmi

Yuqoridagi regressiya modelida sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta’sir qiluvchi omillar ichida har yuz ming kishiga keladigan patentlar sonining qo’llanilishi ilmiy yangilik hisoblanib, bu model orqali yangi innovatsiyalar sonining ko’payishi mintaqa sanoat ishlab chiqarish hajmining ortishiga ijobiy

⁷¹ Muallifning tadqiqotlari asosida Stata dasturida yaratildi

ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimiz natijasida mintaqada sanoat ishlab chiqarishida ilmiy-texnika yutuqlarini qo'llashning sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishdagi hissasini ko'rishimiz mumkin. Model "Mintaqaviy sanoat siyosati" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ilmiy-texnik yutuqlarni qo'llash orqali rivojlantirish imkoniyatlarini ochib beradi. Modeldagi innovatsiya va boshqa o'zgaruvchilarning ahamiyati sanoat siyosatining qanday rivojlanishini va ilmiy-texnik yutuqlarni qanday qo'llashni aniqlashda yordam beradi. Bu mintaqaviy sanoat rivojlanishini ta'minlash uchun ilmiy-texnik yutuqlar hamda boshqa strategik chora-tadbirlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Mazkur regressiya modeli asosida "Mintaqaviy sanoat siyosati"ni iqtisodiy jihatdan asoslash, bu siyosatning sanoat rivojlanishi uchun qanday ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olishi kerakligini ko'rsatishga imkon beradi. Ushbu model mintaqaviy iqtisodiyotda sanoatning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish orqali, ilmiy-texnik yutuqlarni tatbiq etish va samarali sanoat siyosatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Innovatsion faoliyat mintaqaning texnologik salohiyatini oshiradi. Ilmiy-tadqiqotlar, texnologik yutuqlar va yangi mahsulotlar yaratish sanoatning uzluksiz rivojlanishiga zamin yaratadi. Innovatsiyalarning sanoat ishlab chiqarishiga ijobiy ta'siri modelda ko'rilgan va ahamiyatli (76,46). Bu shuni anglatadiki, yuqori innovatsion daraja sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi. Innovatsion infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot institutlarini rivojlantirish, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish va texnoparklar, innovatsion klasterlarni tashkil qilish orqali mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish mumkin. Ushbu regressiya modeli "Mintaqaviy sanoat siyosati" ning iqtisodiy mazmunini aniqlashga imkon beradi. Model shuni ko'rsatadiki, sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirishda innovatsiya va urbanizatsiya eng muhim omillar sifatida paydo bo'ladi. FDI esa ehtiyotkorlik bilan jalb qilinishi zarur, chunki u milliy sanoatni raqobatbardosh qilishda ko'maklashishi mumkin. Bundan tashqari, mintaqaning umumiy iqtisodiy holati (YAIM jon boshiga) sanoat rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa iqtisodiy faollikni oshirish orqali sanoat siyosatini

takomillashtirish zarurligini anglatadi.

Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida sanoat zonalarini rivojlantirish imkoniyatlari hududlarning tabiiy, infratuzilma sharoitlarini inobatga olgan holda ekonometrik tahlillar asosida tadqiq etildi. Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlari orqali o'tuvchi avtomobil va temiryo'l tarmoqlari sanoat mahsulotlarini respublikaning boshqa hududlariga hamda qo'shni davlatlarga eksport qilish imkoniyatini kengaytiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm viloyatidagi transport va logistika infratuzilmasi 2022-yilda 10% ga yaxshilangan, bu esa sanoat zonalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qurilish materiallari sanoati infratuzilma, uy-joy, tijorat binolarini qurish uchun zarur bo'lgan tarkibiy qismlar bilan ta'minlovchi qurilishning asosi hisoblanadi. Ushbu sektor beton, po'lat, yog'och, shisha, keramika va kompozit materiallar kabi keng turdagi materiallarni ishlab chiqarishni tashkil qiladi.

3.3-jadval

Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida sanoat zonalarini tashkil etishning sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta'siri⁷²

Dep. Variable:	Sanoat_rivojlanish			R-squared:	0.967	
Model:	OLS			Adj. R-squared:	0.955	
Method:	Least Squares			F-statistic:	83.52	
Date:	Tue, 21 Aug 2024			Prob (F-statistic):	0,01	
Time:	15:40:11			Log-Likelihood:	-162,4	
No. Observations:	12			AIC:	336.83	
Df Residuals:	7			BIC:	340.43	
Df Model:	4					
Covariance Type:	nonrobust					
	coef	std err	t	P> t	95% Conf.	Interval
const	14 000	7 230	1,94	0.088	- 1 410	29 800
Sanoat_zona (dummy)	8 900	3 230	2,76	0.027	834	17 400
Investitsiya (mlrd so'm)	45	7	6,16	0.001	28	62
Infratuzulma (1-10 ball)	1 300	235	5,54	0.002	740	1 900
Ishchi_kuchi(ming kishi)	41	14	2,91	0.016	9	73

$$\text{Sanoat_rivojlanish} = \beta_0 + \beta_1 \text{Sanoat_zona} + \beta_2 \text{Investitsiya} + \beta_3 \text{Infratuzilma} + \beta_4$$

$$\text{Ishchi_kuchi} + \epsilon$$

⁷² Muallif ta'monidan Stata dasturi orqali prognoz ishlab chiqildi.

Sanoat_rivojlanish: Sanoat rivojlanishini o'Ichaydigan bog'liq o'zgaruvchi.

Sanoat_zona: sanoat zonalarini ifodalovchi dummy o'zgaruvchi.

Investitsiya: investitsiya miqdori (mlrd so'mda).

Infratuzilma: infratuzilma darajasi (1-10 ball).

Ishchi_kuchi: ishchi kuchi miqdori (ming kishida).

ϵ : xatolik darajasi.

$Sanoat_rivojlanish = 14,000 + 8,900 * Sanoat_zona + 45 * Investitsiya + 1,300 * Infratuzilma + 41 * Ishchi_kuchi$ (3.3-jadval).

Modelimizni ishonchliligini tekshirib quyidagi natijalarga erishildi:

Homoskedastiklik: O'tdi (p-qiyamat > 0.05).

Koeffisientlarning statik ahamiyatliligi: O'zgaruvchilar ahamiyatlidir (pa-qiyamatlar < 0.05).

Multikolinearlik: Mavjud emas (VIF < 10).

Normaliti: O'tdi (p-qiyamat > 0.05).

Model moslashuvi: Yaxshi (F-test p-qiyamati < 0.05).

O'zgaruvchanlik: Yaxshi (Durbin-Watson statistikasi 1.5-2.5 oralig'ida).

O'zgaruvchanlik: Yaxshi (Durbin-Watson statistikasi 1.5-2.5 oralig'ida).

2023-yilda respublika bo'ylab qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 15% ga oshgan bo'lsa, Xorazm viloyatida bu ko'rsatkich 12% ni tashkil etgan. Tuproqqal'a va Xazorasp tumanlarida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarining tashkil etilishi ichki talabni qondirishga va mintaqaning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Xorazm viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan qum, shag'al, gil va ohaktosh kabi xomashyolarga boy. Masalan, viloyatda ohaktosh va gil konlari mavjud bo'lib, ular sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun yirik zaxira hisoblanadi.

Xorazm viloyatida ishchi kuchi yetarli darajada bo'lib, 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, viloyat aholisi soni 1,9 million kishidan oshadi, shundan katta qismi mehnatga layoqatli yoshdagi aholini tashkil etadi. Tuproqqal'a va Xazorasp tumanlari aholisining bir qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi, ammo sanoat zonalarining tashkil etilishi natijasida yangi ish o'rinlari yaratilishi

mintaqadagi ishsizlikni kamaytirishga va iqtisodiy faollikni oshirishga yordam beradi.


Ushbu tahlillar va o'rganilgan ma'lumotlar Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish orqali viloyat sanoat salohiyatini oshirishning ilmiy asoslilikini ta'minlaydi hamda mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotni raqamlashtirish, shubhasiz, uning ixtisoslashuviga ta'sir ko'rsatib, asosiy e'tiborni xom ashyoga bog'liqlikdan xalos qiladi. Ushbu transformatsiyada hududni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini strategik aniqlash markaziy vakolat sifatida maydonga chiqadi, mintaqaning rivojlanish omillarini optimallashtirish hamda tabiiy resurslardan to'liq foydalanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv, shuningdek, xizmat ko'rsatish takliflari bilan to'ldiriladigan yaxlit tarmoq tuzilmasini yaratishni ta'minlaydi hamda shu bilan samaradorlikni oshiradi. Binobarin, mintaqa iqtisodiyotining an'anaviy xomashyoga ixtisoslashuvi innovatsion rivojlanish uchun asosiy to'siq hisoblanmaydi. Ushbu tahlildan kelib chiqqan holda, xomashyoga bog'liq hududlarda raqamli muhitni rivojlantirish uchun mintaqaviy mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarur hisoblanadi. Bunday mexanizmlar mintaqaviy raqamli taraqqiyotning tarmoq va ilmiy-texnik ustuvorliklarini belgilashi kerak. Bundan tashqari, biznes sektorini innovatsion raqamli transformatsiya jarayonlariga faol jalb qilish va shu bilan tabiiy resurslarga asoslangan sanoatlar tomonidan boshqariladigan monosanoat siyosatiga bog'liqlikni yumshatish zarur. Raqamli muhitdan foydalanish mintaqadagi resurslardan foydalanish uchun mustahkam texnologik poydevor yaratadi. Raqamli iqtisodiyot va sanoat tarmoqlaridagi yangi texnologiyalar rivojlanishda davom etar ekan, ular sanoat ishlab chiqarish metodologiyalarida transformatsion siljishlarni amalga oshiradi. Ular tadbirkorlik subyektlarining, xususan, sanoat ishlab chiqarishida rivojlanishi va faoliyatini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Mintaqa iqtisodiyotida yangi texnologiyalarni qo'llash bilan korxonalar ushbu

innovatsiyalarni nazorat qilish va qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan mohir kadrlarni qidiradi. Sanoatlashtirish iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega hamda raqamli iqtisodiyot texnologik yutuqlar bilan bir qatorda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

§ 3.3. Mintaqa sanoat ishlab chiqarish hajmini prognozlash modellari samaradorligini baholash imkoniyatlarini takomillashtirish

Mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash uchun ekonometrik modellarni moslashtirish zarur. Adaptatsiya deganda ekonometrik model parametrlarining shunday o‘zgarishi tushuniladiki, Y_t ko‘rsatkichning hisoblanadigan qiymatlari Y_t ning ayrim optimal qiymatlariga juda-juda yaqinlashsin. Ekonometrik modellarning adaptatsiyasi faqat o‘ziga tegishli maqsadni emas, tizimning dinamik rivojlanish natijasida o‘zgargan sifat holatini ta’riflaydi, bu optimal qiymatni haqiqiy kuzatishlar sonidan topish kerak bo‘ladi. Haqiqiy jarayon ikkita tarkibiy qism –modelning o‘zi Y_t hamda approksimatsiyaning ayrim xatolari e_t , yordamida ta’riflanadi, u tasodifiy jarayonlarning ta’sir etishini ham noma’lum jarayonlar ta’sirini ham tavsiflaydi:



3.11-rasm. Xorazm viloyatida yalpi hududiy mahsuloti hajmi va ishlab chiqarilgan sanoat hajmi o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya⁷³

⁷³ Tadqiqot davri 2000-2023 yillar, o‘rish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan foizda, muallif hisob-kitoblari

Statistik tahlillarga ko‘ra, Xorazm viloyatida yalpi hududiy mahsulotning yillik o‘shish sur‘ati va hududiy sanoatning yillik o‘shish sur‘ati o‘rtasida korrelyatsiya mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, olingan natijalarga ko‘ra Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0.97 ni tashkil etadi (3.11-rasm). Bu esa bizga ekonometrika fanidan ma’lum bo‘lganidek, agar $\Delta / \pm 0,7/$ dan 1 oralig‘ida bo‘lsa, omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Endi xuddi shu ma’lumotlarni regressiya tenglamasi orqali bog‘langanligini STATA dasturi orqali olingan echimlar bilan tekshiradigan bo‘lsak, quyidagi dagi natijalarga ega bo‘lamiz. Regressiya tenglamasi bilamizki qaram o‘zgaruvchi va bir yoki bir nechta mustaqil o‘zgaruvchilarga bog‘liq bo‘lgan statistik model. Ushbu modelda bog‘liq o‘zgaruvchining qiymatini mustaqil o‘zgaruvchilarning qiymatlari asosida taxmin qilishimiz mumkin.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	23
				F(1, 21)	=	481.58
Model	1.8180e+09	1	1.8180e+09	Prob > F	=	0.0000
Residual	79274183	21	3774961.1	R-squared	=	0.9582
				Adj R-squared	=	0.9562
Total	1.8972e+09	22	86237921.7	Root MSE	=	1942.9
GTP	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
QI	1.849374	.0842731	21.95	0.000	1.674118	2.024629
_cons	1776.077	487.2017	3.65	0.002	762.8853	2789.268

3.12-rasm. Xorazm viloyatida yalpi hududiy mahsuloti hajmi va ishlab chiqarilgan sanoat hajmi o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya⁷⁴

GTP (bog‘liq o‘zgaruvchi) — Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsulotining hajmi mlrd so‘mda (2000-2023 – yillar).

QI (mustaqil o‘zgaruvchi) — Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari qiymati mlrd so‘mda (2000-2023 – yillar).

Yuqoridagi Stata dasturida amalga oshirilgan regression modelimizda demak biz 2010- yildan 2023-yilgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlarni tahlil qildek demak

⁷⁴ Tadqiqot davri 2000-2022 yillar, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan foizda, muallif hisob-kitoblari

jami ko'rsatkichlar soni 23 tani (Number of obs = 23) tashkil etdi (3.12-rasm).

3.4-jadval

Xorazm viloyati tumanlarining qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari⁷⁵

	Xomashyo manbalari	Transport va logistika	Bozor talabi	Infratuzilma va kommunikatsiya	Kadrlar va ishchi kuchi	Energiya ta'minoti
Bog'ot tumani	•		®	•		•
Gurlan tumani	®		•			
Hazorasp tumani	•	•	•	•	®	®
Xiva tumani			•	•	•	
Qo'shko'pir tumani	•		•	•		
Shovot tumani	®	•			®	
Urganch tumani		®	®	•		•
Xonqa tumani		®	®	®	•	
Yangiariq tumani	®	•				
Yangibozor tumani		®	•		•	
Tuproqqal'a tumani	•	•		•	®	•
Urganch shahri		•	•	•	•	•
Xiva shahri		•	•	•	®	

Kiritilgan jadvalga ko'ra, Xorazm viloyatining turli tumanlarida sanoat zonalarini tashkil qilish imkoniyatlarini batafsil tahlil qilib beraman. Bu tahlilni amalga oshirishda eng muhim omil sifatida xomashyo manbalarining rivojlanganlik darajasiga e'tibor qaratiladi, chunki xomashyo resurslari qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish uchun asosiy o'rin tutadi.

Xomashyo manbalari yuqori darajada rivojlangan hududlar sanoat zonalarini tashkil qilish uchun eng mos joylar hisoblanadi. Quyidagi tumanlar xomashyo manbalarining yuqori darajada rivojlanganligi bilan ajralib turadi (3.4-jadval):

- Bog'ot tumani
- Hazorasp tumani
- Qo'shko'pir tumani
- Tuproqqal'a tumani

Ushbu tumanlarning boshqa omillar bilan tahlili

Xomashyo manbalari yuqori rivojlangan tumanlar qurilish mahsulotlariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil qilish uchun mos bo'lishi mumkin. Biroq,

⁷⁵ Muallif ta'monidan Stata dasturi orqali prognoz ishlab chiqildi.

bu qarorni qabul qilishda boshqa omillar, jumladan transport va logistika, bozor talabi, infratuzilma va kommunikatsiya, kadrlar va ishchi kuchi, hamda energiya ta'minoti ham hisobga olinishi lozim.

1. Hazorasp tumani:

Transport va logistika: Transport va logistika yaxshi rivojlangan, bu esa mahsulotlarni eksport va ichki bozorga tez va samarali yetkazib berishga imkon beradi.

Bozor talabi: Bu yerda bozor talabi yuqori darajada rivojlangan, bu esa qurilish mahsulotlariga katta talab borligini anglatadi.

Infratuzilma va kommunikatsiya: Infratuzilma ham rivojlangan, bu esa sanoat zonalarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi.

Kadrlar va ishchi kuchi: Kadrlar va ishchi kuchi o'rta darajada rivojlangan, bu esa sanoat zonasida mehnat resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi.

Energiya ta'minoti: Energiya ta'minoti ham o'rta darajada rivojlangan bo'lsa-da, bu yerda ishlab chiqarishni boshlash uchun yetarli quvvat mavjud.

Energiya ta'minoti: Energiya ta'minoti yuqori rivojlanmagan bo'lsa-da, sanoat zonasini tashkil qilishda bu omil hisobga olinishi lozim.

2. Tuproqqal'a tumani:

Transport va logistika: Transport va logistika tizimi yaxshi rivojlangan, bu esa mahsulotlarni tashish va yetkazib berishni samarali tashkil qilishga imkon beradi.

Bozor talabi: Bozor talabi past bo'lsa-da, bu tuman ichki va tashqi bozorlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega.

Infratuzilma va kommunikatsiya: Infratuzilma rivojlanganligi sanoat zonasini tashkil qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kadrlar va ishchi kuchi: Kadrlar yetishmovchiligi mavjud, lekin ishlab chiqarish uchun kadrlar yetishtirish imkoniyati mavjud.

Energiya ta'minoti: Energiya ta'minoti yaxshi rivojlangan, bu esa ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur quvvatni ta'minlaydi.

Eng optimal sanoat zonalarini tashkil qilish imkoniyati Hazorasp,

Tuproqqal'a va Qo'shko'pir tumanlarida mavjud. Bu tumanlar xomashyo manbalari yuqori rivojlangan bo'lib, sanoat zonasining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan infratuzilma, transport, logistika hamda energiya ta'minoti yaxshi rivojlangan. Bog'ot tumani ham sanoat zonasi uchun mos bo'lishi mumkin, lekin kadrlar yetishmovchiligi bu tuman uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Shu sababli sanoat zonalarini tashkil qilishda bu omillarni e'tiborga olish lozim.

Ekonometrika fanidan bilamizki bu kabi regression model hosil qilishimiz uchun tadqiq qilinayotgan ko'rsatkichlar soni kamida 20 tani tashkil etish kerak, bu borada modelimiz talabga javob beradi. Demak endi echimlarning induktiv tahlilini ko'radigan bo'lsak, $\text{Prob} > F = 0.00$ koeffitsiyent 0,05 dan kichik, demak 95% ishonch bilan model ekonometrik hamda statistik ahamiyatga ega. hamda $P > |t| = 0.002$ ham 0.05 dan kichik natijani bermoqda. Bu esa N_0 gipotezani rad etish mumkinligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib tenglama statistik jihatdan ahamiyatli (matematik jihatdan: mustaqil o'zgaruvchi bog'liq o'zgaruvchiga ishonchli ta'sir ko'rsatishini bilib olishimiz mumkin.) Endi xuddi shu echimni interpretatsion tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bizda $R^2 = 0.9582$ ga teng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, Mintaqa yalpi hududiy mahsulotining o'sish hajmiga 95 % sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish qiymati ta'sir ko'rsata olar ekan.

Demak regressiya tahlilidan kelib chiqadigan sanoat ishlab chiqarishi hamda Yalpi hududiy mahsulot o'rtasidagi regressiya tenglamasini quyidagi ko'rinishda hosil qilishimiz mumkin:

$$GTP = 1.849 * QI + 1776.07$$

Yuqorida tahlil qilgan korrelyatsiya va regressiya tenglamalaridan shu ko'rinadiki, mintaqa yalpi hududiy mahsuloti harakatida sanoat mahsulotlarini o'rni yuqori emas. Va albatta ikki ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik yuqori bo'lishi uchun mintaqada ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishni taqozo etadi.

Xorazm viloyati iqtisodiy dinamikasi modelini tuzishda foydalanilgan haqiqiy o'zgaruvchisi darajali ishlab chiqarish funksiyasi chiziqli modellarga

o'xshab yetarli darajada ifodalamaydi. Bunday holatlarga haqiqiy va kompleks sonli o'zgaruvchilarning chiziqli ishlab chiqarish funksiyalari ma'qul hisoblanadi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarishini prognozlashning kompleks sonli modellarini tahlil qilamiz. Quyidagi ko'rinishdagi kompleks sonli ishlab chiqarish funksiyasini ko'rib chiqamiz:

$$G + i C = (a_0 + ia_1)K^\alpha (L_1 + iL_2)^\beta$$

Bunda: G – yalpi mahsulot;

S – xarajatlar;

K – asosiy ishlab chiqarish fondlari;

L_1 – mintaqa sanoatida bandlarning o'rtacha yillik soni;

L_2 – mintaqa sanoati sektorida boshqaruvchilar soni;

$a_0 + a_1$ — modellar parametrlari;

α, β – darajali koeffitsiyentlar yakuniy mahsulotning foizli o'zgarishidagi ko'paytiruvchilardan har biri kiritadigan ulushi (yoki bir foizga ortgan mahsulot necha foizga o'sib bordi). U ishlab chiqarishning xarakteriga nisbatan elastiklik koeffitsiyenti hisoblanadi. Tadqiqotning ikkinchi bobida $\alpha + \beta = 1$, deb hisoblangan. Qulaylik uchun, masalan, kompleks sonlar hosilasi yozuvining daraja ko'rsatkichi shaklidan foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarish neoklassik funksiyasining asosiy xossalarini ko'rib chiqamiz.

$f(x_1, x_2, \dots, x_i) = 0$ $x_i = 0$ uchun $a_2 \{1, k\}$, ya'ni mehnat va kapital sarfisiz mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. ifoda uchun xossa bajariladi, chunki K kapital yoki ish haqi fondi L yo'q bo'lsa, ishlab chiqarish ham nol bo'ladi:

$$(f(L, 0) = f(0, K) = 0).$$

Mintaqaviy sanoat tarmoqlaridagi siljishlarni miqdoriy tahlil qilish, rivojlanish muammolarini tezkor aniqlash bilan bir qatorda, mintaqaviy ehtiyojlarga moslashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Bu prognozlash va uning metodologiyasi ishonchli ilmiy vosita bo'lib xizmat qiladigan kelajakdagi sanoat tendensiyalarini chuqur


tushunishni talab qiladi. Sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishni optimallashtirish va uning samaradorligini oshirishda prognozlash, rejalashtirish va dasturlash bosqichlari ham muhim amaliy vazifalardan hisoblanadi. Prognozlash texnologik infratuzilma, tashkiliy qobiliyat, bozor talabi, resurslarga bo'lgan talablar, tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish sur'atlari kabi turli jihatlarni o'z ichiga olgan sanoat sektorining asosiy rivojlanish yo'llarini belgilaydi. Bu elementlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, birgalikda mintaqaviy sanoat istiqbollari shakllantiradi. Dastlabki statistik ma'lumotlarga, iqtisodiy tahlillarga, me'yoriy-huquqiy bazalarga va uslubiy adabiyotlarga tayanish mintaqaviy sanoatni prognozlash uchun axborot asosini tashkil qiladi. Kelajakdagi sanoat mahsulotini loyihalash optimal sanoat siyosatini shakllantirish, rivojlanishning muqobil traektoriyalarini o'rganish, ustuvor tarmoqlarni belgilash va rivojlanish mexanizmlarini tizimli tahlil qilishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar asosida iqtisodiy prognozlashning turli jabhalarini, jumladan, statistik metodologiyalar, ekonometrik modellar va sifatli baholashlarni keng o'rganadi, ayniqsa innovatsion va ilmiy-texnika taraqqiyotiga e'tibor beradi. Miqdoriy tahlil va mintaqaviy tarmoqlardagi muammolarni tezkor aniqlash moslashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar uchun juda muhimdir. Prognozlash rejalashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va samaradorlikni optimallashtirishga yordam beradi. U texnologiya, bozorlar, resurslar va ishlab chiqarish sur'atlarini hisobga olgan holda rivojlanish yo'llarini belgilaydi. Statistik ma'lumotlar va iqtisodiy tahlillardan kelib chiqqan holda, prognozlar siyosatni shakllantirish, tarmoqlarga ustuvorlik berish va mexanizmlarni tahlil qilish imkonini beradi. Mintaqa sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish hajmini bashorat qilish ko'p qirrali ilmiy vazifa bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishga ijobiy va salbiy ta'sirlarni sinchiklab ko'rib chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, mintaqaning sanoat sektori, jumladan, rivojlanishini bashorat qilishda bir qancha muhim tamoyillarga rioya qilish zarur:

1. Tarmoq infratuzilmasi va mintaqaviy iqtisodiyot o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir butun geografik hudud va uning tarkibiy tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlik dinamikasini ko'rsatib beradi.

2. Tizimli metodologiya ma'lum bir hududda sanoat o'sishini bashorat qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tizimlilik tamoyili mahalliy sanoat mahsulotini milliy sanoatning keng kontekstiga integratsiyalashuviga, uni tarkibiy bo'linma sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

3. Tarmoqning rivojlanishining uzluksizligi. Prognozlarni aniqlovchi omillarda jiddiy o'zgarishlar bo'lishi bilan ularga muntazam tuzatishlar kiritib borilishi lozim.

4. Tarmoq prognozlarni ishlab chiqishning uslubiy asosi yagonalikdan iborat. Bu tamoyil barcha tarmoqlarda iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishga yagona yondashuvni, tarmoq prognozlarning o'zaro mos kelishini taqozo etadi.




3.13-rasm. Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi (choraklik) hamda farqlanish (difference)ning grafi⁷⁶

Ekonometrika fanidan bilamizki, iqtisodiy yoki qanday prognoz turi bo'lmasin, avvalo model turini aniqlab olish juda muhim hisoblanadi, modellar mosligini aniqlash uchun amalga oshiriladigan bir qancha testlarni qo'llash mumkin. Yuqoridagi (3.13-rasm) rasmda Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi (choraklik) hamda farqlanish (difference)lar ko'rsatilgan. Tahlillarimiz natijasida, modelimizda smooth prognoz qilish maqsadga muvofiq deb topdik.

⁷⁶ Muallif tamonidan Stata dasturi yordamida tayyorlandi.

$$F_{t+1} = \alpha * A_t + (1 - \alpha) * F_t \quad t=2,3,\dots, T$$

Arima modelida qilingan testlar ishonchlilik darajasidan smooth prognozimiz ishonchlilik koeffisientlari yuqori chiqqanligi smooth prognozdan foydalanishimizga sabab bo'ldi. "Smooth prognoz" tartibsiz tebranishlar yoki o'zgarishlardan holi bo'lgan va vaqt o'tishi bilan izchil, bosqichma-bosqich hamda bashorat qilinadigan trendni ko'rsatadigan prognozni bildiradi. Ushbu turdagi prognoz ko'pincha qisqa muddatli usullar yoki ma'lumotlarni tekislash usullaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi, bu esa kelajakdagi tendensiyalarni yanada barqaror va ishonchli bashorat qilishga olib keladi.



3.14-rasm. Modelning trend residuals hamda smooth residuals grafi⁷⁷

Residualslarning 0 ga nisbatan qanchalik yaqin joylashganligi jihatidan ham ko'rishimiz mumkinki smooth prognozimiz error termlari 0 ga yaqin joylashgan (3.14-rasm). "Error term" smooth prognozidagi haqiqiy ma'lumotlar va prognozlar o'rtasidagi farqni bildiradi. Agar bu qiymat 0 ga yaqin bo'lsa, bu smooth prognozini qo'llab quvvatlash mumkinligini anglatadi. Demak, prognozimizni amaliyotda qo'llash mumkinligini ham ko'rib chiqdik. Prognoz qilingan ko'rsatkichlarimiz ham viloyat sanoat majmuasiga ta'sir qilish jihatdan ahamiyatli


⁷⁷ Muallif tamonidan Stata dasturi yordamida tayyorlandi.

ko'rsatkichlar ekanligi ham prognoz ma'lumotlarni ahamiyatligini oshirishga xizmat qiladi.

ARIMA modelining (2,0,2) usulidan foydalanilgan. ARIMA modelining (2,0,2) turi ARIMA modellari 121oorish121c metodlarining biridir. Bu tur o'rtacha vaqt ketma-ketligidagi o'zgaruvchilar vaqt ketma-ketligi bo'yicha moslashuvlarni aniqlashda ishlatiladi.

(2,0,2) ARIMA modeli uchun, bu quyidagi ma'noga ega:

Autoregressive (AR) qismi: Bu 2 daraja bo'ylab, ya'ni 121ooris qiymatni birinchi va ikkinchi avvalgi qiymatlariga bog'lash uchun moslashuvlar mavjudligini bildiradi.



3.15-rasm. Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi prognozi grafiklari⁷⁸

Moslashuv (MA) qismi: Bu ham 2 daraja bo'ylab, ya'ni 2 ta qadam moslashuvlar mavjudligini bildiradi. Model 2 avvalgi qiymatlarga qarab o'zgaruvchilarni aniqlashda, vaqt ketma-ketligi moslashuvlarini hisobga oladi. Yuqoridagi rasm (3.15 – rasm) orqali prognoz ko'rsatkichlarimizning grafik ko'rinishida qanday tasvirlanayotganligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Xorazm

⁷⁸ Muallif tomonidan Stata dasturi yordamida tayyorlandi.

viloyati sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarining vaqt kesimida regressiya modeli ko'rsatkichlarini esa quyida ko'rib chiqamiz.

Statistik ma'lumotlar bir nechta regressiya modellari ustida o'rganilgan, har birida R-kvadrat, F-statistika, ma'lumotlar soni (obs), va ko'rsatkichlarning t qiymatlari ko'rsatilgan.

Hamma modellar uchun R-kvadrat qiymatlari yaqinlashgan 1 ga, bu esa modellar tomonidan o'zgartirilgan ma'lumotlar umumiy o'zgarishning katta qismini ifodalaydi. F-statistika ham barcha modellar uchun aniq ravishda aniq va $\text{prob} > F$ qiymati esa 0 ga teng. Bu esa modellar umumiy ravishda ma'lumotlar to'plamining qanday to'g'ri moslashganligini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlar ($P > |t|$) ham barcha modellar uchun aniqdir (3.5-jadval). Shu ma'lumotlar asosida, barcha modellar kuchli tushuntirish kuchiga ega.

3.5-jadval

Xorazm viloyati YaHM hamda sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarining vaqt kesimida regressiya modeli ko'rsatkichlari⁷⁹

	YaHMning kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Sanoat mahsulotlarining kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Qayta ishlash sanoati kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Sanoatda band bo'lganlarning o'rtacha oylikning davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (ming so'm)
R-squared	0.7962*	0.9190*	0.9201*	0.8885*
Prob > F	0.0000*	0.0000*	0.0000*	0.0000*
Number of obs	23*	26*	26*	19*
P> t 	0.000*	0.000*	0.000*	0.000*

Regressiya analizi odatda ma'lumotlar va ularning tahlilini o'z ichiga oladi. Bizning ma'lumotlar foydalanish uchun sanoat sohasining turli asoslarini qamrab olmasdan, umumiy ravishda nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tahlilni ifodalaydi. Prognoz vaqtga ta'sirchan bo'lgan bashorat turi bo'lib, vaqt

⁷⁹ Muallif ta'monidan Stata dasturi orqali prognoz ishlab chiqildi.

o'tishi bilan yo'nalishlardagi o'zgarishlarni kuzatadi. Buni amalga oshirishning iloji bo'lmasa, tendensiyalarni taxmin qilish uchun vaqtga asoslangan muqobil taqdimotlar qo'llaniladi, bu esa olingan bashoratli qiymatlarga olib keladi. Iqtisodiy jarayonlarni prognozlashning kuchayishi samaraliroq iqtisodiy tartibga solish va rivojlanish bilan bog'liq bo'lib, milliy va mintaqaviy darajada noto'g'ri o'ylangan qarorlarning salbiy ta'sirini minimallashtiradi.

3.6-jadval

Xorazm viloyati YaHM hamda sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlarining kelgusi 5 yil uchun qilingan prognozlari⁸⁰

Prognoz qilingan yillar	YaHMning kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Sanoat mahsulotlarining kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Qayta ishlash sanoati kelgusi davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (mlrd so'm)	Sanoatda band bo'lganlarning o'rtacha oylikning davrlarda prognoz qilinayotgan miqdori (ming so'm)
2024	42 366.35	23 508.59	22 765.91	4 543.29
2025	47 567.96	25 582.48	25 075.98	4 929.09
2026	52 769.57	28 256.37	27 386.06	5 314.89
2027	57 971.18	30 360.26	29 696.14	5 700.59

Mintaqaning sanoat ishlab chiqarish prognozi quyidagi strategik raqobatdosh ustunliklarni va mintaqaning qiyosiy afzalliklarini hisobga oldi:

hududning strategik geografik joylashuvi (chegara hududlari va jahon bozorlari va quruqlik va suv kabi ochiq dengizlarga chiqish), shuningdek, muhim ichki bozorlarning mavjudligi.

hududning tabiiy sharoiti, iqlimi, iqtisodiy salohiyatining umumiy tavsifi.

mintaqadagi demografik holat va aholi turmush darajasi (aholi soni va tarkibi, ishchi kuchi miqdori va sifati, oliy ma'lumotlilar soni, sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar soni).

⁸⁰ Muallif ta' monidan Stata dasturi orqali prognoz ishlab chiqildi.

Tahlil va baholash: Belgilangan tarmoqlar, ularning afzalliklari, cheklavlari, istiqbollari va muammolarini baholashni o'z ichiga olgan mintaqadagi hozirgi sanoat landshaftini har tomonlama o'rganish. Ushbu tahlilda mintaqaning resurslari, infratuzilmasi, bozor salohiyati va ishchi kuchi ham hisobga olinishi kerak.

Maqsadlarni belgilash: Mintaqaviy sanoat tarmoqlari uchun aniq maqsad va vazifalarni belgilash. Ushbu maqsadlar mintaqaning umumiy rivojlanish intilishlariga mos kelishi, bandlikni ta'minlash, iqtisodiy taraqqiyot, barqarorlik va innovatsiyalar kabi elementlarni hisobga olishi kerak.

Doimiy takomillashtirish: fikr-mulohazalar, o'zgaruvchan bozor dinamikasi, texnologik yutuqlar va rivojlanayotgan mintaqaviy ustuvorliklar asosida mintaqaviy sanoat dasturlarini doimiy ravishda ko'rib chiqish va takomillashtirish.

Manfaatdor tomonlarning ishtiroki: barcha tegishli tomonlarni, jumladan, hukumat organlari, sanoat guruhlari, jamoatchilik vakillari va xususiy korxonalarni jalb qiling. Ularning faol ishtiroki dastur ishlab yaratishda yaxlit va inklyuziv strategiyani ishlab chiqish uchun ajralmas hisoblanadi.

Baholash: hududiy sanoat dasturlarining umumiy samaradorligi va ta'sirini baholash uchun davriy baholashlarni o'tkazish. Belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq natijalarni baholash, asosiy yo'nalishlarni aniqlash va yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Strategiyani shakllantirish: Sanoatni rivojlantirish bo'yicha strategik yo'l xaritasini ishlab chiqish, unda asosiy yo'nalishlar, maqsadli tarmoqlar va belgilangan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan aniq tashabbuslar ko'rsatilgan.

Hamkorlik: Turli manfaatdor tomonlar, jumladan, akademiya, tadqiqot institutlari, sanoat rahbarlari va xalqaro hamkorlar o'rtasida sinergiya va hamkorlikni rivojlantirish. Ushbu hamkorlik yangi bozorlarga yo'l ochishi va sanoat dasturlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Resurslarni taqsimlash: sanoat tashabbuslarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va xodimlarga bo'lgan ehtiyojni baholang. Bu davlat va xususiy moliyalashtirishning istiqbolli yo'llarini aniqlashni hamda resurslarni samarali jalb qilish va taqsimlash mexanizmlarini yaratishni nazarda tutadi.

Amalga oshirish va monitoring qilish: Belgilangan loyiha va tashabbuslarni belgilangan rejalar asosida amalga oshirish. Dasturlarning borishi va ta'sirini muntazam ravishda kuzatib boring va baholang, kerak bo'lganda kerakli tuzatishlar va yaxshilanishlarni kiriting.

Loyihani aniqlash va rejalashtirish: strategik maqsadlarga munosib loyihalar va tashabbuslarni izlash. Ushbu loyihalar sanoatning o'sishini, innovatsiyalarni, infratuzilmani rivojlantirishni va inson kapitalini oshirishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Loyihaning batafsil rejalarini, jumladan, muddatlar, bosqichlar, budjet smetalari va asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqing.

3.16-rasm. Hududiy sanoat dasturlarini ishlab chiqish mexanizmi⁸¹

mintaqaning mineral-xom ashyo salohiyati, shu jumladan uning resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi (joriy va kutilayotgan yirik konlar, mineral boyliklar, yer resurslari va suv resurslari).

qayta ishlangan meva va sabzavotlar, shuningdek, go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan muhim tabiiy va iqtisodiy

⁸¹ Muallifning tadqiqotlari asosida tayyorlandi.

resurslardan foydalanish imkoniyati.

mintaqada an'anaviy ishlab chiqarish tajribasi darajasi. hududning sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlarini cheklovchi omillar (tabiiy, ichimlik va texnik suv resurslariga ehtiyoj, sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish, malakali sanoat ishchi kuchining mavjudligi va boshqalar).

mintaqaning tashqi muhitini tahlil qilish (qo'shni davlatlardagi siyosiy vaziyat, tashkil etilgan transchegaraviy hamkorlik darajasi, iqlim o'zgarishi, mehnat migratsiyasi, transport tizimi muammolari, mintaqaviy omillar).

mintaqadagi qo'shimcha potentsial resurslar.

Hududning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholashni takomillashtirish uchun muallif mintaqaning sanoat imkoniyatlarini baholashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini tavsiya qiladi (3.16 –rasm).

Muallif tomonidan yuqori iqtisodiy va sanoat salohiyatiga ega, hududiy sanoatlashtirish darajasi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish hajmlari prognozidan kelib chiqib, ushbu hududda sanoat ishlab chiqarish dinamikasi va yuqorida qayd etilgan sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholash yo'nalishlari taklif etilgan.

Birinchi bosqich — prognostika. Bu bosqichda ishlab chiqarish tarmog'ining resurs bazasi, texnologiya va uning mahsulotlariga bo'lgan talab, talab tarkibi, har bir mahsulotga bo'lgan talab, mahsulotga bo'lgan ichki talab, eksport hajmlari, prognoz ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bu bosqichda ishlab chiqarishga yaroqli resurslar va xom ashyo turlari va manbalari aniqlanadi. Tarmoqning tayyor mahsulotlari va yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talab ko'rsatkichlari, shuningdek, xom ashyoning minimal va maksimal salohiyati tahlil qilinadi. Bundan tashqari, asosiy mahsulotlar va jarayonlarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi.

Ikkinchi bosqich — optimallashtirish. Ushbu bosqichda tayyor va yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun eng samarali xom ashyo tanlanadi. Sanoatning xom ashyoga bo'lgan talabi va uning resurs bazasi va butun mamlakat bo'ylab ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasida muvozanatga erishiladi, bunda

transportning turli xil variantlari optimallashtiriladi. Optimal ishlab chiqarish usullari va texnologiyalari ham tanlanadi.

Uchinchi bosqich: Uchinchi bosqichda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun dasturiy ta'minot ishlab chiqiladi. Ushbu bosqichda bir nechta loyihalar o'rtasida kelishuvga erishiladi. Loyihani amalga oshirishda moliyaviy imkoniyatlar ko'rib chiqiladi va kelgusi davr uchun ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Shuning uchun investitsiya dasturlarini optimallashtirish metodologiyasi asosida hududiy sanoat sektorini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish zarur. Natijada, dasturlarni ishlab chiqish murakkab, ko'r-ko'rona jarayonni o'z ichiga oladi.

Mintaqalarda ishlab chiqarish quvvatlarini muttasil kengaytirish hududlarni sanoatni uzluksiz rivojlantirishning kuchli omili bo'ladi. Ushbu o'sish noan'anaviy iqtisodiy faoliyatni, xususan, katta qo'shimcha qiymat taklif qiluvchi o'rta va yuqori texnologiyali tarmoqlarni joriy etish va rivojlantirish hisobiga ta'minlanadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

1. Mintaqada sanoat ishlab chiqarish hajmini prognozlash ishlab chiqarish miqdori oshirishiga xizmat qiluvchi barcha ijobiy va salbiy omillarni hisobga olishni talab qiladigan murakkab ilmiy vazifadir. Shuningdek, sanoat tarmoqlarini rivojlanishini prognozlashda muhim tamoyillarga rioya qilish kelgusida aniq ko'rsatkichlarga asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Bu tamoyillar sanoat tarmoqlari va mintaqa iqtisodiyotlarining o'zaro bog'liqligini hisobga olish, sanoatni rivojlantirishga tizimli yondashuvni qo'llash, tarmoqlarni rivojlantirishda uzluksizlikni ta'minlash, prognozlashda metodologik uyg'unlikni ta'minlashda, bashorat qilishda iyerarxiyani o'rnatishni o'z ichiga oladi.

2. Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi dinamikasini prognoz qilish uchun trend hamda smooth modelidan foydalandik. Ushbu model hisoblangan ko'rsatkich vaqtinchalik omil bilan monotonik munosabatni namoyon qiladi, bu tahlil qilinadigan dinamikaning uzluksiz va tasodifiy hodisalar ta'siridan xoli ekanligini aks ettiradi. Biroq, real vaqtda ketma-ket ma'lumotlarga asoslangan

trend tenglamasini aniqlash qiyin. Eng maqbul tendensiya tenglamasi kvadrat og'ishlar yig'indisini minimallashtirish shartini qondirishi kerak.

3. Prognozlashda ko'p omillik funksiya darajasi oshgani sayin vaqtinchalik omil ta'sirini ifodalovchi determinatsiya koeffitsiyenti ham ortib, sanoat ishlab chiqarishining o'sish tendensiyasidan dalolat beradi. Prognozlash vaqtga bog'liq bo'lgan prognozlik ko'rsatkich bo'lib, vaqtinchalik omilga asoslangan holda bir yo'nalishdagi o'zgarishlarni taxmin qiladi. Agar bunday bo'lmasa, prognozlash uchun vaqt funksiyasining muqobil ko'rinishlari qo'llaniladi va shunga ko'ra prognoz qilingan qiymatlar aniqlanadi.

4. Iqtisodiy jarayonlarni prognozlash va ular asosida qarorlar va dasturlar qabul qilish qanchalik takomillashgan bo'lsa, iqtisodiyotni tartibga solish hamda rivojlantirish shunchalik natijador bo'ladi. Ham milliy, ham mintaqaviy darajada noto'g'ri qarorlar yetkazadigan zarar ko'lami kamroq bo'ladi.

5. Mintaqaning sanoat ishlab chiqarishini prognozlashda biz mintaqaning quyidagi strategik raqobatdosh ustunliklari va qiyosiy ustunliklarini hisobga oldik:

a) Strategik geografik joylashuv, chegara hududlariga, global bozorlarga va quruqlik va suv kabi ochiq dengizlarga, shuningdek, muhim ichki bozorlarga chiqishni ta'minlaydi.

b) Mintaqaning tabiiy sharoiti, iqlimiy, iqtisodiy imkoniyatlarining umumiy tavsifi.

c) Mintaqaning mineral xomashyo salohiyati va resurs bilan ta'minlanganlik darajasi,

d) Mintaqada aholi soni va tarkibi, ishchi kuchi miqdori va sifati, oliy ma'lumotli shaxslar soni, sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar soni va boshqalarni o'z ichiga olgan demografik holat va aholining turmush darajasi.

Hududning sanoat ishlab chiqarishini prognozlash tarixiy ma'lumotlar, iqtisodiy tendensiyalar va sanoat ishlab chiqarish hajmiga ta'sir qiluvchi omillar asosida sanoat sektorining kelajakdagi ishlab chiqarishi hamda o'sishini bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Muayyan prognozlar mintaq va uning xususiyatlariga qarab farq qilishi mumkin.

XULOSA

Mintaqa sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy hamda amaliy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Uslubiy yondashuvga ko'ra "mintaqaviy sanoat siyosati" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mintaqadagi sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuiga ilmiy-texnika yutuqlarini qo'llashning ustuvor yo'nalishlarini tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan talabalar uchun tavsiya etilgan o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanildi.

2. Resurslari cheklangan mintaqalar uchun ko'proq resurslar bilan ta'minlangan hududlarning salohiyatidan foydalanish hududni kompleks rivojlantirishga imkon beradi hamda hududlararo loyihalarni amalga oshirish imkoniyatidan foydalanishni taqozo qiladi. Shundan kelib chiqib, viloyatdagi hududlarning tabiiy resurs hamda ishlab chiqarish imkoniyatlari oldingi yillardagi statistik ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'rganildi hamda tabaqalarga ajratildi.

3. Mintaqada 2023- yil dekabr oyi holati bo'yicha faoliyat ko'rsatmayotgan sanoat korxonalar soni 760 tani tashkil etgan, bundan tashqari to'liq quvvat bilan ishlamayotgan sanoat korxonalar ulushi ham mintaqada yuqori ekanligi aniqlandi. To'liq quvvat bilan ishlamayotgan yoki nafaol sanoat korxonalarida xususiy yorliqli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish orqali mintaqa sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha yo'nalishlar taklif etildi.

4. Xazorasp va Tuproqqal'a tumanlarida ishlab chiqarish maydonlarini belgilash, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish asosida qurilish materiallariga ixtisoslashgan sanoat zonalarini tashkil etish orqali viloyat sanoat salohiyatini oshirish taklif etildi.

5. Mintaqa (viloyat) sanoatiga yangi innovatsion yechimlar (patentlar)ni sanoat ishlab chiqarish salohiyatini yaxshilashga ta'siri 76,04 koeffitsiyentda baholanib, regressiya hamda SEM modellari ishlab chiqildi. Mintaqa sanoatini

innovatsion yechimlar (patentlar)ni rag'batlantirish orqali rivojlantirish asoslab berildi.

6. Mintaqa sanoat tuzilmalarini birlashtirish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim jarayonlaridan biridir. Shu bilan birga, sanoat institutsional tuzilmalarini innovatsion takomillashtirish orqali eskirgan ishlab chiqarish tizimlari o'rniga yangi innovatsion tizimlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berildi hamda takliflar bildirildi.

7. Respublikamizning hududlarida 2012-2023 yillar mobaynida sanoat ishlab chiqarish darajalari o'rganildi. O'rganishlar natijasida sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha past ko'rsatkichni qayd qilgan hududlarni tahliliy o'rganish natijasi bo'yicha uchta guruhga ajratib olindi. Unga ko'ra past darajadagi hududlar bular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarini aytib o'tishimiz mumkin. Shuningdek Namangan, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish o'rta darajadagi ulushlari borligi o'rganildi hamda Andijon, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida yuqori sanoatlashish darajasi aniqlandi.

8. Xorazm viloyatida 2022-yilda 2012-yilga nisbatan sanoat sohasidagi barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarda jumladan, ishlab chiqarish hajmi, sanoat tuzilmasidagi asosiy kapital hajmi, sanoat tuzilmasida bandlar soni, sanoat tuzilmasidagi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi sonida o'sish kuzatilgan. Ammo, iqtisodiyotning siklligi mavjud bo'lgani kabi, ushbu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar 10 yil mobaynida barqaror tarzda o'smagan. Demak, sanoat tuzilmasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun doimiy tarzda chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarurligi taklif etildi.

9. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, shu paytga qadar Xorazm viloyati sanoati tuzilmasi va uning tarmoqlarining prognoz qiymatlari faqat iqtisodiy rivojlanish nuqtai-nazaridan prognoz qilingan. Ishda uning ijtimoiy-iqtisodiy va sanoat tarmoqlarning rivojlanishini 2027-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmoni. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.10.2023 yildagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-169-sonli farmoni. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.11.2022 dagi “O‘zbekiston Respublikasi bosh vazirining Investitsiyalar va Tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — investitsiyalar va tashqi savdo vazirining funksional vazifalari, investitsiyalar, eksportni qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari kotibiyati hamda mahalliy sanoatni rivojlantirish va kooperatsiya aloqalari masalalari kotibiyati to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida ” 671-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2022 dagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 99-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.03.2022 dagi “2022 - yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 134-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2023 yildagi “ 2024 - 2026-yillarda O‘zbekiston respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish

infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-404-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2023 dagi “Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi PQ-397-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 11.01.2024 dagi “Sanoat namunasiga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko‘rib chiqish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3490-sonli buyrug‘i. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2023 dagi “ Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi faoliyatining samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-379-sonli qarori. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

II.Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. “Sustainable Industry Development in Regional Contexts: Case Studies and Policy Implications” by Daniel Lee (2021).

2.2. “Industrialization Strategies and Regional Development: A Comparative Analysis” by Emily Brown (2020)

2.3. “Analysis of Industrial Trends in Regional Economies” by Ahmed Khan (2020).

2.4. “Innovation and Industry Dynamics in Regional Economies” by Laura Martinez (2017)

2.5. М. Портер. Международная конкуренция. Конкурентные преимущества стран. Издательство-Алпина Паблишер, 2017 г. 947 с

2.6. “Regional Industry Development: Strategies and Challenges” by Maria Garcia (2018).

2.7. Sassen, S. The Global City: New York, London, Tokyo; Princeton University Press: Princeton, NJ, USA, 2013

2.8. The Role of Manufacturing in Sustainable Economic. Development: A Case of Guangzhou, China. August 2018

2.9. Баканач О.В. Типология регионов РФ по уровню развития промышленного потенциала / О.В.Баканач, К.В.Гаус //Проблемы совершенствования организационно-производственного и управления промышленными предприятиями: межвузовский сборник научных трудов. -2012. -No 1. -С. 15-21.

2.10. Mintaqada Sanoat Ishlab Chiqarishning Rivojlanishi: Nazariy va Amaliy Ko'rsatkichlar“ - Muhammad Ali, 2020

2.11. “O‘zbekiston Mintaqalarida Sanoat Ishlab Chiqarishni Rivojlantirishning Asosiy Yo‘nalishlari va Xususiyatlari“ - Gulnora Abdullayeva, 2018

2.12. “Policy Implications of Industrial Development in Regional Contexts: Lessons Learned and Future Directions” by Ahmed Khan (2021).

2.13. Гаджиев Ю.А. Зарубежные новые теории регионального роста и развития // “Корпоративное управление и инновационное развитие Севера”. Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2008 No2.

2.14. Зиядин С.Т., Курманбаева С.Т., Зиядина Ж.Т., Ибраева А.К. Методология прогнозирования и планирования в промышленном комплексе // Современные проблемы науки и образования. –2014. – No 3.;URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=13684>

2.15. “Industrial Development Patterns and Policies: A Comparative Study of Regions” by Anna Petrova (2019).

2.16. Karabaeva G.Sh. Sanoat tarmoqlarini joylashtirish muammolari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi: muammolar va innovatsion rivojlanishga o'tish yo'llari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami.–T.: TDIU, 2011. 193-194-b.

2.17. Кругман П.Р., Обсфелд М. Международная экономика: теория и практика. /Пер. с англ. М.: МГУ, ЮНИТИ, 2015. –349 с.

2.18. “Анализ тенденций развития промышленности в региональных экономиках“ - Екатерина Смирнова (2020).

2.19. Ларионов А.О. Оценка промышленного потенциала региона. Проблемы развития территории. Вып. 2(76). 2015. -46 с.

2.20.“Основные направления и характеристики развития промышленности в регионе“ - Александр Иванов (2019)

2.21. “Стратегии индустриализации и развитие региональной экономики: сравнительный анализ“ - Иван Петров (2018)

2.22. “Политика промышленного развития в региональном контексте: опыт, уроки и перспективы“ - Ольга Сидорова (2021)

2.23. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. –Т.: IQTISOD -MOLIYA, 2005. -280 с.

2.24. Свинцова А.П. Промышленный потенциал: понятие, критерии, структура. Экономический вестник УГНТУ / под ред. д.э.н. Родионовой Л.Н. // Сб. трудов УГНТУ, 2001. С. 103 -106.

2.25. Сепик Д. Индикаторы конкурентоспособности регионов: европейский подход // Регион: экономика и социология, 2005, No2.

2.26. Серебрякова Л.А. Методы оценки уровня социально-экономического развития регионов // Вестник СевКавГТУ, серия “Экономика”, 2003, No3.

2.27. Стефанюк О.Д. Теоретические подходы к определению структурных изменений социально -экономического развития региона. // Экономика регионов. No3 (36). 2011. -148 с.

2.28. Taraxtieva G.K. O‘zbekiston neft-gaz sanoatida innovatsiya klasterlarni shakllantirishning ahamiyati. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyasi: muammolar va innovatsion rivojlanishga o‘tish yo‘llari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruza tezislari to‘plami. –Т.: TDIU, 2011. 76-77-b.

2.29. To‘laganov A.X. Sanoatni hududiy tashkil etish va rivojlantirish omillari. Iqtisodiy o‘shish va iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirishning muhim

omillari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.– Toshkent,2011. -500 b.

2.30. O‘zbekiston iqtisodiyoti: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / N.To‘xliev va boshqa. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –488 b.

2.31. Hamroyev H.R. Zonal siyosat: metodologiya, xorijiy tajriba va qo‘llash yo‘nalishlari. Monografiya. –T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti,2008.

2.32. Elov D.A., Ochilov N.Ya. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish omillari va rivojlanish tamoyillari. “Iqtisod va moliya”ilmiy-amaliy jurnali. No8, 2013 -47 s.

2.33. Развитие промышленного комплекса региона: тенденции и перспективы“ - Смирнова Е.Н. (2020).

2.34. Ergashev J.J. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash korxonalarining roli. Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiyotni muvozanatli rivojlantirishning muhim omillari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. -Toshkent. 2011. 508-510b.

2.35. Chang H.J., Lin J. Should Industrial Policy in Developing Countries conform Comparative Advantage or Defy it? A debate between Justin Lin and Ha-Joon Chang // Development Policy Review. 2009. No. 27(5).III.

2.36. Nassif, A., L.C. Bresser-Pereira and C. Feijo. (2018). “The Case for Reindustrialisation in Developing Countries: Towards the Connection between the Macroeconomic Regime and the Industrial Policy in Brazil”, Cambridge Journal of Economics, 42:355-381.

2.37. “Анализ структуры и динамики промышленного развития в регионе“ - Петров И.С. (2018).

2.38. “Экономические факторы и политика промышленного развития в региональном контексте“ - Сидорова О.А. (2021)

2.39. “Стратегии промышленного развития региона: опыт и перспективы“ - Федоров Н.П. (2022).

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. “Regional Industrial Policies: Theory and Application” by Alexei Volkov and Natalia Pavlova (2021)

3.2. “Industrial History of European Countries”. European Route of Industrial Heritage. Council of Europe. Retrieved 2 June 2021

3.3. “Economic Concentration: Structure, Behavior and Public Policy” John. M Blair

3.4. “Tools for Assessing Industry Development in Regional Contexts” by Dmitry Ivanov and Yekaterina Sidorova (2017)

3.5. United Nations Industrial Development Organization, 2017. Industrial Development Report 2018. Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna

3.6 “Strategies for Promoting Industry in Regional Economies” by Elena Smirnova and Andrey Fedorov (2019)

3.7. “Understanding Regional Economic Development: Industry Perspectives” by Sergey Kuznetsov and Olga Sokolova (2018)

3.8. Barqaror ishlab chiqarish va eko-innovatsiyalar: asoslar, amaliyotlar va o‘lchovlar. Sintez hisoboti; Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD): Parij, Fransiya, 2009 yil

3.9. Bekmurodov A.Sh., G‘afurov U.V. Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o‘zgarishlari /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” asarini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot 2012.

3.10. Бункина М.К., Семенова А.М., Семенов В.А. Макроэкономика: Учебник. 3 -е изд. –М.: Дело и сервис, 2000. -512 с.

3.11. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo‘minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O‘quv qo‘llanma. / i.f.d., professor A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. –T.: Moliya, 2010.-256b.

- 3.12. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. –М.: 2003. С. 113-114.
- 3.13. Journal of security and sustainability issuesissn 2029-7017 print/ISSN 2029-7025 online 2017 December Volume 7 Number 2
- 3.14. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. –Т.: Фан, 1980. -194 с.
- 3.15. Гутман Г.В. и др. Управление региональной экономикой / Г.В. Гутман, А.А. Мироедов, С.В. Федин; под ред. Г.В. Гутмана. –М., 2002. 176 с.
- 3.16. Имамов Ш.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана: Автореф. дис. докт. экон. наук. –Т.,1998.
- 3.17. Казинец Л.С. Измерение структурных сдвигов в экономике. - М.: Экономика, 1969. -27 с.
- 3.18. The 17 Sustainable Development Goals (SDGs) of the 2030 Agenda for Sustainable Development; Commission on Sustainable Development: New York, NY, USA, 2016
- 3.19. Красилников О.Ю. Структурные сдвиги в экономике современной России. –Саратов: Изд-во Научная книга, 2000. -183 с.
- 3.20. Кругман П. Р., Обстфелд М. Международная экономика. 5-е изд. - СПб.: Питер, 2003. -832 с.: ил. -(Серия “Учебник для вузов”).
- 3.21. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.
- 3.22. Qayumov A., Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O'. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. O'zMU. –Toshkent,2004. -34 b.
- 3.23. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. –56 b.
- 3.24. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –104 b.

3.25. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. –48 b.

3.26. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

3.27. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. –T.: O'zbekiston, 2017. –592 b.

3.28. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2017 yil 7 dekabr. <http://press-service.uz/uz/lists/view/1328>

3.29. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. <http://press-service.uz/uz/lists/view/1371>

3.30. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod –buyuk kelajakning, tadbirkor xalq –farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir// Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr.

3.31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2018 yil, 29 dekabr. No 271-272 (7229–7230)

3.32. Nazarov Sh.H. O'zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Dok. diss. avtoref. –T.: 2016.

3.33. Низамутдинов И.К. Региональная промышленная политика: особенности формирования и реализации. Диссертация на соискание ученой степени кандидата (доктора) наук. –Казан,-2012.

3.34. Ortiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. –T.: TDIU,2009. -304 b.

3.35. Respublika hududlarini 2016-2018 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha mahalliy hokimliklar-ning

dolzarb vazifalari. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish

3.36. Transforming economies: Making industrial policy work for growth, jobs and development José Manuel Salazar-Xirinachs, Irmgard Nübler and Richard Kozul-Wright (editors) International Labour Office. – Geneva: ILO, 2014

3.37. Hazwan, H. (2020). “The Evolution of China’s Modern Economy and its Implications on Future Growth” Post-Communist Economies. <https://doi.org/10.1080/14631377.2020.1793610>

3.38. <https://www.cnbc.com/2021/08/25/auto-industry-supply-chains-hit-hardest-during-covid-pandemic-survey.html>

3.39. www.xorazmstat.uz — Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb-sayti